

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT  
ISHLARI VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI**

**Botir MATYOQUBOV**

**DAMLI VA ZARBLI CHOLG‘ULARDA CHALISHNI  
O‘RGATISH USLUBIYATI**

Toshkent  
2008

*O'quv qo'llanma O'zbekiston davlat konservatoriyasi ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.*

Ushbu kitob musiqiy oliy o'quv yurtlarining damli va zarbli cholg'ular mutaxassisligi bakalavriat bosqichi talabalariga «Damli cholg'ularda o'qitish uslubiyoti» fani uchun asosiy o'quv qo'llanma sifatida mo'ljallangan.

Kitobda Ovro'pa damli cholg'ulari bilan bir qatorda o'zbek damli cholg'ularining kelib chiqish tarixi, qo'llanilishi, turlari, jismoniy va ruhiy asoslari, ularda tovush hosil qilish, ijrochilik nafasi, ijro imkoniyatlari, turli hajmdagi asarlar ustida ishlash va ansambl ijrochiligi xususida so'z yuritiladi. Shuningdek, bu kitobdan musiqiy ovoz rejissyorligi mutaxassisligi bakalavriat bosqichi talabalariga ham «Musiqiy akustika» fanidan qo'shimcha adabiyot sifatida foydalanish mumkin.

Qo'llanma Davlatta'lim standartlariga binoan san'at yo'nalishidagi o'quv reja va dasturlar asosida tayyorlangan.

**Muharrir:** **S. Begmatov**, O'zbekiston davlat konservatoriyasi prorektori, san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent.

**Taqrizchilar:** **B.S.Salixov**, O'zbekiston davlat konservatoriyasi damli va zarbli cholg'ular kafedrasini mudiri, professor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist.

**R.M.Petrov**, H.H Niyoziy nomidagi Respublika musiqa kolleji orkestr cholg'ulari kafedra mudiri, O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi.

**J.S.Saburov**, V.Uspenskiy nomidagi RMAL damli va zarbli cholg'ular bo'lim boshlig'i.

© O'zbekiston davlat konservatoriyasi  
Tahrir-nashriyot bo'limi,  
© B.Matyoqubov, 2008.

## MUALLIFDAN

Damli va zarbli cholg'ularda chalishni o'rgatish uslubiyati fani uchun yozilgan ushbu qo'llanma oldingi Moskvada nashr etilgan rus tilidagi darsliklardan ancha farq qiladi.

Qo'llanmadagi ko'pchilik mavzular adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan mualliflarning tarjima qilingan yig'ma majmuasi va muallifning ko'p yillik izlanishlari samarasi sifatida yuzaga kelgan bo'lib, umumslubiyat masalalariga qaratilgandir. Shuningdek, bunda damli cholg'ular ansambllari uchun O'zbekiston kompozitorlarining asarlari, O'zbekiston sozanda o'qituvchilari tomonidan yaratilgan darslik, o'quv qo'llanmalar va barcha damli va zarbli cholg'ular uchun pedagogik repertuarlarga ham izohlar berilgan.

Muallif ushbu qo'llanmani yaratilishida o'z yordamlarini ayamagan O'zbekiston Davlat konservatoriyasi professorlari, «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiyi» V.L.Melkomini, «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist» B.S.Salixov, bosh o'qituvchilar M.Vafojev, X.S.Qodirov va boshqa ustozlarga o'z minnatdorchiligini bildiradi.

## KIRISH

Uslubiyat fani musiqiy pedagogikaning tarkibiy qismlaridan bo'lib, yunoncha metod so'zi – maqsadga eltuvchi yo'l degan ma'noni bildiradi. Metodikaning maqsad va vazifalari mutaxassislar tayyorlash ishini belgilangan reja asosida olib borishdan iboratdir.

Bu fan O'zbekiston hamda xorijiy sozanda-pedagog va ijrochi ustozlarning tajribalarini umumlashtirgan va ulardan kelib chiqqan holda, talabani yakka tartibda o'qitish va unga individual shaxs sifatida yondashish qonuniyatlari va uslublarini o'rgatadi. Shuningdek, boshqa musiqiy nazariy fanlardan farqli o'laroq mutaxassislik fani bilan chambarchas bog'langan holda sozandalar tayyorlash sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Agar mutaxassis qaysi soha egasi bo'lishidan qat'iy nazar uslubiyat malakalarini egallagan bo'lmasa u o'z kasbining yetuk egasi bo'la olmaydi. Chunki barcha yo'nalishlar shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda har bir o'qimishli mutaxassis keng bilimga va ko'nikmalarga ega bo'lmog'i lozim.

Uslubiyatning sozandani o'z kasbiga xususan damli cholg'ularni chalishga o'rgatishdagi o'rni muhim ahamiyatga ega.

Damli va zarbli cholg'ularda o'qitish metodikasi fan sifatida boshqa mutaxassisliklarga qaraganda ancha yosh va o'zining yo'l-yo'riqlariga hamda ushbu cholg'ularda ijro etish va o'rgatishning umumiy qonuniyatlariga egadir. Uslubiyat ijrochilik tarixi davomida turli bosqichlarda rivojlanib kelgan.

Ovro'pa cholg'ulari bizga ruslar orqali kirib kelgan bo'lsa, Rossiyaga ham xorijdan kelganligi tarixdan ma'lum. Lekin u davrda damli cholg'ularda chalishga o'rgatishning asosan ustoz-shogird uslubi rivojlangan bo'lib, o'qitishning ma'lum bir tizimdagi uslubiyati shakllanmagan edi. Aka-uka Anton va Nikolay Rubinshteynlar tomonidan 1862 yili Peterburg va 1866 yili Moskva konservatoriyalari ochiladi. Ushbu o'quv yurtlariga Germaniya, Chexiya, Polsha va boshqa xorijiy mamlakatlardan kelgan sozandalar o'qituvchi sifatida taklif qilinadi. Fleytachilardan F.Vaterstraata, V.Kerchman, goboychilar V.Shubert, V.Dente, klarnetchilar K.Simmerman, V.Brekker, trubachilar V.Vurm, V.Brandt, trombonchi X.Brok, fagotchi I.Kristel va boshqa ustozlar tomonidan damli cholg'ularda o'qitishning yo'lga qo'yilishi natijasida mahalliy kadrlar yetishib chiqdi. Bular – fleytachi V.N.Tsibin, goboychi N.V.Nazarov, valtornachilar V.N.Saloduyev va V.M.Buyanovskiy, klarnetchi S.V.Rozanov, fagotchi I.I.Kostlan, trubachi M.I.Tabakov, trombonchi V.M.Blajevich va boshqalar. Ularning ichida o'z ishining ustasi bo'lgan yosh iqtidorli sozandalar ijrochilik faoliyati bilan birgalikda shogirdlar tayyorlash ishiga ham katta e'tibor bera boshlaydilar. Shulardan biri 1916 yildan Moskva konservatoriyasida

o'qituvchi, keyinchalik kafedra mudiri, DAKT orkestri solisti S.V.Rozanovning o'qituvchilik va ilmiy-uslubiy faoliyati o'rnak bo'larli darajadadir.

XX asrning 30 yillariga kelib yuqorida nomlari keltirilgan ustozlarning iste'dodli shogirdlari yetishib chiqadi. Bular: fleytachilar N.I.Platonov, Yu.G.Yagudin, B.V.Trizno, klarnetchilar A.V.Volodin, V.I.Gensler, A.L.Shtark, valtornachilar A.I.Usov, A.A.Yankelevich, trubachi V.Orvid, trombonchi V.A.Sherbininlar bo'lib, ustozlari yaratgan uslublarni saqlagan holda uni yanada boyitishga o'z hissalarini qo'shdilar.

20-yillarning oxiri va 30-yillarning boshlarida damli cholg'ular kafedrasining ilmiy-uslubiy faoliyati rivojlana boshladi. Birinchilardan bo'lib N.I.Platonovning «Fleyta darsligi» (M., 1931), G.A.Orvidning «Truba darsligi» (M., 1932), S.V.Rozanovning 1930 yildan buyon olib borayotgan metodika kursi ma'ruzalari asosida «Damli cholg'ularda chalishni o'rgatish uslubiyati» (M., 1935) nomli qo'llanmasi, V.M.Blajevichning «Trombon darsligi» (M.,1939), N.V.Nazarovning «Goboy darsligi» (M., 1939-1941), S.V.Rozanovning «Klarnet darsligi» (M., 1940), V.N.Tsibinning «Fleytada ijro texnikasi mahorati asoslari» (M., 1940) kabi darslik va o'quv qo'llanmalari nashrdan chiqadi.

Ular ushbu kitoblarida damli cholg'ular ijrochiligi bilan birgalikda uning pedagogikasiga oid ilg'or fikrlarni ilgari surdilar va damli cholg'ularning rus ijrochilik maktabiga quyidagi tamoyillarni asos qilib oldilar.

1. Cholg'u sozida erishilgan texnik mahoratni musiqaning badiiy mazmunini ochib berishga xizmat qildirish.
2. Cholg'u asbobida yuksak badiiy ifodali ijro qilish, «cholg'uni kuylatish».
3. Benazir badiiy ijro, ya'ni kompozitor fikriga hamohanglik, belgilangan maqsaddan chetlashmaslik.
4. Sahnadagi tashqi ko'rinishda oddiylik, har xil uslub va yo'nalishlarga ergashmaslik.

Ana shu tamoyillar kelgusida shogirdlar yetishtirishning asosiy negizi bo'lib xizmat qila boshladi.

Keyinchalik metodika masalalarining turli xildagi ilmiy asoslari va rivoji N.I.Platonov, B.A.Dikov va A.I.Usovlarning shu sohaga bag'ishlangan kitoblarida bayon etila boshladi.

N.I.Platonov 1935 yildan 1955 yilgacha Moskva konservatoriyasida metodika darsini olib borgan. O'tilgan ma'ruzalar kursi asosida «Damli cholg'ularda chalishni o'rgatish uslubiyati masalalari» (M., 1958) nomli o'quv qo'llanmasini nashr qildirgan. Bu kitobda u S.V.Rozanov tomonidan yaratilgan uslubiyat masalalarini yanada rivojlantiradi va damli cholg'ular sozandasining

lab apparati, intonatsiya, vibrato, musiqiy eshitish qobiliyati va boshlovchi o'quvchilar bilan ishlash uslublari to'g'risidagi muammolarni yoritgan.

1955 yildan 1962 yilgacha ushbu fanni B.A.Dikov olib boradi va kurs ma'ruzalari asosida «Damli cholg'ularda chalishni o'rgatish uslubi» deb nomlangan o'quv qo'llanmasini chop ettiradi. Bunda u o'zidan oldingi S.V.Rozanov va N.I.Platonovning asosiy uslubiy ishlarni yanada boyitgan hamda boshqa mutaxassislik (fortepiano, vokal va skripkachi)lar tajribasiga tayangan holda damli cholg'ular ijrochisining ruhiy va jismoniy holati, ijrochilik nafasi, lab apparati, shtrixlarni qo'llash va musiqiy eshitish tomonlariga ko'proq e'tibor qaratadi.

XX asrning 30 chi yillari rus damli cholg'ular ijrochiligida turli uslublarni yaratilishiga dastlabki turtki bo'lgan bo'lsa, 60 chi yillardan to hozirgi davrgacha uslubiyatning ilmiy-nazariy muammolari faol jarayon sifatida shakllanib bormoqda.

O'zbekistonga Ovro'pa damli va zarbli cholg'ulari asosan ruslarning istilosidan keyin kirib kela boshlagan. Shu vaqtdagi harbiy orkestrlar va ularning kapelmeysterlari damli cholg'ularning jonkuyar targ'ibotchilari hisoblanadi. Bulardan N.N.Mironov, A.F.Eyxgorn, F.V.Leysek va boshqalar orkestr ijrochiligi bilan birgalikda mahalliy xalqlar kuylarini to'plab, turli damli cholg'ularga va orkestrga moslab chaldirganlar va shu yo'l bilan Ovro'pa va Osiyo xalqlarini kuylar va cholg'ular orqali bir-biriga yaqinlashtirishga harakat qilganlar.

Oktyabr to'ntarishidan keyin bu ish siyosiy maqsadlarga yo'naltirilgan holda yanada jadal davom ettirildi. Natijada muntazam o'quv tizimini shakllantirish zaruriyati tug'ildi. 1918 yili oldin Toshkentda va keyinchalik Buxoro, Samarqand va Farg'onada birin ketin xalq konservatoriyalari tashkil qilina boshlandi. Bu dargohlarda mavjud harbiy orkestrlarning yuqorida nomlari tilga olingan kapelmeysterlari va sozandalari dastlabki ustoz o'qituvchi vazifalarini bajardilar.

1924 yili O'zbekistonda dastlabki musiqa o'choqlaridan biri bo'lgan hozirgi Hamza Hakimzoda Niyoziy nomidagi musiqa kolleji davlat musiqa texnikumi sifatida ochildi. 1934 yili Oliy musiqa instituti tashkil qililib, u 1936 yili Toshkent davlat konservatoriyasiga aylantiriladi. Mazkur o'quv yurtlarida faoliyat olib borgan damli cholg'ulari muallim-ijrochilaridan taniqli fleytachi, sozanda, yirik musiqa va jamoat arbobi V.I.Pavelskiy (1881-1951), yetuk goboychi B.N.Gusakov, klarnetchi V.M.Kozalupov, valturnachi M.N.Nikolaenko, trombon va tuba sinflari o'qituvchisi A.E.Morozov (1889-1969), zarbli cholg'ular sinfining o'qituvchisi M.D.Yakovets va boshqalar bu soha rivojiga katta hissa qo'shdilar.

Sobiq ittifoq davrida damli cholg'ular ijrochiligi va ularda o'qitish uslubiyati rivojlanganligini tan olish o'rinli va bu haqda yuqorida aytib o'tildi. Ushbu davrda O'zbekistonda U.Rizaqulov (klarnet), E.Morozov (trombon), V.F.Po'latov (truba), V.E.Emelyanov (valtorna), K.A.Azimov (klarnet), P.I.Belyakov (fagot), G.K.Vergelesov (trombon), A.V.Malkeyev (fleyta), V.L.Melkomini (goboy), Yu.Sayidjanov, (Metodika), R.R.Safarov (valtorna va metodika), V.A.Verigin (truba), B.S.Salixov (klarnet), N.E.Kenjabayev (goboy), U.A.Abdullayev (truba), J.S.Saburov (trombon), I.T.G'aniyev (zarbli cholg'ular) kabi ustozlar damli cholg'ular ijrochiligi va pedagogikasiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar va hozirgacha qo'shib kelmoqdalar.

Shulardan O'rta Osiyoda damli cholg'ular mutaxassisligi bo'yicha truba uchun birinchi bo'lib darslik chop ettirgan (Пулатов В.Ф. Школа игры на трубе. –Т., «Ўқитувчи», 1979). Vasiliy Fedorovich Po'latov professorlik ilmiy darajasiga yetgan hurmatli ustozlardan bo'lib qoldi.

Mustaqillik yillari dunyo yuzini ko'rgan darsliklarni olib ko'radigan bo'lsak, Vitaliy Lvovich Melkominining «Начальная школа обучения игре на гобое и на блокфлейте» (–Т., Изд-во Г.Гуляма, 2002). blokfleyta, goboy mutaxassisliklari va pedagogika amaliyoti fanlari uchun mo'ljallangan darsligida damli cholg'ularda o'qitiladigan o'quvchilarni ancha yosh ya'ni 6-7 yoshidan o'qitish masalalari o'rta qo'yilgan.

B.S.Salixovning «Klarnet» nomli (–Т., 2002) darsligi esa asosan O'zbekiston kompozitorlari tomonidan klarnet va fortepiano uchun yozilgan asarlaridan tashkil topgan, shuningdek, shu muallifning «Pedagogik va ijrochilik amaliyotlari» o'quv qo'llanmasi ham oliy o'quv yurtlari talabalariga mo'ljallangan bo'lib, unda talabalarning pedagogik amaliyot tajribasini yanada rivojlantirish, pedagogik repertuar bilan tanishtirish va o'quvchi bilan individual ishlash, konsert ijrochilik malakalari va ko'nikmalarini yanada mustahkamlash, ijrochilik mahoratini rivojlantirish masalalari ilgari surilgan. Kitob 2006 yili O'zbekiston davlat konservatoriyasining tahrir-nashriyot bo'limi tomonidan chop etilgan.

Ilmiy metodika sohasida satrlar muallifining kollej, akademik litseylar o'quvchilari uchun «Damli va zarbli cholg'ularda chalishni o'rgatish uslubiyati» (–Т., ООО OLGA BOS. 2004), Petrov R.M. Школа коллективной игры для духовых инструментов (Damli cholg'ular orkestri uchun jamoa bo'lib chalish darsligi, –Т., «Cho'lpon» 2004), R.M.Petrov va B.Matyoqubovlarning «Cholg'ushunoslik va cholg'ulashtirish» (–Т., «TURON-IQBOL» 2006), B.Salixov va B.Matyoqubovlarning «O'zbekistonda damli cholg'ular ijrochiligi tarixi» (–Т., O'zbekiston davlat konservatoriyasining tahrir-nashriyot bo'limi, 2007) darslik va o'quv qo'llanmalarida O'zbekistonlik ustozlarning ilmiy-uslubiy izlanishlari o'z aksini topgan.

Shuningdek, orkestr dirijyorlaridan Yu.Sayidjanov, V.Markelov, O.V.Lebedinskiy, V.I.Furmanov, R.M.Petrov, L.A.Royblat, P.L.Makarov, G.Terzyan, V.V.Yakovlyev kabi qator ustozlar Respublikamizda damli cholg'ular orkestr ijrochiligiga va shogirdlar tayyorlash ishiga salmoqli hissa qo'shganliklarini aytib o'tish o'rinli.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng «Ta'lim haqidagi qonun» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qabul qilinishi va amalga oshirilishi jarayonida ta'lim islohotlarida o'zgarishlar yuz bera boshladi. Buning natijasida xususan musiqa sohasida oldindan mavjud ta'lim-tarbiya jarayonining uzluksizligini yanada takomillashtirish vazifalari belgilandi.

O'rta maxsus o'quv yurtlari kollej va akademik litseylar shaklida qayta tashkil qilinib va yangilari qurilib, ularning moddiy-texnika negizlari yanada mustahkamlanmoqda. Musiqa san'atiga hukumatimiz tomonidan berilayotgan e'tibor O'zbekiston davlat konservatoriyasi yangi muhtasham binosining qurib ishga tushirilishi, hamda qayta qurilayotgan va rekonstruksiya qilinayotgan boshqa ko'plab kollej va lisey binolarida o'z aksini topgan desa bo'ladi. Ayniqsa Mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy va madaniy saviyasini yuksaltirish, yoshlarimizning milliy va jahon musiqa madaniyatining yuksak namunalaridan keng bahramand bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va shu asosda musiqiy ta'limni yanada rivojlantirish, bu borada kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, soha pedagog va mutaxassislarining mehnatini rag'batlantirish maqsadida, 2008 yil 7 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014 yillarga mo'ljallangan davlat dasturini tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida» deb nomlangan 2908-sonli farmoyishi musiqiy ta'limning boshlang'ich bosqichiga, ya'ni uning uzluksizligini ta'minlashga davlatimiz rahbari tomonidan bo'lgan g'amxo'rlikning ifodasi deb bilish mumkin. Shuningdek, ushbu o'quv yurtlar zamonaviy talablarga javob beradigan qimmatbaho cholg'u asboblari va texnik jihozlar bilan ta'minlanmoqda. Jahon andozalariga mos o'quv rejalari, dasturlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, uslubiy va nota adabiyotlar yaratilmoqda. Buning natijasida ko'pchilik yoshlarimiz o'zlarining betakror ijrochilik mahorati bilan yuksak cho'qqilarini egallamoqdalar va xalqaro tanlovlarda mustaqil O'zbekiston sharafini himoya qilmoqdalar.

Bularning barchasi mustaqilligimiz sharofatidan ekanligi shubhasizdir.

### ***Qaytarish uchun savollar:***

1. Uslubiyat fanining maqsadi va vazifalari nimadan iborat?
2. Ushbu fanning tarixiy rivojlanish bosqichlarini bilasizmi?

3. Ustoz sozanda pedagoglar tomonidan ilgari surilgan ijrochilik tamoyillari nimalardan iborat?

4. O'zbekistonga Ovro'pa damli cholg'ularining kirib kelishida harbiy orkestrlarning ahamiyati qanday?

5. Mustaqil mamlakatimiz ta'lim islohotlarida musiqiy ta'lim-tarbiya jarayonining uzluksizligi o'z aksini topganmi?

6. Musiqiy ta'lim rivojiga hukumatimiz tomonidan berilayotgan e'tibor nimalarda namoyan bo'lmoqda?

## **DAMLI CHOLG'ULAR IJROCHILIGINING JISMONIY VA RUHIY ASOSLARI**

Ma'lum bir musiqiy asar B.Asafyev ta'biri bilan aytganda uch xil ko'rinishda mavjud bo'ladi. Bu nota matni, ya'ni yozuv asosida, ijrochi tomonidan talqin qilingan jonli ijroda va tinglovchining hayotiy tajribasi va badiiy obrazlarning uning tomonidan qabul qilinishi natijasida asarning haqiqiy ijro jarayoni amalga oshiriladi.

Musiqiy asarni ijro qilish faqat o'sha kompozitor notaga tushirgan fikru-xayollarining talqini bo'libgina qolmasdan, ijrochi uchun o'ta murakkab jismoniy va ruhiy kechinmalardan iborat jarayondir.

Ijro badiiy jihatdan yuksak bo'lishi uchun unda sozandaning diqqati, sezgisi, idroki, tafakkuri, tasavvuri va emosiyasi (his-tuyg'u va hayajon) faol ishtirok etishi zarur. Bundan tashqari uning shaxsiy sifatleri, ya'ni musiqiy qobiliyati va iqtidori, quvnoqligi va jo'shqinligi, dunyoqarashi va erkin fikrlashi, xarakteri va mintaliteti aks etmog'i lozim. Ushbu shaxsiy sifatlerining barchasi inson ruhiyatining o'ziga xos xususiyati, badiiy-ijrochilik ijodining tarkibiy qismi bo'lib, hali yaxshi tadqiq qilinmagan musiqiy ruhshunoslik (psixologiya) sohasiga aloqadordir.

**Diqqat** – inson faoliyatining barcha turlarida bo'lgani kabi, musiqa san'atida ijrochining hissiy, intellektual, harakatga keluvchi jarayonlardagi faoliyat samaradorligining muhim shartidir. Musiqiy faoliyatning barcha turlari diqqat bilan bog'liq bo'lib, ayniqsa jamoa bo'lib ijro qilishda u juda muhimdir. Ya'ni orkestrda chalishdan avval dirijyorning ko'tarilgan qo'llari, auftakt, yakkaxon va jo'rnavoz o'rtasidagi ishora va harakatlarning hammasi musiqada diqqat deb ataladi.

Ayniqsa damli cholg'ular ijrochisi jismoniy va ruhiy jihatlarining barcha tomonlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ijro jarayonida har bir cholg'uchi o'zining murakkab markaziy asab tizimi, butun sezgi a'zolari, ko'rish, eshitish, xotira, harakat mayllari, musiqiy-estetik tasavvurlari va aqliy faoliyatining bir-

biriga bogʻlangan, mujassam holda qatnashishini guvohi boʻlamiz. Bulardan «sezgi» – inson organizmi tomonidan eshitish, koʻrish, hid bilish, tana sezgisi, taʼm bilish va h.k. aʼzolari orqali moddiy dunyoni anglaydi.

Bu murakkab jarayonda sozandaning aql-idroki va ruhiy faoliyati ijroga qaratilgan boʻlib, u oʻzi hosil qilgan va yonidagi hamrohlari yoki joʻrnavor chalayotgan tovushlarni eshitishi, nota matni yoki dirijyor harakatini koʻrishi, barmoqlar applikatora pardalarini his qilishi, lablari mundaqtuk yoki trostni sezishi natijasida bosh miyaga axborot yetadi. Narsalar yoki hodisalarning sezgi aʼzolariga bevosita taʼsiri orqali ongimizda aks etishiga «idrok» deyiladi. Sezgida jismning alohida qismlari, idrokda esa oʻsha jismning barcha tarkibiy qismlari bir butunlikda his qilinadi. Oʻz ijrosini eshitgan sozanda tajribasiga tayanib uni tahlil qiladi va umumlashtirgan holda xulosa yasab xatolarini tuzatish uchun qarshi harakatga shaylanadi. Ammo umumlashtirish va xulosa yasash uchun inson fikrlashi, mushohada va mulohaza qilishi zarur. Bu tafakkurning vazifasi boʻlib, «Tafakkur» – obʼektiv borliqning fikrda, mushohada va aqlda uning tahlili va sintezi bilan aks etish jarayonidir. U oliy miyaning eng yuqori mahsuli boʻlib, idrokdan farqli oʻlaroq, narsalarning chuqur mohiyati va mazmunini aks ettiradi. Damli cholgʻular ijrochiligida buni uch bosqichda koʻrish mumkin. Ijrochi dastlab koʻrish, eshitish, his qilish va boshqa sezgilari orqali asarni bir butun holda (uslub, xarakteri, asosiy matni, tonligi, va h.k.) anglaydi va har xil mayda jihatlarini aniqlashga intilmaydi. Ikkinchi bosqichda oʻz ijrochilik fikrini amalga oshirish uchun turli ijro uslublarini qoʻllagan holda sadolanish, metroritm, surʼat, agogika, dinamika va kuy jumllariga aniqlik kiritadi. Qisqasi har bir kuy boʻlagi ustida qunt bilan alohida ishlaydi. Uchinchi bosqich ijodiy jarayonning murakkab pogʻonasi boʻlib, bunda ijrochi koʻrish, eshitish, sezgi harakat omillariga va ikkinchi bosqichda oʻz tajribasidan oʻtkazgan amaliyotiga tayangan holda asarni toʻliq va pishiq analiz va sintez qilingan shaklini bir butun holda tasavvur etadi. «Tasavvur» bilimning ibtidosi boʻlib, bosh miyada (analiz va sintez asosida) hosil boʻladi va tafakkurdan farqli oʻlaroq ijrochi hayolida oldindan aks etadigan tushunchalar tizimi boʻlib, badiiy ijodiyotning barcha turlariga xosdir. Tasavvurda inʼikos aks etib bosh miyaga axborot yetgandan keyin bosh miya orqali buyruq beriladi va vujud reflektorlarning turtkisi, yaʼni toʻxtash va yoʻnalish harakatlari boshlanadi. Reflektorlarga javob tariqasida ijro harakatlari va boshqa signal tizimlari ishga tushadi.

Bunda sozanda tayyor boʻlgan asarni qanday talqinda chalishni va uning timsollarini hayolida tasavvur qiladi va ongida qanday shakllangan boʻlsa shundayligicha tinglovchiga taqdim etadi.

Musiqani badiiy anglash va tushunib yetishda musiqiy tasavvur jarayoni asos sifatida xizmat qiladi. Tajribali tinglovchining tasavvurida faqat jaranglab

turgan tovushlar yig'indisigina eshilib qolmasdan undan keyin keladigan ohanglar, kuy harakati, lad o'zgarishi, mavzu ham aks etadi.

Inson ruhiyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri **His, tuyg'u va hayajon (emotsiya)dir**. Kishi o'zining hayotiy faoliyati jarayonida atrofini o'rab turgan moddiy borliq bilan doimo muloqotda bo'ladi. Buning natijasida shoduxurramlilik, qayg'u va g'am, to'liqlanish va hayajon, mag'rurlik va iftixor, jahl va g'azab, hayratlanish, xafa bo'lish kabi boshqa ko'plab mayil va tuyg'u (*ob'ektiv dunyoga sub'ektiv munosabat kechinmalari*)lar insonning emotsional his-hayajon holatini ifodalaydi.

Emotsiya (*tuyg'u kechinmalarining shakli*) ijobiy va salbiy turlarga bo'linadi. Ijobiyolari: shoduxurramlilik, to'liqlanish va hayajon, mag'rurlik va iftixor, hayratlanish va boshqalar. Salbiylari: qayg'u va g'am, jahl va g'azab, xafa bo'lish kabilaridan tashkil topadi.

Ijrochi-sozandaning faoliyati his-hayajon va emotsiya bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u ijodkor tomonidan yaratilgan asardagi fikr va maqsadni undagi badiiy emotsional qiyofalar tizimini tinglovchiga yetkazib bera olishi zarur. Bunda sozanda asar kayfiyatiga mos, cholg'u sadolanishiga o'ziga xos ravishda qizg'inlik, ifoda va joziba baxsh etgan holda ijro qiladi. Cholg'u asari hech qanday emotsiya va his-hayajonsiz chalingan bo'lsa tinglovchi yuragiga yetib bora olmaydi, uni befarq qoldiradi va u ijrodan ham cholg'uchidan norozi bo'ladi. Shuning uchun sozanda har bir asarning badiiy-emotsional timsollar mazmuniga chuqur kirib bora olishi, undagi qayg'urish, zorlanish, quvonish, tantana, hazil va boshqa kayfiyat turlarini ishonchli yoritib bera olishi kerak.

Musiqiy ruhshunoslikda badiiy obraz uch omil asosida ochib – ifodalanib beriladi. Bularning birinchisi moddiy, ya'ni nota matni, cholg'u tovushi, kuy, garmoniya, usul, dinamika, tembr, registr va h.k. Ikkinchisi ruhiy, ya'ni kayfiyat, tasavvur, ifoda, iroda, hissiyot. Uchinchisi mantiqiy, ya'ni shakl, janr, mazmun kabi omillardir.

Sozandaning ijrochilik amaliyotida intellektual va estetik, ya'ni eng nozik va go'zal oliy nafosat emotsiya shakllanadi. Ushbu his tuyg'ular sozanda ijrochilik faoliyatida o'z oldiga aniq maqsad qo'yib ongli ravishda turli vosita va yo'llardan foydalangan holda musiqiy asardagi badiiy obrazni ochib berish uchun xizmat qiladi.

Ijrochilik jarayonining jismoniy va ruhiy asoslarini chuqur o'rganish bo'lg'usi o'qituvchi, tarbiyachi va sozanda uchun juda muhim shartlardan biridir.

### ***Qaytarish uchun savollar:***

1. Ijrochilik jarayonining murakkab jismoniy va ruhiy kechinmalardan iborat ekanligini bilasizmi?

2. Unda har bir cholg'uchining qanday sezgi a'zolari qatnashadi?
3. Bu murakkab jarayonda ijrochining aql-idroki, ruhiy faoliyati ham ishtirok etadimi?
4. Emotsiya nima?
5. Badiiy obrazning uch omili nima?
6. Ijrochilik jarayonining jismoniy va ruhiy asoslarini o'rganish bo'lg'usi o'qituvchi, tarbiyachi va sozanda uchun qanday ahamiyatga ega?

## **DAMLI CHOLG'ULARDA O'QITISH UCHUN NOMZODLAR TANLASHNING O'ZIGA XOSLIGI**

Jahon umummusiqiy pedagogika tajribasida musiqa cholg'ularini chalishga qiziquvchi nomzodlar qobiliyatini sinab ko'rishning turli yo'llari mavjud bo'lib, birinchi navbatda uning musiqiy eshitishi, kuyni eslab qolishi va usul sezgisi aniqlanadi. Bunda nomzod cholg'u asbobida chalingan tovushni ovozda takrorlay olmasa yoki qoniqarsiz aytsa, buning sababi uning oldin qo'shiq aytmagani yoki fortepianoni eshitib ko'rmagani va tovush xususiyatini tushuna olmayotgani bo'lishi mumkin. Shuningdek, bolani o'qituvchi yoki komissiya oldida tortinishi, o'zini yo'qotishi, hayajonlanishi natijasida o'z qobiliyatini to'la namayon qila olmayotganligini ham hisobga olish kerak.

Iste'dodni dastlabki musiqiy qirralarini namayon qilish uchun nomzodlar guruhlar bilan har xil sinovlar, musiqiy musobaqalar o'tkazgan holda eng iqtidorlilarini va qobiliyatlarini tanlashga imkon yaratish zarur. Ushbu tanlovda ularga o'zini erkin tutish, qo'shiq aytish va raqs tushishdan tortinmaydigan muhit yaratilsagina bola o'ziga tanish bo'lgan qo'shiqni bexato kuylashi, yoki she'rni yoddan ifodali o'qishi mumkin va bu katta ahamiyatga ega. Shundan keyin o'qituvchi tomonidan berilgan kuy yoki tanish qo'shiqni boshqa pardada kuylatib uning ovozidagi parda tozaligi (intonasiya) va tovush oraliqlari (intervallar, ayniqsa tersiya, kvarta, kvinta va h.k.) ning tozaligini aniqlash mumkin. garmonik eshitishini esa bir vaqtning o'zida bir nechta tovushni (interval, akkord) chalib nechtaligini aniq aytgandan keyin, ularni alohida kuylatib ko'rish zarur.

Musiqiy xotirasini sinash uchun bolaga ikki, to'rt takt hajmdagi kuyni cholg'u asbobida chalib berib, kuylash so'raladi.

Nomzodning usulni sezish qobiliyatini tekshirganda unga tanish bo'lgan usulni takrorlatiladi keyin esa sekin asta notanish va murakkabroq usullarni chaldirib sinab ko'riladi. Ushbu jarayon muvaffaqiyat bilan yakunlangandan keyin bolaning tana tuzilishi va jismoniy rivojlanishini hisobga olgan holda va

asosan o'z xohishiga qarab ma'lum damli yoki zarbli cholg'uda o'qishga tavsiya qilish mumkin.

Damli cholg'ular chalishni o'rganmoqchi bo'lgan nomzodlar jismoniy barkamol, nafas yo'llari, o'pkalari toza va sog'lom, tish va jag'lari, lab va chakka mushaklari, barmoqlari va tana tuzilishi normal rivojlangan bo'lishi juda muhim. Chunki damli cholg'ularni chalishda boshqalarga qaraganda ko'proq jismoniy kuch talab etiladi. Shuning uchun ham damli cholg'ularda o'qitishga tanlanadigan nomzodlar 10-12 yoshga kirgan bo'lishlari maqsadga muvofiq. Ammo keyingi yillarda mamlakatimizda 6-7 yoshli bolalarni blok fleytalarda boshlang'ich tayyorgarlikdan o'tkazish orqali damli cholg'ularda o'qitish tajribasi qo'llanilmoqda. (Qarang: Мелкомини В.Л. Начальная школа обучения игре на гобое и на блокфлейте. –Т., Изд-во Г.Гуляма, 2002).

Nomzodlar jismoniy sog'lom, tana tuzilishi normal rivojlangan bo'lishi bilan birgalikda damli cholg'ularning har biriga alohida tanlanadi. Masalan bariton, trombon va tuba cholg'ulariga tanlanadiganlarining lablari to'la va go'shtli, eng asosiysi burun va yuqori lab qirrasi orasidagi maydonchasi keng bo'lishi lozim. Chunki mazkur cholg'ularning mundstuklari katta va mundstuk kosachalari boshqalarga qaraganda ancha keng. Ularga faqat qalin lablar mos rezanator hisoblanadi. Bunday nomzodlarni klarnet, saksofon va fagotlarda o'qish uchun ham tavsiya qilish mumkin. Chunki bu cholg'ular trostlarining plastinkalari keng bo'lib unda qalin lablar nafasni chiqarmasdan ushlab turuvchi va boshqaruvchi, ya'ni o'ziga xos muhofazalovchi yostiqcha vazifasini bajaradi.

Boshqa damlilarda o'qish uchun esa lablari normal rivojlangan nomzodlar ma'qul. Yuqori old tishlari qiyshiq o'sgan nomzodlarni fleyta va tilli-trostli cholg'ularda o'qishga tavsiya qilish mumkin. Pastki old tishlari qiyshiq o'sgan nomzodlar esa asosan zarbli cholg'ularda o'qitiladi. Fleyta va tilli-trostli cholg'ularda o'qitish uchun tanlangan nomzodlarning barmoqlari uzun va harakatchan bo'lmog'i kerak. Qo'llari kalta o'sgan nomzodlarni trombon cholg'usiga tavsiya qilish maqsadga muvofiq emas.

Eng asosiysi har bir nomzod u yoki bu cholg'uda o'z xohishiga qarab o'qisa, uning barcha jihatlarini shu cholg'uga mos kelsa, bunday mashg'ulot ustozga ham, shogirdga ham birday zavq keltiradi va muvaffaqiyatlar garovi bo'lishi muqarrar.

### ***Qaytarish uchun savollar:***

1. Nomzodlarning musiqiy qobiliyatlarini aniqlashning qanday ilg'or yo'llari mavjud?
2. Damli cholg'ularda o'qitishda nomzodlar yoshining qanday ahamiyati bor?

3. Cholg‘u asbobiga tanlash va taqsimlashda nomzodlar jismoniy sog‘lig‘i va rivojining qaysi tomonlariga ko‘proq e‘tibor qaratiladi?

## **IJRO VA IFODA VOSITALARI, TOVUSH VA UNING SIFATI, DAMLI CHOLG‘ULARDA TOVUSH HOSIL QILISH ASOSLARI VA DINAMIK BELGILAR**

Ijrochilik uslubiyatida «Ijro va ifoda vositalari» degan tushuncha mavjud bo‘lib, ijro va ifoda bir-biri bilan chambarchas bog‘liq esa-da, ular ijod jarayonining turli tomonlarini aks ettiradi. Musiqiy **ifoda vositalari**ga tovush hosil qilish va uning akustik asoslari. musiqiy tovush, sozning tozaligi (intonatsiya), tovush tusi (tembr), nola (vibrato), usul (ritm), o‘lchov, sur‘at, agogika, artikulyatsiya, dinamik belgi va boshqalar kiradi.

Damli cholg‘ular **ijrochilik vositalari** esa sozandaning lab apparati yoki «**ambushyur**» (frans. embouchure – bouche so‘zidan og‘iz degan ma‘noni bildiradi)<sup>1</sup>, nafas, til, barmoqlar harakati, musiqiy eshitish vositalaridan tashkil topadi. Damli cholg‘ular o‘zining tabiati jihatidan dam bosimi, ya‘ni nafas bilan puflab tovush hosil qilinadigan cholg‘ular turiga mansub bo‘lib, ularda tovush chiqarish uchun ijrochilik apparati, ya‘ni ijrochilik vositalari zarur. Ana shu ijrochilik apparati bir-biri bilan mutanosib holda harakatlangandagina tovush hosil qilish mumkin. Buning uchun sozanda avvalo o‘pkasiga ijrochilik nafasini to‘ldirib oladi. Keyin lab burchaklarini zichlab uning markaziy qismlarini labiumga, trostga yoki mundshtukka moslagan holda tili bilan ichkaridan tiqilib kelayotgan dam bosimini to‘siq turadi. Bunda til o‘ziga xos klapan vazifasini bajaradi. Ushbu klapan ichkariga keskin tortilsa bas, shu zahoti tiqilib turgan kuchli nafas labium qirrasiga urilib kesiladi yoki trostni tebratadi, yo lablardagi membrana-qo‘zg‘aluvchini harakatga keltiradi va u o‘z navbatida cholg‘u ichiga qamalgan havo ustunini to‘lqinlantirishi natijasida musiqiy tovush hosil qiladi.

Zamonaviy akustika fanida tovush hosil qilinishi jihatidan damli cholg‘ular uch guruhga bo‘linadi. Ular:

a) xushtaksimom-naysimonlar (лабиальные – nay va fleytalarning barcha turlari) guruhi;

b) Tilli-trostlilar guruhi o‘z navbatida ikkiga bo‘linadi va yakka tilli (klarnet, qo‘shnay, bulomon va saksafonlarning barcha turlari) hamda qo‘shtili (goboy, surnay va fagotlarning barchasi) lar guruhi;

v) voronkasimon mundshtukli (truba, trombon, tuba, karnay va boshqalar) yoki mis cholg‘ular guruhlari.

---

<sup>1</sup> Энциклопедический музыкальный словарь. –М., 1966. –С. 18.

Ularda tovush hosil qilish yoʻllari qanday amalga oshiriladi? Nay va fleytada ijrochi kuchli nafasini cholgʻu teshigining oʻtkir qirrasini (fleytada labium) ga toʻgʻrilab puflagan zahoti nafas qirraga urilib kesiladi va xushtaksimon tovush paydo boʻladi. Uning nay ichida aylanishi natijasida cholgʻu asbobi ichiga qamalgan havo ustunini harakatga keltirib toʻlqinlantiradi va musiqiy tovush hosil qiladi.

Tilli-trostli (surnayda naypachoq) cholgʻularda esa plastinkasimon qamishdan yupqa qilib ishlangan yakka yoki juft tilcha-trostni ijrochining kuchli nafasi qoʻzgʻatadi va uning tebranishi natijasida cholgʻu asbobi ichiga qamalgan havo ustuni harakatlanib musiqiy tovushga aylanadi.

Voronkasimon mundshtukli yoki mis cholgʻularda tovush hosil qilish oʻziga xos boʻlib, bunda tovush chiqaruvchi membrana vazifasini ijrochi lablarining mundshtuk bilan qamrab olingan markaziy qismlari bajaradi. Yaʼni ichkaridan tiqilib kelgan kuchli nafas mundshtuk bilan oʻralgan lablarning markaziy qismlari(membrana)ga urilib qoʻzgʻatishi-harakatlantirishi natijasida oldin mundshtuk kosachasiga, keyin cholgʻu asbobi ichiga qamalgan havo ustuni tebranadi va musiqiy tovush hosil boʻladi.

Tovush hosil qilishning barcha turlarida cholgʻu asbobi ichiga qamalgan havo ustunining ahamiyati juda muhimdir. Havo ustuni qanchalik keng va uzun hajmda joylashgan boʻlsa tovush shunchalik yoʻgʻon, va aksincha boʻlsa ingichka tovush hosil boʻladi. Shuningdek, yogʻochli damli cholgʻular va saksofonlarda cholgʻu pardalari ijrochi ogʻzi tomoniga qarab ochilib borsa tovush ham yuqorilab boradi.

**Tovush** oʻzi nima? Tovush fizik hodisa boʻlib, tarang tortilgan jism (sim, yassi plastinka va h.k.)ning tashqi taʼsir natijasida mexanik harakatga kelishi – tebranishi natijasida hosil boʻladigan jarayondir. Tabiatda qulogʻimiz ilgʻaydigan turli xil tovushlar mavjud. Lekin ularning hammasini ham musiqiy tovush deb boʻlmaydi. Musiqiy tovush oʻzining toʻrt xossasi, yaʼni bir-biriga nisbatan baland pastligi, tisi (tembri), davomiyligi, yaʼni choʻzimi va kuchi bilan shovqinli tovushlardan farq qiladi. **Tovush balandligi** deganda inson qulogʻi qabul qila oladigan tovushlar koʻzda tutiladi. Ularning eng past sekundiga 16 va balandi 4200 (chastota) tebranishli tovushlar boʻlib, undan past va yuqorisini odam qulogʻi ilgʻamaydi va maxsus apparatlar yordamida eshitish mumkin.

Tovushni ifodali, goʻzal qiluvchi omillar uchta boʻlib, shulardan biri **intonatsiya (lotincha – baland, yuqori)** dir. Uning sofligiga erishish uchun avvalo sozandaning cholgʻu asbobi sifatli ishlangan va chalinib tajribadan oʻtgan boʻlishi kerak. Bundan tashqari tovushning sof chiqishi ijrochining mahoratiga va kayfiyatiga ham bogʻliq. Shuningdek, cholgʻudagi qoʻshimcha applikatura (dopolnitelnaya applikatura) ni qoʻllash orqali ham tovushni past

yoki balandligini muvofiqlashtirish mumkin. Eng kerak bo'lgan jihati sozandaning o'zi ijro davomida cholg'u asbobining har bir asosiy va yonma-yon pardalari sozini doimo eshitib nazorat qilgan holda nafas kuchi va lablari orqali boshqarib, muvofiqlashtirib toza va sof tovush hosil qilishi juda muhim ahamiyatga ega.

**Tovush tembri** (tembr fr. – tovush bo'yog'i, tusi, xarakteri) tovush sifatining muhim omillaridan bo'lib, har bir inson ovozi va cholg'u asbobi tovushiga xos xususiyatdir. Tembrni go'yo kamalak ranglariga o'xshatsa bo'ladi. Kamalakning o'n ikki xil rangidan qaysi biri bo'lmasa uni turfa xil rangliligiga putur yetadi. Xuddi shuningdek tovush tembri va chiroyining xilma-xil bo'lishida oberton-garmonik (inson qulog'i ilg'amaydigan ichki ohangdosh) tovushlar tarkibi juda katta ahamiyatga ega. Ya'ni obertonlar tarkibidagi tovushlardan qaysi biri jaranglamasa tovush tembri – go'zalligiga ham shuncha putur yetadi.

**Vibrato – to'liqlinlatish, tovush nolasi,** tovush sifatini boyituvchi omillardan bo'lib, u tovushga o'ziga xos joziba baxsh etadi va go'yo uni qizdirib jonlantiradi. Bunda tovushning bir parda zonasi doirasida chorak va nimchorak pardalarga ko'tarilish hamda pasayish harakatlari kuzatiladi.

### Fortepiano uchun Sonata III q.

N. Platonov

2 Adagio

*mp vibrato* *pp* *p*

### Truba va orkestr uchun konsertdan Noktyurn

G. Tomazi

3 Andante  $\text{♩} = 80$

*p* *espress, e vibrato* *cedez*

*sf* *molto mp espressivo*

Damli cholg'ularda vibratoni asosan ikki turi qo'llaniladi:

a) qorin mushaklari va diafragma yordamida qo'llaniladigan turi nafasni to'liqlinlatish orqali amalga oshiriladi. Bunda tovush balandligi o'zgarmaydi va belgilangan parda zonasi doirasida nimchorak ton pastga va yuqoriga harakat qiladi. Bunday ijro fleyta, nay, goboy, surnay va fagot cholg'ularida juda samarali ko'rinishga ega;

b) lab mushaklari yordamida qo‘llaniladigan turi bir parda zonasi doirasida lab mushaklarini taranglashtirish va bo‘shashtirish natijasida nimchorak ton pastga va yuqoriga harakatlantirish orqali amalga oshiriladi. Bu uslub klarnet, saksofon, qo‘shnay va bulomon cholg‘usiga ham juda xosdir.

Vibratoni orkestr va ansamblda qo‘llashning o‘ziga xos murakkab tomonlari bo‘lib, bunda barcha sozandalarning birdek vibrato qo‘llashlari juda qiyin. Shuning uchun jamoa ijrosida vibratoga ehtiyotkorlik bilan yondashiladi.

Damli cholg‘ular ijrochiligida tovushning go‘zalligi va tozaligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham sozandalar orasida «cholg‘u asbobini kuyлата olish kerak» yoki «falon sozanda surnayga kalima qaytartiradi» degan iboralar yuradi.

**Tovush kuchi** esa tebranish harakatining kengligi va kuchiga bog‘liq. Ya‘ni tovush hosil qiluvchi membrananing tebranish miqyosi – amplitudasi qancha keng va kuchli bo‘lsa tovush ham shuncha kuchayadi.

Damli cholg‘ular **dinamik** imkoniyatlarga juda boy bo‘lib, barcha kompozitorlar o‘z asarlaridagi turli ko‘rinish (epizod)larni ifodali tasvirlashda ularga murojaat qilishadi.

Dinamik o‘zgarishlarni uch asosiy guruhga taqsimlash mumkin:

a) turg‘un, ya‘ni o‘zgaraydigan;

b) asta-sekin o‘zgaruvchan, pog‘onama-pog‘ona kuchayib yoki pasayib boruvchi turlari mavjud: kuchsizdan (pastdan): **pp-p-mp-mf-f-ff** kuchliga va aksincha kuchlidan **ff-f-mf-mp-p-pp** kuchsizga susayib boruvchi;

v) qarama-qarshi – tafovutli (контрастный) **p-f**, **pp-ff** va unga aloqador urg‘ular tovush kuchini oshirish va pasaytirish belgilari sifatida asar mohiyatini ochishda xizmat qiladi.

Ikkinchi guruh **ijrochilik texnikasiga** aloqador bo‘lib unga barmoqlar harakati, ijrochilik nafasi, til va lablarning harakatchanligi kabi omillar kiradi va quyida bular alohida mavzu sifatida yoritiladi.

Umummusiqiy ifoda vositalari usul (ritm), o‘lchov, sur‘at, agogika, artikulyatsiya, kuy, motiv, fraza, jumla, davriya, kulminatsiya, avj va boshqalardan tashkil topadi. Bularni to‘liq ravishda Musiqa nazariyasi, Musiqa shaklining tahlili va garmoniya fanlari o‘rganadi.

### ***Qaytarish uchun savollar:***

1. Ijro va ifoda vositalarining bir-biridan farqini bilasizmi?
2. Damli cholg‘ular tovush hosil qilinishi jihatidan nechta turga bo‘linadi?
3. Musiqiy va shovqinli tovushlarning bir-biridan farqi qanday?
4. Tovush tembri, intonatsiya va tovush nolasi (vibrato) deganda nimani tushunasiz?
5. Damli cholg‘ularning dinamik imkoniyatlarini aytib bering.

## **DAMLI VA ZARBLI CHOLG'ULARDA IJROCHILIK HOLATI VA UNI YO'LGA QO'YISHNING AMALIY AHAMIYATI**

Ijrochilik holati (ispolnitelskaya postanovka) deganimizda cholg'u sozini qanday ushlash, uni hozirlash va chalish uchun (butun tana, bosh, qo'llar, oyoqlar, ambushyur) tayyor bo'lishi tushuniladi.

Ijrochilik holati o'z ichiga butun tana, bosh, qo'llar, oyoqlar, cholg'uni ushlash, labning mundshtukda joylashishi (ambushyur) vaziyatini mujassam etadi.

Ijrochilik holatini boshidan to'g'ri qo'yilishi o'ta jiddiy vazifalardan bo'lib, yuksak cholg'uchilik natijalariga erishishning eng muhim garovidir.

Tarixdan ma'lumki, cholg'ularning takomillashishi natijasida ijrochilik holatida ham turli o'zgarishlar ro'y bergan. Masalan klarnet cholg'usining trost o'rnatiladigan tomoni yuqoriga qaratilgan bo'lib, xuddi qo'shnaylarga o'xshab ustki lab bilan boshqarilgan.

Goboy va fagotlarda qadimda lunj shishirilib trostlar lab bilan emas nafas kuchi bilan boshqarilgan. Keyinchalik cholg'uchining lablari og'iz ichkarisiga ko'proq qayrilib ushlanadigan bo'lgan va shu sababli trostni boshqarish ma'lum darajada qiyinchilik tug'dirgan.

Fleyta cholg'ularining ko'pchiligida cholg'uni ushlab turish uchun chap qo'l kaftiga qo'yiladigan tayanch ustuncha mavjud bo'lib, ushbu moslama barmoqlar harakatiga xalal berganligidan undan voz kechilgan.

Voronkasimon mundshtukli cholg'ularda ba'zi ijrochilar mundshtukni ko'proq qismi yuqori labda joylashishi zarur desalar, ba'zilari pastki labda joylashgani ma'qulligini ta'kidlashadi. Shu paytgacha bu borada aniq me'yor belgilanmagan bo'lib, turli maktablarda har xil nuqtai-nazarlar mavjud.

Olimlarning fikricha, eng muhimi ijro jarayonida cholg'uchi tana a'zolarining hech qanday zo'riqishsiz, kuchanishsiz tabiiy vaziyatni ijrochi holatining asosi qilib olinishi zarurligi uqtiriladi.

Sozanda damli cholg'ularda mashq qilganida tikka turgan holatda, yelka va ko'kraklar kerilgan, boshini to'g'ri tutgan, oyoqlar yelka kengligida bo'lmog'i kerak. O'tirib chalganida oyoqlarni chalishtirmaslik zarur. Kornet, truba, trombon cholg'ularini gorizontall ushlash, bunda tirsaklar keng ko'tarilgan holda bo'lishi tavsiya etiladi. Boshqa cholg'ularda esa qo'llar tanaga qisilib juda yaqin turmasligi, tabiiy holatga muvofiq erkin bo'lishi zarur.

Cholg'u asbobida barmoqlar joylashuvi ularning tabiiy holatidan kelib chiqmog'i darkor. Ayniqsa fleyta va tilli-trostli cholg'ular pardalarida o'quvchi barmoqlari yarim egilgan tabiiy holatda bo'lishi, yuqoriga ortiqcha ko'tarilmasligi, yon tomonga surilib ketmasligi zarur. Mis cholg'ularda esa

barmoqlar cholgʻu asbobi pardalaridan uzilmagan holda harakatlanmogʻi kerak. Trombonlarda oʻng qoʻl holati, zarbli cholgʻularda qoʻl va bilaklarning holati tabiiy va erkin boʻlishi maqsadga muvofiq.

Sozandaning sahnadagi koʻrinishi va oʻzini tutishiga ijrochilik holati salbiy taʼsir qilmasligi kerak. Yaʼni har xil bachkana qiliqlar, ortiqcha chayqalish yoki cholgʻuni har tomonga yoʻnaltirish, qimirlatish, tinglovchiga yoki joʻrnovozga orqasi bilan turish kabi kishining gʻashiga tegadigan harakatlarni oldi olinishi zarur. Chunki notoʻgʻri ijrochilik holatiga koʻnikish oson, ammo uni toʻgʻrilash ancha mushkul. Bunga misol qilib abiturientlarning konservatoriyaga kirish davrini keltirish mumkin. Bu paytda turli muammolar uchraydi. Bular misli damli cholgʻularda yuqori registr pardalarini ushlab tura olmaslik, lab apparatini tez charchab qolishi, tovushlarning toza emasligi, attaka paytida aniqlikning yoʻqligi va boshqalar. Ushbu yetishmovchiliklarni bartaraf qilish uchun konservatoriya professor-oʻqituvchisi talabaning cholgʻu asbobini ushlash holati, uning lablarida mundshtukning joylashuvi va boshqa masalalarni koʻrib chiqishi kerak boʻladi.

Ammo konservatoriya ijrochilik holatini toʻgʻrilaydigan joy emas. Lekin konservatoriya professori talabaning rivojlanishiga uning ijrochilik holati iskanja boʻlib xalaqit berib turishiga ham qarab tura olmaydi. Shu sababdan professor talabaning oldingi oʻqituvchisi qilgan xatosini toʻgʻrilashga majbur boʻladi.

Bunday oʻzgarish qilish uchun oʻqituvchi talabada quyidagi omillarning mavjudligiga amin boʻlishi kerak. Yaʼni yuqori darajadagi jismoniy yetuklik (birinchi navbatda tishlari, lablari va nafas organlarining sogʻlomligi), yuksak musiqiy qobiliyat egasi ekanligi, mehnatsevarlik va maqsad sari intilish kabi xislatlar mavjud boʻlsa abiturient ijro holatidagi barcha yetishmovchilik va muammolar ketkaziladigan katta mehnat, asab va vaqt evaziga toʻgʻrilanishi mumkin.

Bunday xatolarning obʻektiv va subʻektiv sabablaridan kelib chiqadigan boʻlsak Respublikadagi 300 dan ortiq bolalar sanʼat va musiqa maktablarining 10% da ham damli cholgʻular boʻlimlari mavjud emas. Borlarida ham damli cholgʻular orkestri tarkibidagi sozlarning koʻpchiligi yoʻq. Shuningdek, viloyatlardagi 20 dan ortiq musiqa va sanʼat kasb hunar kollej hamda akademik litseylaridagi ahvol ham aytarli darajada emas. Buning bir tomoni joylarda mazkur soha mutaxassis kadrlarning yetishmasligi boʻlsa, ikkinchi tomoni bu mutaxassislikka ehtiyojning kamayib ketganligidandir. Ana shu sabablar bois kadrlarni konservatoriyagacha tayyorlash ishlari hozircha koʻngildagidek emas.

### ***Qaytarish uchun savollar:***

1. Ijrochi holati deganda nimani tushunasiz ?

2.Hozirgi cholg'ulardan qaysi birlari ijrochilik holatining o'zgarishlariga uchragan?

3.Ijrochi sozanda sahnada o'zini qanday tutishi kerak?

4.Konservatoriyaga kirishda abituriyentlarda qanday nuqsonlar kuzatiladi?

5.Damli cholg'ular ijrochilarini tayyorlashda Respublikamizda qanday muammolar mavjud?

## **TURLI XILDAGI DAMLI CHOLG'ULARDA IJROCHI LABINING VAZIFASI**

Damli cholg'ularda tovush hosil qilishda ijrochi labining vazifasi va chakka mushaklarning ishi o'ta muhim rol o'ynaydi. Damli cholg'ular tovush hosil qilinishi jihatidan uch guruhga bo'linadi va ularda lab apparati turli vazifalarni bajaradi.

Nay va fleytalarda (labial) ijrochi labining ichkaridan tiqilib kelgan nafas oqimini fleyta (nay) teshigi (labium)ga yo'naltiruvchi vazifasini bajaradigan bo'lsa, tilli-trostli cholg'ularda trost tebranishini pastki yoki ikkala lab bilan boshqarilib turiladi. O'ramasimon (воронкообразный) mundshtukli yoki misli cholg'ularda esa lab o'ziga xos o'rin tutadi va qo'zg'atuvchi vazifasini bajaradi.

Ijro davomida cholg'uchi labining ishini boshqarib turuvchi mushaklar mavjud bo'lib, ularning yig'indisiga va ijro holatiga tayyor bo'lishiga «ambushyur» deyiladi.

Mazkur mushaklar quyidagilardan iborat: yuqori labning kvadratsimon yig'uvchi va bo'shatuvchi mushaklari. Pastki labning to'rtburchak chakka va engakdagi tortiluvchi va «kuldargich» mushaklaridir. Ularning ishlash jarayoni juda murakkab bo'lib, lab apparatini rivojlantirish uchun mushaklarning ishchanligi va chidamliligini mustahkamlash lozim bo'ladi. Lab apparatining mustahkamligi inson organizmiga ham bog'liq bo'lib, u individual xususiyatga ega. Ya'ni har bir kishi lab mushaklarining chidamliligi o'ziga xos. Lekin uni rivojlantirish uchun muntazam mashqlar qilish zarur. Buning uchun esa birinchi navbatda cho'zimli tovushlarni eshitish nazorati ostida sof chalish, pardadan chetlashmaslik, intervallar (sekunda, tersiya, kvarta, kvinta, oktava oralig'idagi tovushlar nisbati) oralig'idagi soflikka erishish, misli cholg'u ijrochilari uchun lab legatosi, valtorna va trubachilar uchun esa lab bidratmalarini (trellarini) ijro qilish maqsadga muvofiq. Shuningdek, gammalar, arpedjio va ularning aylanmalari hamda maxsus etyudlarni muntazam mashq qilish lab apparatini mustahkamlashga zamin yaratadi. Ushbu mashg'ulotlarning asosiy maqsadi bir narsaga, u ham bo'lsa kam kuch sarflagan holda samarali, chiroyli, sof va toza tovush sadolanishiga erishishga qaratilgan bo'lmog'i lozim.

Kundalik mashgʻulotlar va mustaqil tayyorlanish jarayonida sozandaning lab apparati charchaydi. Bu odatiy hol hisoblanadi va dam olgandan keyin yana oʻz ishini davom ettirishi mumkin. Lekin har kim oʻz imkoniyatidan kelib chiqqan holda lab apparatini qizdirishi, yaʼni ijroga sozlashida quyidagilarni hisobga olishi zarur:

- a) dars oldidan tayyorgarlik;
- b) orkestrga kirishdan oldingi tayyorgarlik;
- v) konsertga chiqishdan oldingi tayyorgarlik.

Ushbu tayyorgarliklarning har biri oʻziga xos boʻlib, ularda lab apparatiga tushadigan yuk turlichadir. Ammo notoʻgʻri tashkil qilingan mustaqil tayyorlanish, uzoq muddatli tanaffusdan keyin zoʻr berib mashq qilish yoki haddan tashqari ijrochilik yuki ostida ishlash sababli lab mushaklari zoʻriqadi, ish faoliyati buziladi, qattiq charchaydi va izdan chiqadi.

Uni davolash va qayta tiklash yoʻllari mavjud boʻlib, bunda birinchi navbatda mashq qilishni darhol toʻxtatish va labdagi ogʻriqlar oʻtgʻuniga qadar eng yengil hosil qilinadigan tovushlarni chalish. Yaʼni birinchi qadamlardan boshlash zarur. Bunda kuniga 5-10 daqiqadan sekin asta boshqa tovushlarni ham chalib mashqlarni 15-20 daqiqaga uzaytirish va muntazam mashqlarga oʻtish mumkin. Bu ham yordam bermasa, oʻquvchining bir cholgʻudan boshqasiga oʻtib oʻqigani maʼqul.

### ***Qaytarish uchun savollar:***

1. Turli damli cholgʻularda ijrochi labining bajaradigan vazifasi nimadan iborat?
2. Ijrochi labi ishini qanday mushaklar boshqarib turadi?
3. Labning charchashi, ish faoliyatini izdan chiqishi va qayta tiklash yoʻllari haqida nimalarni bilasiz?

## **DAMLII CHOLGʻULAR IJROCHILIGIDA SHTRIXLAR, TILNING VAZIFASI, TIL ZARBI VA ARTIKULYATSIYA**

Musiqa tovushiga oʻziga xos xarakter, boʻyoq berilishiga va mazkur tovushlarning oʻzaro mutanosib qoʻshilishiga shtrix deyiladi. Shtrix (nemis. – chiziqcha, chizgi) lar dastlab torli-kamonli cholgʻularda, asosan skripkachilarda kamonni yurgizishda turli usublardan foydalanishda qoʻllanila boshlangan. Damli cholgʻular ijrochilari ham koʻpgina shtrixlarni skripkachilardan oʻrganganlar. Shuningdek, damli cholgʻularda ham oʻziga xos shtrixlar paydo boʻla boshlagan.

Ijrochilikda shtrixlarning ahamiyati nihoyatda muhim bo‘lib, ularni so‘zlashdagi talaffuzga o‘xshatish mumkin. Ya’ni «biyron va ravon talaffuzda» ijro qilingan kuy barcha uchun tushunarli va zavqli bo‘ladi.

Albatta har bir cholg‘uning o‘ziga xos shtrixlari mavjud. Ya’ni torli cholg‘ular hech qachon frullato yoki qo‘sh staccato chala olmaydi. Shuningdek, damli cholg‘ular ham spiccato (kamonchani sakratish) yoki col legno (kamon cho‘pi bilan torga ishqalash) shtrixini chiqara olmaydi. Klassik kompozitorlar o‘z asarlarining partituralarida har bir cholg‘uning o‘ziga xos shtrixini ifodalaganlar.

### To‘rtinchi simfoniyaning Final q.

Allegro con fuoco P.Chaykovskiy

The image shows a musical score for the final movement of the 4th symphony by Pyotr Ilyich Tchaikovsky. The tempo is marked 'Allegro con fuoco'. The score is for woodwinds and strings. The woodwind parts include Flute I and II (Fl. I, II), Clarinet I and II (Cl. I, II), and Bassoon I and II (Fag. I, II). The string parts include Violin I (V-ni I), Violin II (V-ni II), Viola (V-le), Violoncello (V-c.), and Contrabass (C-b.). The score is in 3/4 time and features a dynamic marking of *ff* (fortissimo). The woodwinds play a melodic line with slurs and accents, while the strings provide a rhythmic accompaniment with slurs and accents. The score is written in G major and 3/4 time.

XX asrda yashab ijod etgan kompozitorlar ham ushbu o‘ziga xoslikni saqlagan holda ijod qilganlar.

## “Romeo va Juletta” (“Montekki va Kapuleti”)

[Allegro pesante  $\text{♩}=100$ ]

S.Prokofyev

The image shows a musical score for the piece "Romeo and Juliet" by S. Prokofiev. It consists of two systems of staves. The first system has two staves, both in treble clef, with a key signature of one sharp (F#) and a 4/4 time signature. The tempo is marked as "Allegro pesante" with a quarter note equal to 100 beats per minute. The dynamics are marked as "f pesante" and "a2". The second system also has two staves, with the top one in treble clef and the bottom one in bass clef, maintaining the same key signature and time signature. The dynamics here include "f" and "pesante".

Damli cholg'ular ijrochiligida til ko'pchilik shtrixlarni amalga oshiruvchi inson a'zolaridan hisoblanadi va uning bajaradigan vazifasi lab va nafas a'zolarinikidan kam emas. Til tovush hosil qilishi paytida o'ziga xos klapan rolini bajaradi. Ya'ni til zich qisilgan lablardan orqaga keskin tortilishi natijasida ichkaridan tiqilib kelib turgan nafasni cholg'u mundshtugiga yoki labiumga yo'llaydi. Ana shu keskin tortilish til zarbi yoki «til atakasi» deyiladi va u «tu» yoki «ti» atamalariga to'g'ri keladi. Til zarbining qattiq va yumshoq turlari mavjud. Ya'ni tilning keskin, birdan tortilishi «tu», «ta», «ti» qattiq attaka deyilsa, sekin tortilishi «du», «da», «di» yumshoq attaka deyiladi. Bulardan tashqari tilning o'rta qismini ishlatgan holda hosil qilinadigan «ku», «ka», «ki» yoki «gu», «ga», «gi» atamali bilan yordamchi til zarblari ham qo'llaniladi.

Xulosa qilib aytganda til zarbi – attakasi qanaqa (qattiq, yumshoq, yordamchi) bo'lishidan qattiy nazar u aniq va tushunarli bo'lishi kerak. Ayniqsa birinchi tovushni chiqarish uchun nafas, lablar, til va ijrochining barcha a'zolari oldindan tayyor bo'lishi zarur.

Birinchi tovush hosil qilingani hamono u qanday cho'zimda bo'lishidan qattiy nazar (o'n oltitalik, o'ttiz ikkitalik va h.k.) rivojlana boshlaydi. U ma'lum muddat sadolanib (Fitrat ta'biri bilan aytganda o'zanib-so'zanib) so'ngra so'nadi. Uning o'z muddatida so'nishi jo'rnavoqlikda, ayniqsa orkestr va ansamblda juda muhim. Tovushni so'ndirishda til bilan «tit» atamasi aytiladi. Tovushni kuyning xarakteriga qarab birdan-keskin, yoki ohista so'ndirish mumkin.

“Ivan Susanin” II s., “Krakovyak”

[Allegro vivo ♩=132]  
Cl. in B solo M.Glinka

*p* 9 raziosissimo

Tovush soʻndirilishining ikkinchi turi cholgʻuga puflanayotgan damni toʻxtatish orqali amalga oshiriladi.

“Suv parisi” II s., “Slavyan raqsi”

[Allegretto ♩=84]  
Cl. in B A.Dargomijskiy

*p* dolce

Hozirgi zamon olimlarining fikriga qaraganda tilning ogʻiz boʻshligʻi ichidagi vaziyati cholgʻu asbobi tovush koʻlamining turli registrida tovush sadolanishini muvofiqlashtirishda ham muhim oʻrni borligi taʼkidlanadi.

Yuqorida til zarbi – attaka orqali shtrix atamasi va uning bajaradigan vazifasini aniqlab oldik. Endi ularning damli cholgʻularda qoʻllanilishini koʻrib chiqamiz.

Shtrixlar hosil qilinishiga koʻra besh guruhga boʻlinadi. Ularning birinchisi tilning qattiq zarbi – attakasi «tu» yordamida quyidagi shtrixlarni ijro qilish mumkin.

**Detache – detashe** – (fransuzcha *detacer* – alohida degan maʼnoni bildiradi) tilning zarblari ishtirokida har bir tovush yetarli darajada choʻzib alohida ijro qilinadi. U nota yozuvida maxsus belgilar bilan ifodalanmaydi.

Norim-Norim

Allegretto

**Marcato – markato** (italyancha «*marcare*») – ajratib koʻrsatish, urgʻu berish) – tilning keskin zarblari ishtirokida kuch bilan urgʻu berilgan tovushlar

chalinadi. Bunda har bir tovush oxirigacha cho‘ziladi va shunisi bilan sforsandodan farq qiladi. Nota yozuvida ifodalanishi:

**Trubadur**

Allegro assai sostenuto J. Verdi

Cl. in B

**Staccato – stakkato** (italyancha alohida, qisqa-qisqa degan ma’olarni bildiradi) u tilning keskin lekin tez va yengil uriladigan zarblari natijasida har bir tovush yarmigacha qisqartirilib chalinadi. Nota yozuvida quyidagicha aks etadi:

**Raq**

Allegretto I. Xamroyev

**Staccatissimo – stakkatissimo** – stakkatoga qaraganda ham qisqa (yozilgan tovush cho‘zimining to‘rtidan biriga qisqaradi) va staccatissimo yozuvi bilan ifodalanadi.

**Trombon va damli cholg‘ular orkestri uchun Konsert**

[Allegretto] N. Rimskiy-Korsakov

**Martele – martele** (fransuzcha «marteler» – cho‘kichlamoq, zarb urmoq) bunda tovushlar tilning o‘tkir zarbi va kuchli nafas bosimi bilan bir xil dinamikada alohida bo‘rttirib chalinadi. Notada ifodalanishi:

**Petrushka**

Allegretto  
Cl. in B I. Stravinskiy

*ff*

**Tenuto – tenuto** – tilning qattiq zarblari yordamida, ammo urg‘u bermasdan har bir tovush oxirigacha cho‘zib ijro qilinadi. Quyidagicha yoziladi:

**Manon**

Andante sostenuto  
Cl. in B Massne

*f*

**Yakkaxon klarnet uchun Sonata**

[Molto risoluto  $\text{♩} = 380-400$ ]  
Cl. in B G. Olax

*staccatissimo*

*sub-ff*

2. Tilning yumshoq zarbi «du» yoki «di» talaffuzlari ishtirokida hosil qilinadigan shtrixlar:

**Non legato – non legato** – tilning yumshoq zarbi natijasida tovushlar bir-biriga bog‘lanmasdan chalinadi. Bunda har bir tovush orasida kichkina pauza hosil bo‘ladi. Nota yozuvida ifodalanishi:

**“Marvarid qidiruvchilar”, II sahna**

[Andante]  
Cl. in B J. Bizet

*p*

## “Aida”, I sahna

Grave  $\text{♩} = 60$   
Tr-nel J. Verdi

*pp dolcissimo*

Andante  
Cl. in A Serenada Servanskiy

*p*

**Portato – portato** – tilning yumshoq harakati natijasida tovushlar bir-biriga bog'langan holda cho'zibroq ijro qilinadi. Nota yozuvida quyidagicha ifodalanadi:

Andante  
Cl. in B Uyqudagi malika (I akt) P. Chaykovskiy

*p*

Truba va orkestr uchun Konsert A. Arutyunyan

[♩=72]

*p*

**Portamento – portamento** – vokal ijrochiligi tajribasidan olingan shtrix bo'lib, tovushdan tovushga yengil, nozik sirpanib o'tishni ifodalaydi. Nota yozuvida maxsus belgi bilan ko'rsatilmaydi.

### “Sharqona romans”

[Adagio] A.Dargomijskiy

ten+

Ты рож - де - на для не - ги том - ной,  
 для у - по - е - ни - я стра - стей, ты рож - де - на для не - ги  
 том - ной, для у - по - е - ни - я стра - стей!

3. **Frullato – frullyato** – til va lablarning o‘ziga xos bidratmasi (treli), ya’ni «trr» unsizlarini talaffuz qilinishi natijasida amalga oshiriladi.

Bu shtrix ko‘pchilik o‘zbek tinglovchilariga O‘zbekiston xalq artisti Abdullaxat Abdurashidov nayda ijro etgan milliy kuylar termalari (popurrilari) orqali yaxshi tanish. Notada ifodalanishi:

### Klarnet uchun 4 pyesa

Sher rasch Berg  
 Cl. in B

*p* *ppp*

### Truba va fortepiano uchun Sonatina

[Allegro moderato] B.Martini  
*frullato*

*p*

4. **Qo‘sh stakkato** – tilning uchi va o‘rta qismini birga qo‘llagan holda «tu», «ku», yoki «ta», «ka» atamalari orqali hosil qilinadigan shtrix qo‘sh stakkato deyiladi. U dastlab fleytachilarda, keyin trubachilarda qo‘llanila boshlagan.

Qo‘sh stakkatodan tilni uchi va o‘rta qismining keskin va tez harakatlanishi natijasida duol va kvartollarni chalishda foydalaniladi. Triol va sekstollarni chalishda esa xuddi shu shtrixning «tu-tu-ku» yoki «tu-ku-tu» atamalari talaffuz qilinadi. Nota yozuvida quyidagicha aks etadi:



## Yettinchi simfoniya, I qism

[Adagio ♩=92] Solo  
Fag.

D. Shostakovich

The musical score for the Bassoon part consists of four staves. The first staff begins with a 4/4 time signature, followed by a 3/4 time signature, and then returns to 4/4. The second staff continues with 3/4 and 4/4 time signatures. The third and fourth staves are in 3/4 time. The music features a melodic line with various intervals and dynamics, including a *p espress.* marking. There are several slurs and accents throughout the piece.

## Valtorna va fortepiano uchun Serenada

Moderato

N. Ivanov-Radkevich

The musical score for the Serenade consists of three staves in treble clef. The key signature has two flats (B-flat and E-flat), and the time signature is 3/4. The music is marked *mp* and features a melodic line with slurs and a *mp* dynamic marking. The piece has a moderate tempo and a lyrical character.

## Muhabbat

Espressivo

Xorazmcha raqs


The musical score for Muhabbat consists of two staves in treble clef. The key signature has two flats (B-flat and E-flat), and the time signature is 5/4. The music is marked *Espressivo* and features a melodic line with slurs and a *p* dynamic marking. The piece is characterized by its expressive and lyrical nature, typical of a dance from the Xorazm region.

**Legatissimo** – tovushlarning yanada ko‘proq bog‘liqligini talab qiladigan shtrix.

### “Boqchasaroy favvorasi”, III s.

[Allegretto]  
Cl. in B I Solo


B. Asafyev



### Goboy va orkestr uchun Konsert, II q.

Andante

F. Gidash



**Urg‘uli Legato** – legato – til zarbi ishtirokisiz damni faol kuchi natijasida «Fu», «Fu», «Fu» atamasi bilan havoni to‘lqinlatish yordamida amalga oshiriladi. Notada liga ostiga urg‘ular qo‘yiladi.

### Klarnet va orkestr uchun Konsert, I q.

[Allegro]

B. Savilyev



**Glissando** – glissando – kuyning sirpanchiq harakati, nota yozuvida to‘g‘ri yoki to‘lqinsimon chiziq bilan belgilanadi. Damli cholg‘ularda paski registrdan yuqoriga va aksincha sirpanish orqali amalga oshiriladi. Ushbu shtrix ayniqsa misli cholg‘ularda o‘ziga xos samarali ifodalanadi.

## Sharq kaprichchiosi

Andante a piacere

A.Ergashev

Musical score for "Sharq kaprichchiosi" by A. Ergashev. The score is in 2/4 time and starts with a forte (*f*) dynamic, followed by a piano (*p*) section. The piano part has a key signature of two flats and a 3/8 time signature. The introduction concludes with a forte (*f*) dynamic.

## To'qqizinchi simfoniya, II q.

[Allegro]

Corni in F

D. Shostakovich

Musical score for the 23rd Symphony, 2nd movement by D. Shostakovich. The score is in 2/4 time and starts with a fortissimo (*ff*) dynamic, followed by a crescendo (*cresc.*) leading to a glissando (*gliss.*) and a fortississimo (*ffff*) dynamic. There are sixteenth-note passages and a 6-measure rest.

## Yakkaxon klarnet uchun Sonata

[Molto risoluto  $\text{♩} = 380-400$ ]

T. Olax

Musical score for a Clarinet Sonata by T. Olax. The score is in 3/8 time and starts with a forte (*sf*) dynamic. The tempo is marked [Molto risoluto] with a quarter note equal to 380-400. The score includes a slap (*Slap*) instruction, a glissando (*gliss.*) with a deceleration (*lento*) marking, and a fortissimo (*ff*) dynamic. There are sixteenth-note passages and a 6-measure rest.

Baʼzida artikulyatsiya va shtrix atamallari bir xil deb tushuniladi. Bu notoʻgʻri albatta. Chunki **shtrix** maʼlum bir tovushni aniq shaklda (stakkato, legato) ifodalasa, **artikulyatsiya** maʼlum kuy jumlasini yoki frazasida barcha shtrix ifodalari orqali erishilgan natijalar yigʻindisi boʻlib, muayyan shtrixlar asosida kuyning barcha ifoda vositalari (temp, ritm, dinamika, registr)ning ham mutanosib va muvofiq ravishdagi ishtirokini taʼminlaydi. Quyidagi N.A.Rimskiy-Korsakov qalamiga mansub «Ispan kaprichchiosi»dan «Alborada» asarida staccato va legato shtrixida, punktir ritmida, tez surʼatda, yuqori registr va *f* tovush kuchida ertalabki bayramona yorqin kayfiyat ifodalangan.

## “Ispan kaprichchiosi”, Alborada

[Vivo e strepitoso ♩=126]

Cl. in A

solo con forze

N.Rimskiy-Korsakov

The musical score is written for Clarinet in A. It begins with a treble clef and a 2/4 time signature. The tempo is marked 'Vivo e strepitoso' with a metronome marking of 126. The dynamics are 'f' (forte) and 'solo con forze'. The score includes several trills marked 'tr'. The music is characterized by rapid sixteenth-note passages and slurs.

Yuqoridagi asarda ko‘rsatilgan artikulyatsiya shartlaridan biri bajarilmasa ham musiqaning xarakteri keskin o‘zgaradi va tinglovchida yaxshi taassurot qoldirmaydi.

### *Qaytarish uchun savollar:*

1. Damli cholg‘ularga xos bo‘lgan shtrixlar, tilning keskin zarbi va yumshoq zarbi natijasida chalinadigan shtrixlar haqida nima bilasiz?
2. Damli cholg‘ular ijrochiligida tilning vazifasi, tovush hosil qilishdagi roli va til zarbi (attaka) haqida nimalarni bilasiz?
3. Artikulyatsiya nima?

## IJROCHILIK NAFASI

Inson organizmida nafas asosiy o‘rin tutadi va o‘pkaga olingan kislorod iste‘mol qilingan har xil uglevodlar, yog‘ va oqsillarning parchalanishida muhim rol o‘ynaydi. Nafas olingan paytda havo burun teshiklaridan changlardan tozalangan va biroz qizigan holda o‘pkaga o‘tadi. O‘pkalar odam ko‘krak qafasida joylashgan ikkita elastik qopchalar bo‘lib, ularga nafas olinib to‘lganda ko‘krak qafasi kengayadi va qorin diafragmasi pastga cho‘ziladi. Nafas chiqarilganda esa aksincha holat yuz beradi. Inson o‘pkasi hajmining nafas sig‘imi 3500-4500 ml bo‘lib, jismoniy mashqlar va suzish bilan muntazam shug‘ullanish natijasida uning havo sig‘imi hajmini 6000 ml ga yetkazish mumkin.

Inson tinch turgan paytda bir minutda 18-20 marta nafas olib chiqaradi. Bu oddiy nafas hisoblanadi. Ijrochilik nafasi bilan oddiy nafas bir-biridan farq qiladi. Oddiy nafas burundan erkin olinadi, uning olinish va chiqarilish vaqtlari bir-biriga tengdir.

Damli cholg'ularda tovushning balandligi, kuchi, tembri va davomiyligini ta'minlash uchun nafaqat til zarbi yoki lab mushaklari ishi balki, ijrochilik nafasi eng muhim omillardan hisoblanadi. Chunki tovushning paydo bo'lishida til birinchi zarb (attaka)ni berib tovush hosil qilsa uning davomiyligini, ya'ni cho'zimini nafasning uzluksiz oqimi ta'minlaydi.

Ijrochilik nafasi ongli ravishda og'iz burchaklari orqali olinadi (uzluksiz nafasdan tashqari) va olinishida tez, chiqarilishida esa tejamkorlik bilan asta sekin sarflanadi.

Ijrochilik nafasini og'iz orqali olgan paytda u til chekkalariga tegib o'tsa yoki tomoqni qisgan holda olinsa shovqinli xissillagan tovush hosil bo'ladi va u barchaga xalaqit beradi. Bunday kamchilikdan juda ehtiyot bo'lish zarur.

Ijrochilik nafasida o'pkaning to'liq hajmidan foydalaniladi. Uning asosan uch turi mavjud bo'lib, bular:

a) **ko'krak nafasi**, bunda o'pkaning yuqori qismi havoga to'lishi natijasida ko'krak qafaslari kengayadi, qorin bo'shlig'i (diafragma)esa passiv holatda bo'ladi;

b) **qorin nafasi**, bunda o'pkaning pastki qismi havoga to'lishi natijasida qorin bo'shlig'i (diafragma) pastga cho'ziladi. Ko'krak qafaslari esa passiv holatda qoladi;

v) **aralash nafasda** o'pkaning butun hajmi havo bilan to'ladi, bunda olingan nafas o'pkaning pastki qismidan to'lishib, qorin (diafragma) pastga cho'ziladi va yuqori qismi ham to'lishi natijasida ko'krak qafasi kengayadi. Bu ko'krak va qorin nafaslarining aralashgan turi bo'lib, ijrochilikda eng ko'p qo'llaniladigan samarali nafas hisoblanadi.

Quyidagi rasmda nafas apparatining holati ko'rsatilgan (keyingi sahifaga qarang).


Diafragmani nasosga va o'pkalarni nafas xalqumiga havoni haydovchi temirchining meshqopiga o'xshatish mumkin. O'pkaning pastki qismi kengroq bo'lib, unga ko'proq havo sig'adi.

Nafas olish paytida o'pkalarning bosimi ostida diafragma pastga cho'ziladi. Nafas chiqarishda esa diafragma sekin ko'tariladi, lekin bo'shshmaydi.


Ushbu nafas turlaridan tashqari Kavkaz xalqlari damli cholg'uchilari va O'zbekiston surnaychilarida **qaytarma nafas** (черное, перманентное дыхания) yoki Xorazmda **dam aylantirish** deyiladigan nafas turi hozirgi davrda ham qo'llaniladi. Bunda ijrochi lunjini shishirgan holda unda zahira havoni saqlaydi va burundan nafas olayotgan paytida o'sha havoni chakka mushaklari

yordamida surnay naychasiga yo‘llaydi. Natijada o‘pkaga havo ham olinadi va surnayga yuborilayotgan nafasda ham uzilishga yo‘l qo‘yilmaydi va uzluksiz tovush hosil bo‘ladi.

*a) old tomondan ko‘rinishi*



*b) yon tomondan ko‘rinishi*



*Nafas chiqarishdagi holat asosiy chiziqlar bilan, nafas olishdagi holat esa uzilgan-punktir chiziqlar bilan belgilangan.*

*1 – o‘pkalar; 2 – yurak; 3 – nafas chiqargan holatdagi diafragmaning ko‘rinishi; 4 – nafas olish holatidagi diafragmaning ko‘rinishi; 5 – nafas chiqargan holatdagi ko‘krak qafasi; 6 – nafas olish holatidagi ko‘krak qafasi; 7 – nafas chiqargan holatdagi qorin devori; 8 – nafas olish holatidagi qorin devori.*

Bundan maqsad qadimda va hozir ham musiqiy tovushning uzluksizligi, kuy-ohang vaqt bo‘shlig‘ini to‘ldiruvchi, qadimgi devorlardagi islimiy naqshlarga o‘xshab uzilmasdan, inson ruhiga oziq beruvchi omil, ya’ni ollohning ne’mati deb hisoblanadi. Shuning uchun ham u ma’lum muddat ichida qancha ko‘proq davomli bo‘lsa shuncha yaxshidir.

Qaytarma nafasni o'rgatish uchun Xorazmlik mashhur xon surnaychisi Xudak ota – Xudoybergan Qurbon o'g'li o'z shogirdlarini qo'llariga nay qamish berib dam aylantirish tamoyilini tushuntirgach, boshlovchi surnaychini ariqcha chetiga yotqizgan holda naychani suvga tiqib puflatar va suvda pufakchalar hosil bo'lishi uzluksiz davom etsa, ya'ni nafas aylansa shogird surnayni qo'liga olgan. Agar dam aylanishida uzilish ro'y bersa suvda uzluksiz pufak chiqqunicha mashg'ulotni yana davom ettirgan.

Ijrochilik nafasining qaysi shakli bo'lishidan qat'iy nazar sozanda uni olgan – ya'ni o'pkasini havoga to'ldirgan paytda iloji boricha yelkalar ko'tarilmagani ma'qul. Shuningdek, nafasni puflash, ya'ni sarflash jarayonida o'pkada zahira nafas qolishi kerak. Chunki u o'pkani qaytadan havoga to'ldirishda katta ahamiyatga ega.

Musiqiy asarlarda nafas olinishi mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan joylar mavjud bo'lib, ularga rioya qilinsa kuy jumlasini, davriyasi va umuman musiqa matni badiiy ifodali chiqadi va uzilishlarga yo'l qo'yilmaydi. Kuy matnida nafas olinishi mumkin bo'lgan joylar quyidagilar hisoblanadi:

a) tinish belgilari (pauzalar)da;

### F valtorna va fortepiano uchun Sonata, I q.

[Allegro moderato] L. Beethoven

### A klarnet va fortepiano uchun Sonata, II q.

[Allegretto M.M. ♩=144] M. Vaynberg

Two staves of music. The top staff has a treble clef and a key signature of one flat. It contains several measures with slurs and triplets. The bottom staff has a treble clef and a key signature of one flat, with similar rhythmic patterns and slurs.

b) cho‘zimli tovushlardan keyin;

“Ariya” (V.Saloduyev valtornaga moslashtirgan)

Lento  
Corno in F  
I.S.Bax

Two staves of music. The top staff has a treble clef and a key signature of one flat. It includes dynamic markings *pp*, *mf*, and *mp*, and features a trill (*tr*) and a breath mark (*V*). The bottom staff has a treble clef and a key signature of one flat, with a first ending bracket.

Bolero

[Tempo di Bolero moderato assai  $\text{♩} = 76$ ]

Tr-ne I Solo

M.Ravel

Two staves of music. The top staff has a bass clef and a key signature of one flat. It includes a triplet and a breath mark (*V*). The bottom staff has a bass clef and a key signature of one flat, with a breath mark (*V*) and a first ending bracket.

v) bir xil ritmik ko‘rinishdagi joylarning takrorlanishida;

C-dur Simfoniyasi, II q.

[Adagio cantabile]

Fag. solo

L.Betxoven

Three staves of music. The top staff has a bass clef and a key signature of one flat. It includes dynamic markings *p* and *f*, and a breath mark (*V*). The middle and bottom staves have a bass clef and a key signature of one flat, with dynamic markings *p* and breath marks (*V*).

### “Zardo’sht bunday degan” Simfonik poemasi

[Sehr bewegt]

R.Straus

47 Cl. in B1

*p*

*Aim*

d) aniq ifodalanmagan jumlar oxirida;

### “Sadko”, IV s.

[Allegro vive ♩=66]

N.Rimskiy-Korsakov

Fl. I

*p*

e) garmonik va dinamik tushlarni o‘zgarishi paytida;

### Fleyta va fortepiano uchun Sonata №1, II q.

(Platonov tahriri)

Allegro M.M. ♩=108

G.Gendel

*f*

*p*

*f*

j) kuy registrlarining almashinish joylarida

### Goboy va orkestr uchun Konsert, I q.

[Allegro] F.Gidash

*p*

*V* *(V)*

*3* *3* *3* *3*

Kuy davomida nafas olish mumkin bo‘lmagan joylarga quyidagi misollar keltiriladi.

a) tovushlar tutilishi paytida:

### Tantanalni motam simfoniyasi (Apofeoz)

[Allegro non troppo e pomposo] G.Berlioz

Tr-ne I

*ff* *3* *3*

*p*

b) o‘tkinchi tovushlardan oldin yoki keyin:

### Truba va fortepiano uchun Sonatina, III q. (koda)

Sehr ruhig (♩ etwa 40) P.Xindemit

*p* *cresc.* *V*

*f* *V* *[V]* *[V]* *V* *mf*

v) yordamchi tovushdan oldin

### Valtorna va fortepiano uchun Konsert, II q.

[Andante]

V.A.Motsart

*(con espressione)*

g) yetakchi tonlarda va cho‘zimli tovushlardan oldin nafas olish tavsiya etilmaydi.

### “Tangeyzer”, II q.

[Allegro]

R.Vagner

*f*

### Truba va fortepiano uchun Sonatina

[Allegro moderato]

B.Martini

*mf cantabile*

Nafas olishning imkoni bo‘lmagan passajlarda – kuyning qiyin bo‘laklarida ijrochi qanday yo‘l tutishi kerak? Bunda sozanda kuy jumalari yakunida va passajlarning qulay joyida ustoz maslahatiga asosan nafas olishi mumkin.

Ijrochilik nafasini rivojlantirish uchun toza havoda jismoniy mashqlar, ta’lim jarayonida cho‘zimli tovushlarni chalish, har xil dinamik tusdagi

tovushlarni zamzama qilish hamda konsert, sonata va syuitalarning vazmin sur'atdagi qismlarini qunt va chidam bilan ijro qilish zarur.

### ***Qaytarish uchun savollar:***

1. Inson organizmida o'pka va unga olinadigan nafas qanday rol o'ynaydi?
2. Damli cholg'ularda oddiy nafas bilan ijrochilik nafasini farqi bormi?
3. Ijrochilik nafasini qaysi turlarini bilasiz?
4. Kuy matnining qanday joylarida nafas olish mumkin va qaysi joylarida tavsiya etilmasligini tushuntirib bering.
5. Ijrochilik nafasini rivojlantirishning qanday yo'llari mavjud ?

## **QO'L VA BARMOQLAR HARAKATI, UNING AHAMIYATI VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI**

Damli va zarbli cholg'ularda ijrochilik mahorati barmoqlar harakati, tilning bajaradigan vazifasi, lab va nafas organlari ishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular bir-biriga mutanosib kelgandagina umumiy ijrochilik apparati harakatga keladi va ijro jarayoni amalga oshiriladi.

Barmoqlar harakati mohiyatini tushunish uchun qo'l va barmoqlar skleti tuzilishini ko'rib chiqishimiz zarur. Ular quyidagicha: yelka, bilak, panja oldi, panja va barmoq bo'g'inlari suyaklaridan tashkil topgan. Bosh barmoqdan tashqari barcha barmoqlar uch bo'g'indan iborat bo'lib, asosiy, o'rta, va tirnoq bo'g'inlariga ajratiladi. Bosh barmoqda esa asosiy va tirnoq bo'g'ini mavjud.

Cholg'u asbobida barmoqlar joylashuvi (applikatura)ning tabiiy holati ijro mahoratini egallashning birinchi bosqichi hisoblanadi. Ayniqsa fleyta va tillitrostli cholg'ular pardalarida o'quvchi barmoqlari yarim egilgan tabiiy holatda bo'lishi, yuqoriga ortiqcha ko'tarilmasligi, yon tomonga surilib ketmasligi zarur. Mis cholg'ularda esa barmoqlar cholg'u asbobi pardalaridan uzilmagan holda harakatlanmog'i kerak. Trombonlarda o'ng qo'l holati, zarbli cholg'ularda qo'l va bilaklarning holati ko'zda tutiladi.

Ijrochilik mahoratini egallashning ikkinchi bosqichida gamma, uch tovushlik, ayniqsa arpedjiolarning turli aylanmalari har xil mashq va etyudlarni chalish juda muhim. Shuningdek, barmoqlar harakatchanligini rivojlantirishda bidratma (trell)larni chalish foydali. Bunda barmoqlar ko'tarilib tushishi izchilligi ravon va bir tekkisda bo'lishiga e'tibor qaratish lozim.

Ijrochilik mahoratini egallashning uchinchi bosqichida qo'shimcha applikaturani qo'llash ham muhim ahamiyatga ega. Qo'shimcha applikatura tovushqatorni yanada qulay va tez chalish yoki tovushning intonasiya sifatini toza chiqarish maqsadlarida qo'llaniladi.

### ***Qaytarish uchun savollar:***

1. Qo‘l va barmoqlar skleti tuzilishini bilasizmi?
2. Mis cholg‘ularida barmoqlar, trombonlarda o‘ng qo‘l, zarbli cholg‘ularida qo‘l va bilaklarning holati qanday bo‘lishi kerak?
3. Ijro mahoratini egallashda gamma, uch tovushlik, har xil mashq va etyudlar qanday rol o‘ynaydi?
4. Ijrochilik texnikasi badiiy asarning mazmunini ochishdagi maqsadmi yoki vosita?

## **ZARBLI CHOLG‘ULAR**

Zarbli cholg‘ular eng qadimgi cholg‘u asboblari turiga kiradi. Ularning kelib chiqishi insonning qadam bosishi, qo‘llarini bir-biriga urishi, mehnat jarayoni, raqs harakatlari, ov va harbiy yurishlar bilan bog‘liq. Uzoq tarixiy rivojlanish davomida turli xalqlar musiqa amaliyotida o‘zining tuzilishi, tovush hosil qilinishi, ijro va ifoda imkoniyati hamda chalinishi jihatidan xilma-xil zarbli cholg‘ularning turlari shakllangan.

Zarb arabcha – urmoq, urish ma’nosini bildiradi va mazkur cholg‘ularda asosan cho‘p va tayoqchalar yordamida zarb bilan urish, barmoq bilan chertish, silkitish va boshqa harakatlar orqali tovush hosil qilinadi. Ularda tovush hosil qiluvchi unsur sifatida maxsus qoplama (membrana) yoki cholg‘u asbobining tanasi (korpus) xizmat qilishi mumkin va bular ikki turga bo‘linadi:

a) Membranafon – qoplamali cholg‘ular, ularga maxsus teri yoki plastik qoplangan baraban, nag‘ora, doira, tom-tom, litavralarning turli xillari kiradi;

b) Avtofon – o‘zi tovush beruvchi cholg‘ular bo‘lib, ularning vujudiga mexanik ta’sir qilish natijasida o‘z tanasidan tovush hosil bo‘ladi. Bular: turli tarelkalar, qayroq, safoyil, uchburchak (treugolnik), quticha (korobka), ksilofon va boshqalar.

Ijro texnikasi jihatidan zarbli cholg‘ularning bolg‘achalar yordamida, qo‘l barmoqlari bilan, bir-biriga tekkazib (urib) va silkitgan holda chalinadigan har xil turlari mavjud. Bundan tashqari zarbli cholg‘ular aniq tovush balandligiga ega bo‘lgan (ksilofon, vibrofon, marimba, litavra va h.k.) va aniq balandlikka ega bo‘lmaganlar (baraban, nag‘ora, doira, tom-tom, turli tarelkalar, qayroq, safoyil, uchburchak (treugolnik), quticha (korobka) va h.k.) turiga hamda past, o‘rta va yuqori registrilarga ajratiladi.

### ***Qaytarish uchun savollar:***

1. Zarbli cholg'ularning kelib chiqishiga qanday hayotiy zaruriyat ta'sir qilgan?
2. «Zarb» so'zi qanday ma'noni bildiradi?
3. Membranafon so'zini izohlang.
4. Avtofon qanday ma'noni bildiradi?
5. Aniq bandlikka ega va ega bo'lmagan zarbli cholg'ularni ayting.

## **ZARBLI CHOLG'ULARDA IJROCHILIK MAHORATI ASOSLARI**

Ko'pchilik zarbli cholg'ular cho'p-tayoqchalar yordamida chalinadi. Ularni mohirona ishlata bilish zarbli cholg'ular ijrochisi mahoratining asosi hisoblanadi. Shuning uchun ham o'quvchilarga birinchi navbatda tayoqchalar bilan chalish mahoratini egallash eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu sababli deyarli barcha darslik va qo'llanmalar kichik barabanda ijro texnikasi o'rgatilishi bilan boshlanadi. Kichik baraban zarbli cholg'ular guruhining yetakchi asbobi bo'lib, uning va boshqa zarbli cholg'ularning zamonaviy orkestrdagi roli tobora ortib bormoqda. Bu holat ularning bajaradigan vazifasi bilan bog'liqdir. Ilgarilari baraban va boshqa cholg'ular ko'pincha namoyishkorona – ko'rgazmali maqsadlarda ishlatilgan bo'lsa, hozirgi kun orkestr ijrochiligida ular fundament – asos hisoblangan ritmik yo'nalishni boshqarish, shuningdek, nafaqat dinamik balki, mazmunni belgilaydigan kulminatsiya va avjlarga urg'u berish, orkestr tovush bo'yoqlari jilosini o'zgartirish, o'ziga xos kuy yo'nalishini belgilash kabi murakkab vazifalarni bajaradi. Shu munosabat bilan ijrochilik vositalari yanada boyib bormoqda. Turli registrdagi har-xil urma-zarbli cholg'ular turlari ko'paymoqda. Ularning ichida rang-barang tovush tuslarini beruvchi, kuy izchilligini ta'minlovchi tovushqatorli majmualar qo'llanilmoqda. Zarbli cholg'ular majmuasining tuzilishi, konstruksiyasining o'zgarishi va orkestr fakturasidagi ahamiyatiga qarab o'qitishning yangi uslublarini izlash talab qilinmoqda. Bunda qo'lning ijro holati, turli ritmik ko'rinishlar va zarb tuslarini rang-barangligiga erishishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Barcha cholg'ularda bo'lgani kabi zarbli cholg'ularda ham qo'l harakatining erkin va tabiiy holati, kam kuch sarflagan holda yuksak mahoratga erishish asosiy maqsad hisoblanadi. Bunda qo'llarning ijro holati asosiy unsurlardandir. Agar qo'l skletini ko'rib chiqadigan bo'lsak u uch qismdan tashkil topadi:

- a) yelka qismi (yelka suyaklaridan tirsakkacha);
- b) tirsak (tirsakdan bilak bo‘g‘inlarigacha) qismi;
- v) kist-bilak bo‘g‘inidir.

Bilak ham o‘z navbatida uch bo‘lakka ajratiladi: panjagacha bo‘lgan qismi, panja va barmoqlardan tashkil topadi. Barmoqlarning bosh barmoqdan boshqa barchasi uch bo‘g‘inli bo‘lib, bosh barmoq ikki bo‘g‘indan tashkil topgan.

Zarbli cholg‘ular ijro holatida qo‘lning barcha qismlari bir-biriga bog‘liq holda harakat qiladi. Ammo har bo‘lagining o‘ziga yarasha bajaradigan vazifasi bor. Agar yelka qismini olib ko‘radigan bo‘lsak, qo‘lni yelkadan boshlanadigan harakatining zarbi juda kuchli bo‘lib, katta kuchlanishli sadolanish uchun ishlatiladi. Tirsaklar bo‘lsa, yelka bilan bilaklarni bog‘lovchi bo‘g‘in vazifasini bajaradi va «bilak zarb»ni kuchlantirish va chuqurlashtirishda faol ishtirok etadi. Tirsak mushaklarining faolligi va to‘laqonliligi natijasida tovush kuchi va bidratma (rez)ning zichligi ortadi. Lekin, tirsak mushaklarini erkin-bo‘sh tutish, zo‘riqtirmaslik ustoz va shogirdning doimo diqqat markazida bo‘lmog‘i lozim.

Zarbli cholg‘ularda bilak (kist) murakkab vazifani bajaradi. U doimo egiluvchan, harakatchan va chidamli bo‘lmog‘i kerak. Tovush hosil qilish bilak harakatiga bog‘liq bo‘lib, ayniqsa panja bo‘g‘inlarining erkinligi katta ahamiyat kasb etadi. Bunda urilgan zarb qancha kuchli bo‘lmasin bilak o‘zining egiluvchan holatini saqlagan holda cho‘plarni teri qoplamasidan orqaga qayta sakrashini ta‘minlashi lozim. Bilakning bunday «prujina» vazifasini bajaruvchanligi teri qoplamaning kuchli zarb natijasida yorilishdan asraydi. Shu sababli ijrochi qo‘l mushaklariga kuchni qanday taqsimlashni xayolida – tasavvurida muvofiqlashtirmog‘i kerak. Faqat oqilona tutilgan yo‘l ortiqcha zo‘riqishdan saqlaydi.

Kichik baraban ijrochiligida ikki xil holat qo‘llaniladi. Birinchisi **simmetrik**<sup>1</sup> holat bo‘lib, bunda ijrochining panjalari cho‘plarni pastga qaragan holda ushlaydi va baraban yuzasi gorizontol vaziyatda turadi. Ikkinchisi **simmetriyasiz**<sup>2</sup> holat bo‘lib, bunda o‘ng qo‘l oldingi holda qoladi. Chap qo‘l panjasi cho‘pni yuqoriga qaragan holda ushlaydi. Baraban esa (30-40 sm) o‘ng tomonga sal qiyshaygan vaziyatda turishi kerak. Ushbu holat yurib chalish «paxod» harakatida qulaydir.

Hozirgi davr zarbli cholg‘ular ijrochisi ikkala cholg‘uchilik holatini ham mukammal o‘zlashtirgan bo‘lishi zarur. Ularning ikkalasini tafsilotlari ham o‘ziga xosligi va ayrim xususiyatlarini yoritish mazkur cholg‘ular uchun darslik

---

<sup>1</sup> Simmetriya grekcha – uyg‘unlik, biror narsaning ma‘lum nuqta, chiziq yoki tekislikka nisbatan qarama-qarshi tomonda joylashgan qismlari o‘rtasidagi mutanosiblik, o‘xshashlik, moslik.

<sup>2</sup> Simmetriyasiz – simmetriya qonunlariga bo‘ysunmay yasalgan yoki joylashgan, nomutanosib, uyg‘un bo‘lmagan jism yoki holat.

va o'quv qo'llanmalarining uslubiy bo'limlariga aloqador bo'lib, xususiy metodika tarkibiga kiradi. Bunda yelka, tirsak, bilak va barmoqlar harakatini rivojlantiruvchi mashqlarning ahamiyatini har bir ustoz o'z uslubiga yarasha talqin etadi va sharhlaydi.

### ***Qaytarish uchun savollar:***

1. Zarbli cholg'ularda ijrochilik mahorati asosan qaysi asbobda o'rgatiladi?
2. Qo'l skleti qanday suyaklardan tashkil topadi.
3. Zarbli cholg'ularda bilak (kist)ning roli qanday?
4. Kichik baraban ijrochiligida qanday holatlar qo'llaniladi?

## **MUSIQIY ESHITISH QOBILIYATI, XOTIRA VA USUL SEZGISI**

Ijrochilik jarayonida sozandaning labi, nafas organlari, tili va barmoqlari bilan chambarchas bog'liq holda uning musiqiy eshitish tasavvuri ham faol ishtirok etadi. Musiqiy eshitish sozanda umumiy qobiliyatining yetakchi omillaridan biridir.

Musiqiy asar mazmunini ijrochi musiqiy tovush, go'zal ovoz orqali talqin qiladi va tinglovchi tomonidan eshitiladi – qabul qilinadi. Bu jarayonda asosiy rolni eshitish, tinglash va tasavvur qilish holatlari bajaradi. Demak musiqiy eshitish va tasavvursiz san'atga, musiqaga, xususan ijrochilikka oshno bo'lish aslo mumkin emas. Chunki musiqani hamma eshitadi, ammo uni barcha ham tinglab idrok eta olmaydi.

Kasb nuqtai nazaridan musiqiy eshitish ham ikki turga bo'linadi: Birinchisi **rivojlanuvchi yoki qiyosiy eshitish qobiliyati** sozandaga bir tovushni eshitgandan so'ng boshqalari bilan taqqoslagan – qiyoslagan holda balandligini aniqlashda yordam beradi. Ikkinchisi **mutlaq** (absolyut) eshitish qobiliyati bor sozanda esa tovush balandligini to'g'ridan-to'g'ri boshqalari bilan taqqoslamasdan aniq ayta oladi. Ya'ni real tovush hosil bo'lmasdan oldin, (notani ko'rsa yoki unig balandligi nomini eshitgan zahoti) mutlaq eshitish qobiliyatli sozandaning tasavvurida uning balandligi aniq jaranglaydi va ijrochilik apparatini o'sha tovushni hosil qilish uchun tayyorlaydi.

Ijrochilik tajribasida musiqiy eshitishning boshqa jihatlari ham mavjud bo'lib, ular:

- a) tovush tuslarini (tembri) anglash, bunda tovushning tembrini ya'ni tovush koloritini, erkak yoki ayol ovozi, ma'lum cholg'u asbobining tovushi va h.k. eshitish ko'zda tutiladi;

b) ritmik eshitish, bunda usul sezgisi orqali makonda musiqiy harakatni payqash, ya'ni ovozlari bilan uning cho'zimlarini mutanosib holda zarb va usullarini his qilish;

v) tovush balandligini tinglash;

g) tovushqator va lad asoslarini aniqlash (garmonik yoki melodik va h.k.);

d) nyuans-dinamik o'zgarishlarni his qilish va h.k.

Yuqoridagilardan tashqari insonda zohiriy (tashqi) va botiniy (ichki) eshitish xususiyatlari ham mavjud bo'lib, **zohiriy (tashqi) eshitish** orqali yakkaxon sozanda, hofiz, ansambl yoki orkestr tomonidan ijro qilingan asarni barcha jihatlarini: balandligi, tembrini, usuli va musiqiy matnini anglab oladi. Ma'lumki bunday ustozona uslub sharq xalqlarida juda keng tarqalgan bo'lib, qadimdan otadan bolaga, ustozdan shogirdga ayniqsa musiqiy meros namunalari og'zaki, ya'ni eshitish-tinglash orqali amalga oshirilgan va bizgacha yetib kelgan. Sozandani tarbiyalashda esa doimo o'zini eshitish orqali nazorat qilish borish, bunda tovush sifati, intonatsiya, dinamik belgilar va boshqa jihatlariga e'tibor qaratish muhim omillardan biridir.

**Botiniy (ichki) eshitish**da insonning ichki tug'usi, ya'ni oldin eshitilgan, qulog'iga tanish bo'lgan hayolidagi asar ko'zda tutiladi. Bu hissiyot beshta jihatda namoyan bo'ladi:

a) oldin kimningdir ijrosida eshitilgan va xotiraga o'rnatilib qolgan musiqiy timsollar;

b) o'zi qachonlardir ijro qilgan asar yoki kuy qismini xotirlash;

v) asarni notadan cholg'u asbobisiz o'qigan holda sadolanishini tasavvur qilish;

g) chalish yoki o'quvchiga tushuntirish uchun asar va uning qismlari kompozitsiyasini hayolda shakllantirish;

d) ijro jarayonida birdaniga tayyorgarliksiz (ekspromt) badiha (improvizatsiya), namud (ko'rinish), avj, (gul partav) yoki yangi qismlar ijod qilish.

Botiniy va zohiriy eshitish yillar o'tishi bilan bilim, tajriba, malaka oshgani sayin rivojlanib, sayqallanib boradi. Shuning uchun ham ta'limning birinchi qadamlaridan boshlab musiqiy eshitishni va eshitish nazoratini rivojlantirish o'ta muhimdir.

**Musiqiy xotira** – inson ruhiy jarayonining muhim jihatlaridan biri yod olish va xotirada saqlash bo'lib, uning mohiyati esda saqlab qolish va zarur paytda o'sha xotiradagilarni ma'lum bir vosita orqali yuzaga chiqarish – namoyan qilish hisoblanadi.

Musiqiy xotira insonda ona allasi ohanglari orqali balki, ona qornidalik paytidanoq shakllanadi. Yengil, esda saqlanadigan, qisqa jumlati, jozibador,

yorqin kuy va qo'shiqlar yosh bolaning murg'ak xotirasida doimo muhrlanib qoladi va butun umri davomida unga yoshligini eslatib turadi.

Sozandaning kasbiy faoliyatida turli musiqiy tuzilma va shakllarni yod olish hamda esda saqlab qolish malakalari singdiriladi. Bunda kichkina kuy jumlaridan tortib to katta turkumli asarlargacha yodda saqlash va uni esdan chiqarmasdan ijro qilish musiqiy xotirani rivojlantirishning muhim shartlaridan hisoblanadi.

Xotiraning quyidagi turlari mavjud:

a) tovush balandligi, kuchi, tembri, lad tizimi, usuli, ohangdoshligi, kuy va qo'shiq shaklini esda saqlash bilan bog'liq xotira turlari;

b) inson qiyofasi, tabiat manzarasi, buyum namunasi, biror timsol, nota yozuvi, ularning cho'zimi, turoqlanishi va boshqalarning qog'ozdagi yozuvda, ekranda ifodalanishi ko'zda muhrlanadi va ko'rish xotirasiga kiradi;

v) turli harakatlarni eslab qolish va uni qaytarish (dirijyorlik, raqs, pantomima va h.k.), cholg'u asbobini tana sezgi organlari (lab, qo'l va barmoqlar, nafas organlari harakati va h.k.) sezib eslab qolinishi sezgi-harakat xotirasi;

g) esnash, kulish, yig'lash, lazzatlanish, ta'sirlanish, emotsiya tuyg'ularini esga olib o'zida aks ettirish his-hayajon xotirasi;

d) hikoya, roman, she'r, maqol, topishmoq va boshqalar so'z-mantiq xotirasi turlariga kiradi.

Xotirani yanada mustahkamlash uchun ustoz sozandalar (G.G.Neygauz) tomonidan musiqiy asarni yod olishda quyidagicha yo'l tutilishi uqtiriladi:

a) asarni nota bilan cholg'u asbobida chalib esda saqlashga harakat qilish;

b) notasiz cholg'uda yoddan chalish;

v) cholg'u asbobisiz notaga qarab ko'rish orqali ko'z xotirasida mustahkamlash;

g) notasiz va cholg'u asbobisiz hayoldan o'tkazish orqali musiqiy xotira mustahkamlanadi.

Musiqiy xotira mustahkam bo'lishi uchun nafaqat aqliy xotira (quvva'iy hofiza), balki, «qalb xotirasi» zarurligini ko'pchilik olimlar ta'kidlashadi.

**Usul sezgisi** musiqiy asarlarning tuzilishida eng asosiy omillardan biri bo'lib, ijrochilik jarayonida katta ahamiyatga ega. U inson organizmi bilan tabiatdagi o'zaro o'lchov va ritmik bog'liqlik hamda mutanosiblikni ifodalaydi. Bunda insonning yurak urishi, nafas olishi, qadam tashlashi, hissiy (emotsional) harakat sezgilari tabiatining barcha jihatlari bilan bog'liqdir.

Usul sezgisi rivojlantirish juda qiyin bo'lgan qobiliyatlardan biridir. Shuning uchun ham o'quvchida ta'limning dastlabki bosqichlaridan boshlab usul sezgisini tarbiyalab borish zarur. Bunda berilgan kuyni xirgoyi (solfedjio) usulida dirijyorlik qilib kuylash ularda har bir tovush cho'zimi va tovush

turoqlarining tashkiliy tuzilishi (duol, triol, kvartol, sekstol va boshqalar) haqida aniq tasavvur hosil qilishda katta zamin yaratadi. Ayniqsa O‘zbekiston davlat konservatoriyasida solfedjio fanidan dars beradigan tajribali o‘qituvchilarning mashg‘ulotlarida xalq kuylari va maqom usullarini talabalarga doirada yoki stol chetiga chertgan holda solfedjio qilib kuylatish malakalari ritmik jihatdan murakkab bo‘lgan milliy musiqa va maqomlarni o‘zlashtirishda katta ahamiyatga ega ekanligini namayon etmoqda.

O‘quvchilarda ijrochilik vazifalarining murakkablashib borgani sari usul sezgisi rivojlana boradi. Buning natijasida ularda erkin fikrlash, asarni o‘zicha erkin talqin qilishga moyillik seziladi. Bunda u o‘qituvchi yordamida **Rubato** – (lotincha – o‘g‘irlangan, notalarning cho‘zim miqdori aniq saqlanmagani holda ijrochining xohishi bo‘yicha kengaytirib yoki qisqartirib ijro qilish) va **Agogika** – (lotincha – yurgizish, ergashtirish. Musiqa ijrochiligidagi badiiy niyatni ko‘zlab asar sur‘atini biroz o‘zgartirish, ya‘ni tezlatish yoki sekinlatish) o‘zgarishlarini qo‘llay olish malakalarini egallaydi. Bulardan tashqari o‘quvchining orkestr va ansambllarda qatnashishi, fortepiano va zarbli cholg‘ular jo‘rligida hamohang bo‘lib ijro etishi, yonidagi jo‘rnavozni yaqindan his qilishi usul sezgisini shakllantirish va mustahkamlashning eng muhim shartlaridan hisoblanadi.

### ***Qaytarish uchun savollar:***

1. Musiqiy eshitishning qanday turlari bor?
2. Mutlaq (absolyut) eshitish bilan qiyosiy eshitishning farqini ayting?
3. Xotiraning qaysi turlarini bilasiz?
4. Musiqiy asarni yod olishda xotirani chiniqtirish yo‘llarini bilasizmi?
5. Usul sezgisini o‘lchov va ritm bilan aloqasi bormi?
6. **Rubato** va **Agogika** atamalarini izohlang.

## **O‘QUVCHINING MUSIQA SAN‘ATIGA VA TAVSIYA QILINGAN CHOLG‘UGA BO‘LGAN MUNOSABATINI TARBIIYALASH**

Damli cholg‘ularda o‘qish istagini bildirgan nomzodning to‘g‘ri tanlanganligiga muallimning ishonchi hosil bo‘lishi uchun bolaning jismoniy rivojlanishini va cholg‘u asbobiga to‘g‘ri tavsiya qilinganligini takroran tekshirib u bilan suhbatlar o‘tkazishi maqsadga muvofiqdir. O‘qituvchi shogirdining mazkur cholg‘uni tanlagani va unda o‘qib ketishiga ko‘zi yetgandan keyingina o‘quvchini cholg‘uning tuzilishi, sozlanishi va bo‘laklari bilan tanishtiradi va unga cholg‘u asbobi anjomlari (mundshtuk, trost, baraban

va ksilofon choʻplari va hk.) tanlashga kirishadi. Birinchi mashgʻulotlarni cholgʻu asbobining imkoniyatlarini namoyish qiladigan milliy yorqin kuylarni chalib berish orqali oʻquvchini qiziqtirish hamda mazkur cholgʻu haqida qiziqarli hikoya qilib berish bilan boshlaydi. Agarda oʻquvchi avvalida ana shu cholgʻuda oʻqigan va maʼlum malakalarni egallagan boʻlsa bunda ish yanada oson kechadi.

Oʻqituvchining bosh vazifasi shogirdida mutaxassislik darsiga va tanlagan cholgʻu asbobiga nisbatan muhabbat uygʻotishdir. U oʻquvchini qiziqtirish va taʼsir qilish orqali undagi ruhiy jarayonni (qabul qilish, diqqat, xotira qobiliyati, fikrlash va h.k.) faollashtiradi. Bunda muallimning mutaxassislik sinfida oʻzi ijro qilib koʻrsatishi, konsertlarda chiqishi, ochiq dars oʻtishi, sinf konsertlari berishi, nota adabiyotlarining rang-baranglaridan tanlab oʻrgatishi, “muammoli dars” oʻtishi kabi omillarning ahamiyati juda katta.

Darsda yuqori kurs talabalari ijrosini quyi kursdagilar kirib tinglashlari va buning teskarisini qoʻllanilishi ham katta samara beradi. Talabada oʻqituvchilik malakalari va koʻnikmalari shakllana boradi hamda u pedagogik amaliyotning birinchi pogʻonalarini his qilish imkoniyatiga ega boʻladi. Ayniqsa mashhur ijrochilar chalgan magnit va mexanik yozuvlar CD va DVD disklarni eshitish hamda koʻrish, ularning konsertlariga borib jonli ijrolaridan bahramand boʻlish, uchrashuvlarda oʻzlari bilan muloqotda boʻlish oʻquvchi uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Oʻqituvchi talabaga repertuar tanlashda har bir shogirdning shaxsiy xususiyatlarini, uning xohishi, qiziqishi va imkoniyatlarini hisobga olgan holda ish yuritishi lozim. Ayniqsa milliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda qadimgi ustozona taʼlim berish yoʻllari va ilgʻor metodologiyalarga asoslangan turli uslublardan foydalanish ishning muvaffaqiyatini taʼminlaydi.

### ***Qaytarish uchun savollar:***

1. Bolani qiziqtirish va taʼsir qilish uchun qanday faoliyat olib borish kerak?
2. Buning uchun muallim mutaxassislik sinfida qanday yoʻl tutishi kerak?
3. Repertuar tanlashda oʻqituvchi nimalarga eʼtibor qaratmogʻi lozim?

## **OʻQUVCHINING CHOLGʻU ASBOBIGA KOʻNIKISH HOLATINING UMUMIY VAZIFALARI**

Oʻquvchining tavsiya qilingan cholgʻuga koʻnikish hosil qilishi murakkab jismoniy va ruhiy jarayon boʻlib, bunda har bir oʻquvchiga mustaqil yondashish talab etiladi. Taʼlimning dastlabki mashgʻulotlaridan boshlab shogirdga cholgʻu

asbobi, unga mos anjom (mundshtuk, trost, shtift, es «S» va h.k)lar tanlash juda muhim. Yaxshi tanlangan cholgʻu keyingi muvaffaqiyatlar garovi boʻlib, uni toʻgʻri ushlab va ijro holati paytida butun tana aʼzolari, mushaklarni erkin tutish va doimo ustoz nazorati ostida boʻlish zarur. Bu davrda oʻquvchilarda yengil va bemaol chalishga ruhiy koʻnikmalar hosil qilinadi. Bosh, gavda, qoʻl va oyoqlarni erkin tutish, oʻtirib chalgan paytda oyoqlarni chalishtirmaslik malakalari singdiriladi. Oʻquvchining jagʻ suyaklari va tishlarning har xil rivojlanganligi natijasida cholgʻuni ushlab holati har bolada turlicha boʻlishi mumkin. Bunda tishlarning notekisligi natijasida mis cholgʻularni chap yoki oʻng tomonga qiyshaytirib ushlashi, jagʻ suyaklarining shakllanishiga qarab koʻproq yuqoriga yoki pastga qaratib ushlab holatlari kuzatiladi. Ijrochilik tajribasida bunday oʻquvchilarga ustozning tavsiyasiga qarab turli shakldagi mundshtuklar tanlanadi. Kezi kelganda ular maxsus buyurtma orqali yasatiladi va oʻquvchining imkoniga moslangan holda qoʻllaniladi.

Ijrochilik nafasini toʻgʻri yoʻlga qoʻyishda oʻquvchi nafas olganda oʻpkaning pastki qismlari toʻlishini sezishi uchun oldin uni stolga yotqizgan holda tabiiy nafas oldirish va diafragma ishini tushuntirish, soʻngra ikkala qoʻl barmoqlari (koʻrsatkich, oʻrta, nomsiz, jimjiloq)ni qorin va bosh barmoqlarni biqiniga qoʻygan holda nafas olish va asta sekin chiqarish mashqlarini bajartirish maqsadga muvofiq. Bunda shogirdning oʻpka qopchalarini pastdan toʻlishi, diafragma mushaklari kengayishi va qisqarishini oʻz tanasi va barmoqlari orqali sezadi, koʻradi va kelgusida shunga amal qiladi.

Xususan oʻquvchiga audio, video yozuvlar va ulardan qanday foydalanish, mashhur sozandalar ijrolarini yigʻish va muntazam tinglab borish, shogird bilan ularning ijrolari toʻgʻrisida mulohaza va muhokamalar yuritish taʼlimda juda yaxshi samara berishi muqarrar.

### ***Qaytarish uchun savollar:***

1. Cholgʻu asbobiga koʻnikish qanday jarayon?
2. Oʻquvchilarda yengil va bemaol chalishga ruhiy koʻnikmalar qaysi yoʻl bilan hosil qilinadi?
3. Oʻtirib chalgan paytdagi holatni izohlang.
4. Jagʻ suyaklari va tishlarning har xil rivojlanganligi natijasida cholgʻu holatining qanday muammolari mavjud?

## IJRO MAHORATI USTIDA ISHLASHNING UMUMIY YO‘LLARI


Musiqiy pedagogika tajribasida o‘quvchining musiqiy va ijrochilik jihatlarini bir-biri bilan bog‘lagan holda rivojlantirish muhim shartlardandir. Ularni farqini bilish uchun avval ijrochilik mahoratiga oid jihatlarini ko‘rib chiqamiz. Bularga:

- a) ijrochi lablarining ishi;
- b) ijrochilik nafasi;
- v) tilning harakati;
- g) barmoqlar harakati va ularni rivojlantiruvchi omillar kiradi.

Ushbu omillar ham turlicha bo‘lib, birinchi navbatda ularni rivojlantirish uchun cho‘zimli tovushlarni har kuni ertalab chalish maqsadga muvofiqdir. Quyida M.I.Tabakov, M.A.Ivanov va S.V.Rozanovlar tavsiya qilgan cho‘zimli tovushlardan namunalar keltiramiz:

Mashg‘ulotning birinchi kuni har bir tovushni ff da  
Ikkinchi kuni pp ff pp  
Uchinchi kuni pp da chalish zarur

Mashg'ulotning birinchi kuni har bir tovushni ff da  
 Ikkinchi kuni pp ff pp  
 Uchinchi kuni pp da chalish zarur



Mashg'ulotning birinchi kuni har bir tovushni ff da  
 Ikkinchi kuni pp ff pp  
 Uchinchi kuni pp da chalish zarur

Gamma deganda turli mashqlar, ya'ni gammalar, arpedjio, uch tovushliklar, dominantseptakkordlar, kichik hamda yetakchi septakkordlar va ularning aylanmalari tushuniladi.

Ijrochilarda ko'p yillik o'qish va o'qitish tajribalari davomida gammalar chalish tamoyillari shakllanib qoladi va ular o'z an'alariga ega. Bu tamoyillar quyidagilardan iborat:

a) gammalarning turlari diatonik, major, minor, tabiiy, garmonik, melodik, xromatik va butun tonlardan tuzilganlari; b) barcha gammalarning asosiy pardalaridan tuzilgan uch tovushliklari va ularning aylanmalari, D7 va uning aylanmalari, kichraytirilgan yetakchi VII7 va uning aylanmalari hamda ularning asosiy tonlikka yechilishi;

v) gamma chalishda cholg'u asbobining to'liq tovush ko'lami (diapozoni)ni qamrab olinishi;

g) har xil ritmik ko'rinishda, ya'ni gamma ikki oktava chalinsa kvartollar bilan, ikki yarim yoki uch oktava chalinsa triollar bilan shakllanishi;

Arpedjiolar ikki va uch oktava oralig'ida triollar bilan, ikki yarim oktava oralig'ida kvartollar bilan, D7 va kich. VII7 lar ikki va uch oktava oralig'ida kvartollar (ikki yarim oktava oralig'ida chalinmaydi) bilan chalinadi.

Asosiy tonlik arpedjiosi aylanmalari triol va kvartol shaklida ham chalinadi. D7 va kich. VII7 lar esa kvartol shaklida ijro qilinadi;

d) gammalarni detache, legato, staccato, marcato, portato kabi turli shtrixlarda ifodalash;

e) *f*, *p*, *sf*, *fp* kabi har xil dinamik belgilar bilan chalish;

j) turli applikatorani qo'llagan holda ijro etish bilan ijrochilik mahorati rivojlantiriladi.

Gamma chalishning yuqorida ko'rsatilgan tamoyillari O'zbekiston Davlat konservatoriyasi professori, damli va zarbli cholg'ular kafedrasini mudiri, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist B.S.Salixovning «Klarnet» darsligida o'z aksini topgan. (-T., G'.G'ulom nashriyoti, 2002). Quyida ushbu darslikdan namunalari keltiramiz:

# Do major

1 ch o' ch

2

3

4

5

6

7

8

9

10

11

12 ch o' ch o'

13

14 va hk.

va hk.

o'

o'

**Iya minor**

ch o'



Gamma chalishdan asosiy maqsad tovush intonatsiyasining tozaligi va sofligini yaxshilash ustida ishlash, til zarbining tezligini oshirish, nafas texnikasini rivojlantirish, shtrixlarni aniq shakllantirish, izchil tovushlarning ritm jihatidan bir tekisda, ravon mutanosib kelishini ta'minlashdan iboratdir.

Taniqli trubachi ustoz, professor V.F.Po'latov tomonidan saksoninchi yillarda o'rta maxsus o'quv yurtlari o'quvchilari o'rtasidagi Respublika tanlovining birinchi bosqichida gamma va etyudlar chalish tanlovining asosiy shartlaridan biri sifatida qo'yilgan edi. Buning natijasida o'sha paytdagi barcha qatnashchilarda texnik mahorat masalasida sezilarli siljish bo'lganligi hozirgacha e'tirof etib kelinadi.

Ijrochilik mahoratini rivojlantirishda nafaqat gammalar balki mashqlarning ham ahamiyati katta bo'lib, bunda intervallari keng, sakrashli, barmoqlar uchun noqulay applikatorani o'zlashtirish, murakkab usulli aylanmali, har xil bezaklarni qo'llash uchun mo'ljallangan mashqlar katta rol o'ynaydi.

Etyudlarning mashqlardan farqi shundan iboratki, ular ikki xil ya'ni, texnik va badiiy maqsadni ko'zlab yaratilgan bo'ladi. Texnik etyudlar cholg'u sozining murakkab va qo'shimcha applikatorasini o'zlashtirish, shtrixlarni mohirona ijro qilish va umumiy texnik mahoratni oshirish maqsadida yozilgan bo'lsa, badiiy etyudlar ijrochilik mahoratini ma'lum jihatlarini, ya'ni ko'proq badiiy tomonlarini rivojlantirish uchun yaratilgan bo'ladi. Shuningdek, badiiy konsert ijrochilik maqsadini ko'zlab ijod qilingan etyudlar ham ko'plab uchraydi. Bularga Shopen, List, Skryabin, Raxmaninovlarning fortepiano uchun, Paganinining skripka uchun, Gedike, Tsibin, Helokov, Mostras va boshqalarning damli cholg'ular uchun yozilgan etyudlarini misol qilib keltirish mumkin.

Mashg'ulotlar davomida ustoz shogirdiga etyudlarning asosiy uslubiy yo'nalishini aniq belgilab, ma'lum bir maqsadni ko'zlagan holda yozilganligini

tushuntirishi lozim. Bunda ijrochilik mahorati badiiy asarning mazmunini ochishdagi maqsad emas balki vosita ekanligini o'quvchilar tushunib yetmog'i kerak.

O'quvchining mustaqil tayyorlanishida ijrochilik texnikasini rivojlantiruvchi mashg'ulot uchun vaqtni to'g'ri taqsimlashi ham katta ahamiyatga ega.

### ***Qaytarish uchun savollar:***

1. Ijrochilik mahorati deganda nimani tushunasiz?
2. Gamma deganda qanday mashqlar tushuniladi va qay tarzda chalinadi?
3. Gamma chalishdan asosiy maqsad nima?
4. Mashqlarning ijrochilik mahoratini rivojlantirishda qanday o'rni bor?
5. Etyudlarning mashqlardan farqi bormi?
6. Ijrochilik mahoratini rivojlantiruvchi mustaqil mashg'ulot uchun vaqtni qanday taqsimlash kerak?

## **MUSIQIY ASARLAR USTIDA ISHLASHNING UMUMIY YO'LLARI**

Har bir sozandaning musiqiy asar ustida ishlashi o'ziga xos bo'lib, ushbu jarayonga har kim o'zicha yondoshadi. Ammo musiqiy asarlar ustida ishlash jarayonining yillar davomida shakllangan barcha uchun umumiy tomonlari mavjud. Buni asosan uch bosqichga taqsimlash mumkin.

**Birinchi bosqich** – musiqiy asar bilan tanishuv va ijrochilik rejasini shakllantirish bo'lib, ustozona tajribaga asoslanadigan bo'lsak, dastlab asar bilan tanishib umumiy tasavvur hosil qilinadi. Undan keyin esa ijrochilik rejasini shakllanadi. Ijrochilik rejasini quyidagilarda o'z aksini topadi.

Ob'ektiv yondashuv:

- a) asarning qaysi turga mansubligi janri (oddiy kuy, rapsodiya, poema, romans, marsh, vals, raqs va h.k.);
- b) asar tonligini aniqlash;
- v) uning shakli (bir qismli, ko'p qismli, sonata, syuita, rondo, variatsiya, kanon, fuga, invensiya va h.k.);
- g) qismlarining qiyofasi (obrazi) va xarakteri (quvnoq, g'amgin, qaxramonona, hazil va h.k.);
- d) qaysi davrda yozilganligi, ohang va garmonik tili, uslubi va kompozitor ijodiga qisqacha ta'rif;
- e) mazkur asarni chalishda shakllangan an'analar.

Sub'ektiv yondashuv:

a) talabanning ijrochilik temperamenti (lirik, romantik, qayg'uli, melanxolik xarakterdagi asarlarni chalishga moyilligi);

b) talabanning obrazli fikrlashi va ijodiy hayoloti;

v) talabanning asar muallifiga bo'lgan munosabati (u bilan qiziqishi, uning haqida ko'p narsani bilishi, befarqligi).

Shuningdek, yangi asarni o'rganishda o'qituvchining tutadigan yo'li, o'qituvchi va talaba fikrining bir maqsadga yo'naltirilishi katta ahamiyatga egadir.

**Ikkinchi bosqich** – asarni ijro qilish rejasini amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, eng muhim bosqich hisoblanadi. Bunda kuy matni aniqlanadi, asosiy ijrochilik va badiiy vositalar ko'rib chiqiladi. Chunki o'sha vositalar yordamida asar mazmuni va mohiyati ochib beriladi. Musiqiy asarlar ustida ishlashda kuy rivoji va undagi jumlarlar, davriyalar, avjlar (kulminatsiya), kuy qismlari va boshqa tayanch nuqtalar aniq belgilanadi. Ularning qaysi biri yetakchi yoki yordamchi bo'lishi musiqaning xarakteri va vazifalariga bog'liq. Shuningdek asarning texnik jihatdan sadolanishi, murakkab va qiyin joylari belgilanib olinadi va bo'laklarga bo'lib nota bilan xususiylikdan umumiylikka va umumiylikdan xususiylikka qarab xatosiz o'rganiladi.

Ushbu jarayonda o'z ijrosini eshitgan holda tanqidiy baholash, qiyin joylarini sekin sur'atda chalish tavsiya etiladi. Ayniqsa texnik jihatdan murakkab bo'laklarini turli shtrix va artikulyatsiyalar vositasida chalish katta yordam berishi mumkin.

Sozanda kichik bo'laklar ustida qancha vaqt qunt bilan ishlamasin, asarni bir butunligini hech qachon esdan chiqarmasligi kerak va ba'zida butunligicha chalib tasavvurini yanada boyitib borishi maqsadga muvofiqdir. Butun ijro davomida esa me'yor tushunchasi ustoz va shogirdning diqqat markazida bo'lmog'i lozim.

**Uchinchi bosqich** – musiqiy asar ustida ishlashning yakuniy bosqichi bo'lib, asarni badiiy maqsadlarini, uning qismlarini, jo'r bo'luvchi ko'p ovozlarni chuqur o'rgangan holda yod olish, badiiy vazifaning pirovard natijalarini aniqlash va o'rganilgan qismlarni bir butun holga keltirish «yig'ish» va ijro ifodasini takomillashtirishdan iborat. Bunda fortepiano jo'rliigi, ayniqsa jo'rnavoz bilan hamohang bir-birini chuqur his qilgan holdagi umumiy bir butun ijroni amalga oshiruvchi bosqich hisoblanadi.

Bu bosqichda muallim mazkur asarni chuqur bilishi, uni ba'zi murakkab joylarini yengillashtirishga harakat qilmasligi lozim. Ya'ni G.G.Neygauz aytganidek «o'quvchiga kuyni emas, balki kuyga o'quvchini moslashtirish»ga erishishi katta ahamiyatga ega. Chunki ba'zi o'qituvchilar asarning ma'lum bir murakkab qismi yoki passajini o'quvchi eplay olmasa olib tashlaydilar (kupyur

qiladilar), avjsiz yoki ana shu qismisiz kuylatadilar yoki chaldiraveradilar. Bunday ijroni to‘laqonli bir butun asar ijrosi deb bo‘lmaydi.

Asarni yod olish jarayonida musiqiy xotiraning barcha turlari: eshitish, ko‘rish, sezgi-harakat, mantiqiy va «qalbdan» yod olish turlari ishga solinadi.

Yod olingandan keyin esa yanada ishonchli bo‘lishi uchun nota matnidan ham chalib ko‘rish, asar magnit yozuvini eshitib tanqidiy baholagan holda xotirada saqlash, boshqa tonlikka ko‘chirilgan (transpozitsiya) holda chalib ko‘rish maqsadga muvofiqdir. To‘g‘ri kelgan – kutilmagan joyidan sinab chalib ko‘rish orqali asar xotirada mustahkamlanadi.

Musiqiy asarlar ustida ishlashda asarning shakli qanday bo‘lishidan qat’iy nazar yuqoridagi tamoyil va bosqichlarga asoslanadi.

### ***Qaytarish uchun savollar:***

1. Musiqiy asarlar ustida ishlashning nechta bosqichi mavjud?
2. Ijrochilik tafakkurining shakllanishi haqida gapiring.
3. Qanday qilib o‘qituvchi va o‘quvchi fikri bir maqsadga yo‘naltiriladi?
4. Asarni ijro qilish rejasi qay tarzda tuziladi?
5. Ijrochilik fikrini amalga oshirish jarayoni qanday davr?
6. Xususiylikdan umumiylikka va umumiylikdan xususiylikka qarab borish deganda nimani tushunasiz?
7. Musiqiy asarlar ustida ishlashda kuyning tayanch nuqtalari qanday aniqlanadi?
8. Musiqiy asar ustida ishlashning yakuniy bosqichi nimadan iborat?
9. O‘quvchiga kuyni emas, balki kuyga o‘quvchini moslashtirish deganda nimani tushunasiz?

## **KICHIK ASARLARNING O‘ZIGA XOSLIGI**

Kichik shakldagi kuylar ustida ishlaganda, ular o‘quvchida kompozitor uslubi, uning yo‘nalishi, musiqiy fikrning ixchamligini aniq va tiniq anglab olinishida katta yordam beradi. Chunki kichik shakldagi asarlar zinapoyaning birinchi pog‘onasi bo‘lsa, uni bosib o‘tgandan keyingina o‘rta pog‘onaga, ya’ni o‘rtacha shakldagi (konsertino, sonatina, syuita) asarlarga qo‘l urish mumkin bo‘ladi. O‘rtacha kuylar esa katta hajmdagi asarlarni o‘rganish uchun bog‘lovchi vazifasini bajaradi.

Misol uchun G‘.Qodirovning «Raqs» kuyini olib ko‘radigan bo‘lsak, uni V.L.Melkomini o‘zining goboy va blok fleytada boshlang‘ich darsligi (Начальная школа обучения игре на гобое и на блокфлейте. –Т., Изд-во Г.Гуляма, 2002) ga kiritgan.

Asar g'ijjak uchun yozilgan raqs xarakteridagi kuy bo'lib, goboyga moslashtirilgan. Kuyning tonligi sol minor, oddiy uch qismli quvnoq ohangda ijro etiladi. Bu raqs asosan g'ijjakchilarning shoh repertuari hisoblanadi. Asar taxminan o'tgan asrning 50-yillarning o'rtalarida kompozitor G'ofur Qodirov tomonidan yozilgan.

Ushbu asarni chalishda o'quvchining temperamenti, uni raqsga bo'lgan munosabati bilan qiziqib ko'riladi. Ayniqsa asarni g'ijjakda chalingan namunasini tinglash maqsadga muvofiq bo'lib, goboyda qanday jaranglashi qiyoslanadi. Shuningdek, mazkur kompozitorning boshqa asarlari bilan ham qiziqib ko'rish tavsiya etiladi.

## Raqs

Allegretto

G'ofur Qodirov

The musical score is presented in three systems, each with a vocal line and a piano accompaniment. The key signature is one flat (sol minor) and the time signature is 2/4. The tempo is marked 'Allegretto'. The first system begins with a mezzo-forte (*mf*) dynamic and concludes with a piano (*p*) dynamic. The second system also starts with *mf* and ends with a repeat sign. The third system includes first and second endings, starting with *p* and ending with a repeat sign. The score is rich with musical notation, including slurs, ties, and various dynamic markings.

Yirik asarlar, ya'ni sonata va konsertlarni ijro qilish uchun, faqatgina kichik asarlarni o'rganish kifoya qilmaydi, albatta. Buning uchun kichik shakldagi asarlar bilan birgalikda o'rtacha kattalikdagi konsertino, sonatina, konsert syuitasi kabi asarlarni chalish maqsadga muvofiqdir.

Bunday asarlar o'z tuzilishiga ko'ra yirik shakldagi asarlarni eslatadi. Ammo shakli jihatidan ularga qaraganda ixchamdir.

Asosan klassik konsertino va sonatina sonata allegrosi shaklida yoziladi. Ushbu janrlarning zamonviy talqini ancha erkin shaklda, ya'ni variatsiya, rondo va h.k. shakllarda yaratilmoqda. Bunday asarlar o'rtacha shakldan ham murakkabroq bo'lib, sozandadan muayyan professionallikni hamda yuksak musiqiy mahoratni talab qiladi.

O'rtacha shakldagi asarlar ustida ishlashda ham kichik, ham yirik shaklga aloqador bo'lgan tamoyillar o'zlashtirilib, konsert va sonata ustida ishlashga sozandani tayyorlaydi. Misol sifatida O'zbekiston Davlat konservatoriyasi professori, damli va zarbli cholg'ular kafedrasini mudiri, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist B.S.Salixovning «Klarnet» darsligidan joy olgan Po'lat Hoshimovich Xoliqovning klarnet va fortepiano uchun «Konsertino» va unga berilgan izohlardan namunalari keltiramiz.

Konsertino Sharq kuylari asosida yaratilgan bo'lib, fa major tonligida yozilgan. Asar uch qismdan iborat. Ijro davomida uchraydigan alteratsiya belgilari mavjud. Birinchi qism allegro con fuoco sur'atida bo'lib, klarnetning pastki registridan boshlanadi va asta sekin rivojlanib o'rta va yuqori registrlar tomon harakatlanadi. Bunda cholg'uchidan til attakasining aniqligi va yengil stakkato, usulning ravonligiga rioya qilish hamda gulpar (forshlag)ni qisqa chalish talab etiladi.

## Konsertino

*Klarnet va fortepiano uchun*

Allegro con fuoco 1 P.Xoliqov

The musical score consists of two staves. The top staff is for the Clarinet (Klarnet) and the bottom staff is for the Piano (fortepiano). The key signature is one sharp (F#) and the time signature is 2/4. The tempo is marked 'Allegro con fuoco'. The piano part begins with a forte (ff) dynamic, playing chords in the right hand and a rhythmic accompaniment in the left hand. The clarinet part enters with a first ending bracket and a forte (f) dynamic, playing a melodic line.

First system of musical notation, featuring a treble clef and a bass clef. The music includes various notes, rests, and dynamic markings such as *dim.* and *p*.

Second system of musical notation, continuing the piece. It includes dynamic markings such as *dim.*, *p*, and *pp*.

Third system of musical notation, starting with a second ending bracket labeled '2'. It includes dynamic markings such as *f* and *mp*.

Birnci qismni o'rtta qism bilan kichik kadensiya va repriza bog'laydi.

Andante

Tr-ne I

Fourth system of musical notation, including dynamic markings such as *ff*, *p*, and *f*, and performance instructions like *poco a poco rit.* and *allargando*.

4 Allegro

O'rt'a qism Andante sol bemol major tonligida bo'lib, klarnetning so'lim va sokin ohangini namayon qilishni talab etadi. Unda uchtalik va beshtalik ritm turoqlarni chalish paytida usulni buzmasdan hamda beshtalik turoqni bo'lmasdan chalish tavsiya etiladi.

Andante

Konsertino uchinchi qismining final bo'lagi vivo sur'atida bo'lib, klarnetning yuqori registridagi uchinchi oktava Sol, Lya bemol tovushlari aniq jaranglashi talab qilinadi. Bunda applikatoraning to'g'ri tanlanishi muhim ahamiyatga ega.

14 Vivo



O‘zbek kompozitorlari ichida o‘rtacha shakldagi asarlar ijod qilganlardan G.Mushel, S.Boboyev, F.Nazarov, P.Xoliqov, T.Qurbonov, M.Bafoyev va boshqalarni keltirib o‘tish mumkin.

### ***Qaytarish uchun savollar:***

1. Kichik shakldagi kuylar ustida ishlashning qanday o‘ziga xosligi bor?
2. O‘rtacha shakldagi (konsertino, sonatina, syuita) kuylar katta hajmdagi asarlarni o‘rganishda qanday vazifani bajaradi?

## **YIRIK SHAKLDAGI ASARLARNING O‘ZIGA XOSLIGI, SONATA VA KONSERT TURLARI**

Yuksak ijrochilik darajasiga yirik musiqiy asarlar ustida qunt bilan ishlagandagina yetishish mumkin. Chunki ushbu jarayonda ijrochi oldida musiqiy tafakkur, ijrochilik madaniyati, musiqiy did va ijrochilik mahoratiga oid mohiyati jihatidan turli tuman musiqiy murakkabliklar paydo bo‘ladi.

Yirik shakldagi asarlar haqida gapirganda daslab cholg‘u musiqasi ijodkorligining yetuk shakli bo‘lgan, tugal, chuqur va murakkab jarayonlarni rivojlantiruvchi **sonata** to‘g‘risida so‘z ochgan ma‘qul.

Sonata cholgʻu musiqasining yirik shakldagi asari sifatida buyuk polifoniyachilar G.Gendel va I.S.Bax ijodida salmoqli oʻrin egallaydi. Sonata XVIII asrga kelib yetildi va oʻz oʻrnini topdi.

Sonata Vena klassiklari (Gaydn, Motsart, Betxoven) cholgʻu asarlarining yetakchi shakllaridan biri boʻlib qoldi.

Sonataning keyingi rivojini Shubert, Shuman, List, Brams, rus kompozitorlaridan Glinka, Chaykovskiy, Borodin, Skryabin, Raxmaninov va shuningdek XX asr kompozitorlaridan Onegger, Bartok, Pulenk, Xindemit, Myaskovskiy, Prokofyev, Shostakovich, oʻzbek kompozitorlaridan G.Mushel, T.Qurbonov va boshqalarning ijodida kuzatamiz.

Sonata tarixiy rivojlanishi davomida oʻzining mazmuni, garmonik tili, kuy yoʻnalishi, metroritmi kabi nafaqat ichki jihatlar balki, tashqi, yaʼni qismlari va shaklining butun tuzilishi bilan ham qisman oʻzgarishlarga uchradi.

Yirik asarlardan **konsert** musiqiy cholgʻu asbobi ifoda vositalarining turli jihatlarini va sozandaning mahoratini yaqqol ochib beradigan janrlardan hisoblanadi.

Konsert janri XVII asr oxiriga kelib gomofon musiqaning paydo boʻlishi bilan, yaʼni joʻrnavor orkestrga hamohang holda yakkaxon cholgʻuni koʻrsatish zarurligi natijasida yaratila boshlandi.

Klassik va zamonaviy konsertlarning eng yaxshilarida fikrning keng koʻlamliliigi, musiqiy obrazlarning yorqinligi, kuyning jozibasi, mavzuning simfonik tarzdgagi rivoji, orkestr va yakkaxonning bir biri bilan yuksak mahoratli muloqoti kabi sifatlar kuzatiladi. Bularga Betxovenning fortepiano uchun beshta, skripka uchun bitta konserti, Mendelson, Chaykovskiy va Xachaturyanlarning fortepiano uchun, Brams, List, Shuman, Grig, Chaykovskiy, Raxmaninov va Prokofyevlarning violonchel uchun, Dvorjak hamda Shostakovichlarning simfoniya-konsertlari va boshqalarni keltirib oʻtish mumkin.

Damli cholgʻular uchun konsert asarlari boshqa cholgʻularda boʻlganidek asrlar davomida rivojlanib keldi va oʻz takomilini topdi. Klassik va undan oldingi davr kompozitorlari tomonidan damli cholgʻular uchun koʻplab konsertlar yozilganini koʻramiz. Bular ichida cholgʻu janrining yaratuvchilaridan Antonio Vivaldi (1678-1741) fleyta uchun oʻn oltita, goboy uchun oʻn bitta, fagot uchun oʻttiz sakkizta, bulardan tashqari valtorna va truba uchun konsertlar yozgan. U hammasi boʻlib yuzdan ortiq konsertlar ijod qilgan. Uning konsertlari uch qisimli boʻlib, birinchi qism tez surʼatda, ikkinchi qismi sekin, osoyishta, uchinchi qism esa yana tez surʼatda yozilgan.

Cholgʻu konsertlarining klassik turini yaratuvchisi V.A.Motsart hisoblanadi. U fortepianoga yigirmadan ortiq, skripka uchun oltita, damli cholgʻular va orkestr uchun toʻqqizta konsertlar yozgan. Damli cholgʻular uchun

yoʻzgan konsertlari uch qisimli sonato-simfonik turkumni tashkil qiladi. Birinchi qism odatda sonata allegro shaklida yozilgan. U qismning oxirida kadensiya berilgan.

Ikkinchi qismlari asosan kuychan andante va oddiy uch qismdan tashkil topgan. Yakuniy qismi esa tez sur'atda, yengil, jozibador, rondo shaklida ijod qilingan.

Betxoven ijodida konsert simfoniya janriga yaqinlashadi va yanada rivojlanadi.

Romantizm davriga kelib konsertning ahamiyati yanada ko'tariladi. Romantik kompozitorlar Motsart va Betxoven an'alarini rivojlantirishga harakat qiladilar. Ulardan Veberning o'zi klarnet uchun (mi-bemol major va fa minor) ikkita konsert, fagot uchun (fa minor) konsert, klarnet uchun «Katta konsert dueti» (mi-bemol major)larini yaratadi.

XX asrda konsert janri rivojiga impressionist kompozitor (Debyussi, Ravel) lar va shuningdek, Stravinskiy, Prokofyev, Shostakovich, Aram Xachaturyan kabi ijodkorlar katta hissa qo'shdilar.

O'zbek kompozitorlari ichida damli cholg'ular uchun yirik asarlar yaratgan kompozitorlardan B.Zeydman fleyta, klarnet va simfonik orkestr uchun qo'shaloq konsert, S.Abramova goboy va fortepiano uchun konsert, E.Shvarts Sonata, P.Xoliqov konsert, **S.Karim-Xojining** truba va fortepiano uchun ikkita konserti, F.Yanov-Yanovskiyning truba va fortepiano uchun konserti, S.Anvarov va boshqa kompozitorlar tomonidan yaratilgan asarlarni keltirib o'tish mumkin.

### ***Qaytarish uchun savollar:***

1. Yirik shakldagi asarlarga qanday kuylar kiradi?
2. O'zbekiston kompozitorlari ichida damli cholg'ular uchun yirik shakldagi asarlar yaratganlari bormi?

## **ORKESTR VA ANSAMBL ASARLARI USTIDA ISHLASH, NOTA O'QISH MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI**

Musiqiy oliy o'quv yurtlari bakalavr bosqichini bitiruvchilariga boshqa ixtisosliklar qatori orkestr artisti, (yakkaxoni, ansambl ijrochisi) ixtisosligi ham beriladi. Shuning uchun ta'lim jarayonida ko'pchilik bo'lib, ya'ni jamoa shaklida orkestr va ansamblarda chalishga o'rganish talaba uchun katta ahamiyatga ega. Orkestr va ansambl ijrochiligida talabada yonidagi hamkasblarini har tomonlama sezish, ular bilan hamnafaslikni – jo'rnavoqlikni

his qilish va hamohang bo'lib chalish malakalari shakllanadi. Orkestr va ansambl ishtirokchisi bo'lgan talabaning oldida qator vazifalar turadi. Oldin u kuylarni faqat jo'rnavoz bilan jo'rlikda chalib ko'rgan bo'lsa, endi katta bir jamoa orasida ular bilan bir tan, bir jon bo'lib ijro qilishi, bunda barcha teng, barobar ekanligi va doimo dirijyor nazoratida bo'lishi kerakligini hech qachon esdan chiqarmasligi zarurligi uqtiriladi.

Talaba orkestr va ansamblalarda qatnasha boshlashi bilan o'z partiyasini yonidagi sheriklari qatori chalishi, barcha murakkabliklarni yengib o'tishi kerak. Bunda mutaxassislik fani muallimi va jo'rnavozning roli katta. Ular talabaga sinf mashg'ulotlarida:

a) orkestr va ansambl a'zosi jamoa ijrosini bir butun va o'z partiyasini shu sozning bir bo'lagi deb bilishi;

b) orkestr va ansambl ishtirokchisi o'z partiyasi xarakteri, sadolanishi, tovush kuchi va sozining tozaligi (intonatsiya) va boshqa sifatlarini ansambl cholg'ularining boshqa ovozlari moslab olib borishi;

v) jumalarni ijro etishda mohirlik, yetakchi va jo'r bo'luvchi ovozlari almashinishini tez fahmlashi hamda shunga munosib ijro malakalarni singdirishi zarur. Ayniqsa damli cholg'ularga xos bo'lgan ijrochilik nafasi, tovush cho'zimi, uning tozaligini har doim eshitish nazorati orqali boshqarib borishi va shaxsiy usul sezgisini jamoa usul sezgisiga bo'ysundirishi va moslashi katta ahamiyatga ega.

Talabaning savodliligi, ya'ni nota o'qish malakalarini yaxshi egallaganligi, jamoa bo'lib ijro qilishning muhim shartlaridan biridir. Bunda oddiydan murakkabga qarab borish, sinfda va mustaqil mashg'ulotlarda izchillik, muntazamlilik hamda doimo muallimning e'tibori muhim rol o'ynaydi.

Nota o'qish malakalarini rivojlantirishda orkestr va ansambl adabiyotlarini jamoa mashg'uloti tugagandan keyin ham mustaqil chalish, asarning qiyin joylarini qunt va chidam bilan erinmasdan o'rganish zarur. Ayniqsa o'qituvchi talabaga notanish asarni notadan o'qishni topshirsa u notani o'qishi davomida kuy oxirigacha xato qilsa ham uni to'xtatish yaramaydi. Chunki talaba to'xtamasdan tez o'qishga o'rganishi zarur. Kuyni oxirigacha chalib bo'lganidan keyin esa talabaga xatolari tushuntiriladi va mashg'ulot boshidan yana shu tarzda davom ettiriladi. Bunda talaba iloji boricha kamroq xato qilishi uchun quyidagicha yo'l tutish kerak:

a) yangi kuy matnini ko'rib tanishish, uning tonligini anglash, metroritmik tuzilishi, dinamikasi, shtrixlari, asarning xarakteri va maqsadini (etyud, mashq va h.k.) bir qarashda aniqlash;

b) chalinishi murakkab bo'lgan joylarini hisobga olgan holda sur'at tezligini (vaqtinchalik) belgilash;

v) talabani nota matnini to'liq qamrab olishga (ko'rinishi, mazmuni) undash, bunda uning diqqati chalinayotgan bir notaga emas, bir necha nota oldinga, hatto bir necha takt oldinga qaratilishi zarur.

Talabani nota o'qish malakalarini oshirish uchun orkestr asarlaridan olingan ijrochi uchun murakkab qismlarini chalish, shuningdek, o'quvchiga tanish kuylarni boshqa pardadan (transpozitsiya) ijro qilish ham ushbu malakani yanada takomillashtiradi.

### ***Qaytarish uchun savollar:***

1. Orkestr va ansambl kuylari ustida ishlashda mutaxassislik bo'yicha muallim va jo'rnovozning roli qanday?
2. Ansambl ijrochiligidagi sozanda qanday malakalarni egallaydi?
3. Nota o'qish jamoa bo'lib ijro qilishning qanday shartlaridan hisoblanadi?
4. Nota o'qish malakalarini rivojlantirishda boshqa pardadan (transpozitsiya qilib) chaldirishning ahamiyati bormi?

## **TA'LIMNING TURLI BOSQICHLARIDA DARS O'TISH USLUBI**

Qadim-qadimlardan barcha xalqlarda sozandani tarbiyalab yetishtirish juda murakkab ish bo'lib, yakka holda, ustoz-shogird uslubida olib borilgan. Ayniqsa Sharq xalqlarida bunga katta e'tibor bilan qaralgan. Ushbu an'ana asrlar sinovidan o'tib bizgacha yetib kelgan va hozirgi davrda ham eng samarali o'ziga xos uslub sifatida tan olingan.

O'qituvchining yakka holda dars o'tishi, ya'ni har bir o'quvchi va talabaga alohida yondoshishi, individual shaxsni tarbiyalash, uni har tomonlama kamol toptirish ustozdan juda katta ma'suliyatni talab qiladi. Shuning uchun ham u darsga tayyorlanishi va darsni rejalashtirishi juda muhim jarayon hisoblanadi. Bunda u qo'l ostidagi notalarni ko'zdan kechirishi va lozim bo'lsa tahrir qilishi kerak. Har bir o'quvchining shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda uslubiy va nota adabiyotlarini ko'rib chiqishi zarur. Mashg'ulot jarayoni esa quyidagi uch bosqichda amalga oshiriladi:

- a) uyga berilgan vazifani tekshirish;
- b) yangi o'rganiladigan asar yoki avvalgi darslarda boshlangan kuyning davomi bilan tanishish;
- v) uy vazifasi ustida mustaqil ishlash yo'l-yo'riqlarini o'qituvchining o'zi chalib ko'rsatishi maqsadga muvofiqdir.

Darslarda turli sinf va bosqich o'quvchilari tinglovchi sifatida qatnashishi ularning pedagogik malakasi, saviyasi va mustaqil fikrlashini yanada oshiradi.

Ayniqsa «Muammoli o‘qitish» ya’ni asar mazmunini mustaqil talqin qilishda talabanning erkin musiqiy fikrlashini shakllantirish o‘qituvchining asosiy vazifalaridan biridir.

Hech bir ilg‘or uslub, darslik yoki dastur darsni samarali va qiziqarli olib boradigan o‘qituvchining o‘rnini bosa olmaydi albatta. Shuning uchun ham sozandani va umuman insonni tarbiyalashda o‘qituvchi-ustozning o‘rni beqiyos. Ijodiy sohada, ayniqsa musiqiy yo‘nalishda o‘qituvchi va uning dars o‘tish uslubi ta’limning oxirgi natijalariga hamda yetkazib chiqarayotgan shogirdlarining sifatiga qarab belgilanadi.

### ***Qaytarish uchun savollar:***

1. Sozandaga yakka dars o‘tishning o‘ziga xosligi va afzalliklari haqida gapiring.
2. Mashg‘ulot jarayonining uch bosqichi nimalardan iborat?
3. Darslarda boshqa sinf o‘quvchilarini tinglovchi sifatida qatnashishiga qanday qaraysiz?
4. Muammoli o‘qitishdan maqsad nima?
5. Qaysidir bir ilg‘or uslub, darslik yoki dastur mashg‘ulotni samarali va qiziqarli olib boradigan o‘qituvchining o‘rnini bosa oladimi?
6. O‘qituvchi va uning dars o‘tish uslubi nimaga qarab baholanadi?

## **UY VAZIFASINI MUSTAQIL BAJARISHNI TO‘G‘RI TASHKIL QILISH**

Barcha hunar sohiblari qatori bo‘lg‘usi sozanda agar o‘z hunarini puxta egallamoqchi va uni san‘at darajasiga yetkazmoqchi bo‘lsa, asosiy mashg‘ulotlardan keyin uyda har kuni mustaqil ravishda mutaxassislikdan kamida to‘rt soat dars tayyorlashi maqsadga muvofiq. Mustaqil mashg‘ulotlarni to‘g‘ri tashkil qilinishi esa berilgan vazifaga ongli yondoshish va mashg‘ulotlar izchilligidan kelib chiqadi.

Ta’limning dastlabki davrlaridan boshlab talabalarni mustaqillikka, topshirilgan vazifani katta mas’uliyat bilan bajarishga va shaxsiy tashabbusini rivojlantirishga o‘rgatish ijodkorlikka va mehnatsevarlikka olib keladi. Bunda uyda tayyorlanadigan dars sinfdagi o‘tkazilgan mashg‘ulotning davomi ekanligini o‘quvchi chuqur anglab yetishi, uning vaqti va davomiyligini talabanning o‘zi mustaqil rejalashtirishi hamda undan samarali foydalanishi zarur. Shu bilan birga mashq qilish va dam olishni to‘g‘ri tashkil etish ham katta ahamiyatga ega.

Talaba uydagi mashg‘ulotlari paytida mashhur ijrochilar, orkestr va ansambllarning turli yozuvlarini to‘plashi va eshitib borishni ham unutmasligi

kerak. Shuningdek, o'z ijrosini magnitofonga yozib olib, uni tanqidiy tahlil qilishi, xatolarini to'g'rilab, ko'ngildagidek chiqqunicha takror yozishi maqsadga muvofiq. Uy vazifasini bajarilishida muallimning ota-onalar bilan doimiy aloqasi juda muhim bo'lib, ular birgalikda o'quvchining uyda muntazam dars tayyorlashini nazorat qilib borishlari katta samara berishi shubhasiz.

Damli cholg'ular kafedrasida talabasi faqat mutaxassislikdan kuniga taxminan to'rt soat mashq qilsa, vaqtni quyidagicha taqsimlashi mumkin: 25-30 minut cho'zimli tovushlarni chalishi; 45 minut gamma va arpedjiolar; 45 minut etyud va mashqlar; 30 minut ansambl va orkestr asarlarini qiyin joylari ustida ishlash; 1 soat 30 minut badiiy musiqiy asarlar ustida ishlashi maqsadga muvofiq. Bunday mashq qilish talaba xohishiga va muallim maslahatiga ko'ra ko'proq ertalab ovqatlananganidan keyin yarim soat, 45 minut o'tgach, asosiy mashg'ulotlarga (7.00 dan 9.00 gacha) texnik mashg'ulotlar va kunning ikkinchi yarmida yoki kechqurun orkestr kuylari va badiiy asarlar ustida ishlagani ma'qul.

### ***Qaytarish uchun savollar:***

1. Berilgan vazifaga ongli yondoshish va mashg'ulotlar izchilligi deganda nimani tushunasiz?

2. Ta'limning dastlabki davrlaridan boshlab o'quvchilarni mustaqillikka, topshirilgan vazifaga mas'uliyat bilan yondashish va shaxsiy tashabbusga o'rgatish qanday ahamiyatga ega?

3. Uyda tayyorlanadigan dars sinfda o'tkazilgan mashg'ulotning davomi bo'la oladimi?

4. Uyda mashq qilishda talabaning vaqti qanday taqsimlanadi?

## **DAMLI CHOLG'ULARDA KONSERT IJROCHILIK XISLATLARINING O'ZIGA XOSLIGI**

Talaba qancha mehnat qilmasin, mehnatining asosiy mahsuli sahnadagi ijrosiga qarab baholanadi. Buning uchun u asarni konsert (imtihon) dan ancha oldin yod olishi, o'zi uni yuqori saviyada ijro qilish uchun jismoniy va ruhiy jihatdan tayyor bo'lishi darkor. Ammo sahnadagi chiqishlar hamma vaqt ham ko'ngildagidek bo'lavermaydi. Buning turli sabablari bo'lib, ulardan biri sahna hayajonidir. U ko'pincha quyidagi kamchiliklar tufayli kelib chiqadi:

- a) tajribaning yetishmasligi;
- b) ba'zi muvaffaqiyatsiz chiqishlar;
- v) chalinadigan kuyning yetarli tayyor emasligi;

g) cholgʻu asbobining nosozligi va boshqa sabablarga koʻra sahna hayajoni ijrochi ishiga putur yetkazadi.

Damli cholgʻular ijrochiligida sozanda odobi (etika va estetika) va oʻzini tutishi juda muhim boʻlib, baʼzida sahnada cholgʻu asbobining suvini toʻkish, u yoq-bu yoqqa yurish, joʻrnavoza yoki tinglovchiga orqasi bilan turish va boshqa nomunosib harakatlar kuzatiladi. Bu oʻz navbatida tomoshabinlarda yomon taassurot qoldiradi. Bunday nomaʼqul odatlardan qutulish uchun sozanda mashgʻulotlar paytida toza kiyingan holda oyna oldida oʻz harakatlarini kuzatishi va ustoz oʻgitlariga qatʼiy amal qilishi shart. Agar talaba aql va idrok bilan yoʻl tutsa, qunt bilan mehnat qilsa qilingan harakat yuqori muvaffaqiyatlar keltirishi shubhasiz.

### ***Qaytarish uchun savollar:***

1. Sozanda oʻquvchi mehnatining mahsuli qaerda baholanadi?
2. Sahnada hayajonning qanday sabablari bor?
3. Asarni konsertdan qancha vaqt oldin tayyor qilgan maʼqul?
4. Ijrochilik etika va estetikasi deganda nimani tushunasiz?

## **KASB BOʻYICHA MUALLIM USTOZ VA MURABBIY**

Sanʼat sohasining mutaxassislik sinfida taʼlim va tarbiya jarayoni uzluksiz, yakka tarzda olib boriladi. Buning asosiy sabablaridan biri har bir talabaga haftada kamida ikki soat yakka holda dars oʻtilgandan keyin mutaxassislik fani oʻqituvchisi talaba uchun oʻz ota-onasidek yaqin boʻlib qoladi. Shunday ekan mutaxassislik boʻyicha muallimning ham oʻz shogirdlarini har tomonlama kamol topishidagi maʼsuliyati juda yuksakdir.

G.G.Neygauz oʻzining koʻp yillik tajribasidan kelib chiqib shunday degan: Oʻqituvchining eng asosiy vazifalaridan biri bu – oʻquvchiga kerak boʻlmay qolishidir. Yaʼni, oʻquvchiga zarur boʻlgan nazariy va amaliy bilimlarni, yoʻl-yoʻriqlarni koʻrsatib borish zarur.

Buning uchun oʻquvchiga:

1. Mustaqil fikrlashni,
2. Asar uslubi ustida ishlashni,
3. Maqsadga yaqinlashib, oʻzini kashf etishni oʻrgatish lozim.

Yosh mutaxassislarni tayyorlashda eng murakkabi musiqani estetik qarash bilan baholash, yaʼni estetik baho bera olishni singdirish lozim. Nima yaxshi, nima yomon. Nima chiroyli, nima xunukligini farqiga bora olishni uqdirish kerak. Oʻtmishni boy madaniyati bilan ruhiy bogʻlanishni singdirish. Bunda

o‘quvchini vatanparvarlik, yurtiga sodiqlik va boshqa ijobiy xislatlarga ega qilish asosiy vazifalardandir.

V.A.Suxomlinskiyni asarlarida “Tarbiya – nazariy fikr yuritish bor bo‘lgan joydan boshlanadi” – degani ayni haqiqatdir.

Mutaxassislik sinfida tarbiyalashning turli shakllari mavjud bo‘lib, mashhur ustozlar bu jarayonga turlicha yondoshganlar. Masalan: yakka suhbat va sinf majlislari o‘tkazish, ko‘pchilik bo‘lib jamoat joylariga va ko‘ngil so‘ragani borish, konsertlar berish, ijrochi sozandalar haqidagi kitoblarni mutola qilish, ayniqsa keyingi paytlarda internet saytlardan mashhur ijrochilar hayoti va ijodi bilan tanishish va ijrolarini eshitish kabi tadbirlar hamda shogirdlarining shakllanishida ustozning shaxsiy namunasi katta rol o‘ynaydi.

Sozandani kasbga tayyorlashda bolalar musiqa va san‘at maktablari boshlang‘ich asosiy o‘quv dargohi sifatida xizmat qilsa, kasb hunar kollejlari va Akademik litseylari o‘rta bo‘g‘inni tashkil qiladi. Oliy o‘quv yurtlari esa ikki bosqichli (bakalavriat va magistratura) oliy malakali mutaxassis kadrlar tayyorlaydigan yuqori bo‘g‘in hisoblanadi. Ushbu o‘quv maskanlarida o‘qituvchining o‘z ustida ishlashi, ijrochilik mahorati, musiqiy adabiyotlardan xabardorligi, kasbiga muhabbati, o‘z ishiga mas‘uliyat hissi, tashabbuskorligi va izlanuvchanligi, tanqidni to‘g‘ri qabul qilishi va boshqa sifatlarni o‘zida mujassamlashtirishi juda muhimdir. U o‘z amaliyotida yangi nota va uslubiy adabiyotlar, texnik vositalarni qo‘llashi, referat va ma‘ruzalar tayyorlashi, ayniqsa xalq kuylari va klassik asarlardan o‘z cholg‘usiga moslashtirishi va tinmay o‘z ustida ishlashi katta ahamiyatga ega.

### ***Qaytarish uchun savollar:***

1. Mutaxassislik sinfida muallimning o‘z shogirdlarini har tomonlama kamol toptirishdagi ma‘suliyatini gapiring.

2. Shogirdlarining shakllanishida ustozning shaxsiy namunasi qanday bo‘lmog‘i kerak?

3. Bo‘lg‘usi ustoz-muallim o‘z ustida qay tarzda ishlashi lozim?

4. Sozandani kasbga tayyorlashda bolalar musiqa va san‘at maktablari boshlang‘ich asos bo‘la oladimi?

## DAMLI CHOLG‘ULARDA TOVUSH HOSIL QILISHNING O‘ZIGA XOSLIGI VA SOZLASH VOSITALARI

Zamonaviy damli cholg‘ular qanday materialdan yasalganligidan qat’iy nazar, turli diametrdagi naychalardan tashkil topgan. Ushbu naycha va quvurlar ichida havo ustuni mavjud bo‘lib, nafas yo‘nalishini o‘tkir qirraga urilib kesilishi va xushtakka aylanishi, maxsus tilcha-trostlar va labning o‘ziga xos tebranishi – qo‘zg‘alishi havo ustunini harakatga keltiradi va u havo to‘lqinga aylanib tebranishi natijasida tovush hosil bo‘ladi. Damli cholg‘ular ijrochiligida tovush balandligining o‘zgarishi cholg‘ularning yasalish konstruksiyasi va o‘ziga xosliklari bilan bog‘liq.

Yog‘ochdan ishlangan tilli-trostli cholg‘ularda teshiklar teshilgan bo‘lib, ular barmoqlar yoki maxsus yopqich (klapan)lar yordamida berkitiladi. Ba’zilaridagi yopqichlar murakkab jarayon bo‘lgan qattiq puflash safil (pereduvanie) orqali hosil qilinadigan yuqori tovushlarni chiqarish uchun mo‘ljallanadi.

Misdan yasalgan cholg‘ularda esa qo‘shimcha naycha-quvur va krona deb ataluvchi moslamalar mavjud bo‘lib, ular cholg‘uning umumiy uzunligini yanada uzaytirish uchun xizmat qiladi va tabiiy tovushlar balandligi ma’lum intervalga pasayadi. Trombon cholg‘usida esa harakatlanuvchi trubka-kulisa ushbu cholg‘u ichidagi havo ustunini uzaytirish va o‘z holiga qaytarishga xizmat qiladi. Shu sababli ushbu cholg‘u boshqalaridan farqli o‘laroq, tovush intonatsiyasi erkin o‘zgaruvchan cholg‘ular qatoriga kiradi. Qolgan voronkasimon mundshukli cholg‘ular esa tovush intonatsiyasi yarim o‘zgaruvchan turlaridir. Ya’ni yetuk malakali sozanda ma’lum bir tovushni o‘z sadolanish parda chegara(zona)si doirasida +40,-40 sentga ko‘tarish yoki tushirish imkoniyatiga ega ekan. Bu milliy musiqa nuqtai nazardan nola, kashish, miyong deb ataluvchi uslublari, ya’ni nimchorak pardalarni qo‘llashga o‘xshaydi. Bunday holat yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan sozanda uchun yakka ijroda eshitish nazorati ostida cholg‘u umumiy sozini tozaligiga erishish, ba’zi pardalar sozini muvofiqlashtirish imkonini beradi.

Mustaqillik sharofati bilan respublikamizning barcha o‘quv yurtlari Yaponiyaning «Yamaxa» va boshqa xorijiy firmalarning zamonaviy lazer o‘lchov texnologiyalari ko‘rigidan o‘tkazilgan holda ishlab chiqarilgan qimmatbaho sifatli cholg‘ulari bilan ta’minlandi va ushbu jarayon davom etmoqda. Buning natijasida cholg‘ular pardalari va umumiy sozlanishining sifati ancha yuqori darajada desa bo‘ladi.

Lekin shunga qaramay, cholg‘ulardagi ba’zi beqaror pardalarni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak: fleytalarda birinchi oktava *re-diez* asosiy meyyordan sal

pastroq, ikkinchi oktava *do-diez* esa sal yuqori, ikkinchi oktava *mi, re-diez, fa-diez* va *si-bemol* tovushlari beqaror sadolanuvchi pardalar qatoriga kiradi.

Olmon tizimidagi goboyda birinchi oktava *mi, fa, sol*, ikkinchi oktava *si-bemol*, uchinchi oktava *do, re*, sal yuqoriroq jaranglaydi. Fransuz tizimidagi goboylarda esa birinchi oktava *sol* sal pastroq, uchinchi oktava *do, do-diez, re* tovushlari me'yoridan sal balandroq sadolanishi kuzatiladi.

Klarnet cholg'usida kichik oktava *lya-bemol, lya, si-bemol*, birinchi oktava *sol, sol-diez, lya va si-bemol*, ikkinchi oktava *fa, sol, si-bemol*, uchinchi oktava *do, do-diez, re* va *mi-bemol* tovushlari beqaror hisoblanadi. Ularning barchasi me'yoridan sal balandroq sadolanadi. Kichik oktava *mi va fa* pardalari salgina pastroq jaranglaydi.

Fagotda kichik oktava *sol va si-bemol* pardalari ozgina balandroq, birinchi oktava *re va mi* pardalari pastroq, birinchi oktava *fa-diez va sol-diez* pardalari esa sal balandroq sadolanadi.

Saksofon cholg'usida esa kichik va birinchi oktava *si-bemol* tovushlari sal pastroq, birinchi, ikkinchi va uchinchi oktava *do, do-diez* pardalari sal balandroq, uchinchi oktava *mi* pardasi sal pastroq jaranglaydi. Shu zayilda tilli-trostli cholg'ularning yuqorida ko'rsatilgan pardalari nazariy jihatdan beqarorligi ta'riflanadi.

Misdan yasalgan cholg'ulardan truba, alt, tenor va baritonlarda uchinchi va oltinchi tabiiy tovushlar sal balandroq, beshinchi va yettinchilari sal pastroq sadolanadi. valtornada uchinchi, oltinchi, yettinchi, o'n birinchi, o'n ikkinchi va o'n uchinchi tabiiy tovushlar beqaror hisoblanadi.

Trombonda 1 chi pozitsiya katta oktava *re-bemol*, birinchi oktava *lya-bemol*, 2 chi pozitsiya birinchi oktava *sol*, tovushlari sal pastroq sadolanadi, ikkinchi oktava *si*, birinchi oktava *do, lya bemol*, IV pozitsiyada kichik oktava *si* tovushlari yuqoriroq sadolanadi.

Tuba in B da beqaror pardalar uchinchi, oltinchi va yettinchi, ya'ni katta va kichik oktava *fa* sal balandroq, kichik oktava *lya-bemol* sal pastroq va kontroktava *mi, si* tovushlari beqaror pardalar hisoblanadi.

Yuqoridagi nosozliklarni amaliy tuzatishning qator yo'llari mavjud bo'lib, bular ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga aloqador omillar mexanik xarakterda. Ya'ni bunda cholg'uni chalishdan oldin yaxshilab sozlash uchun cholg'u asbobini tartibga solish va unga munosib anjomlar (mundshtuk, naycha, bachkalariga halqachalar kiygizish) tanlash, ochqichlarini ko'tarish yoki tushirish, alohida nosoz pardalarning teshiklarini kengaytirish yoki toraytirish orqali amalga oshiriladi.

Ikkinchi guruhga aloqador omillar esa bevosita ijro jarayonida lablar holatini o'zgartirish, nafas kuchini muvofiqlashtirish va qo'shimcha applikatorani qo'llash orqali sozlashga erishiladi.

Fleytani sozlashda Iya tovushini sal balandroq (sekundiga 443-445 tebranish) olgan ma'qul. Bunda fleyta bosh qismini sal ichkari kirgizish bilan balandroq va aksincha tashqari chiqarish bilan pastroq sozlanishga erishish mumkin. Ammo bosh qismi ichidagi tiqinch (probka)ni qo'zg'atmagan ma'qul. Aks holda umumiy registrlar soziga putur yetadi.

Goboyni sozlash asosan tilcha mahkamlanadigan naycha (shtift)ning uzun va qisqaligi bilan farqlanadi. Bunda naycha goboyga qancha chuqur kiritilsa, umumiy soz balandlashadi va aksincha chiqarilsa, pasayadi.

Klarnetni sozlash bachka (bachonok)ni ko'tarish va tushirish orqali amalga oshiriladi.

Fagotni sozlashda S deb nomlanuvchi naychani uzun va qisqaligi asosiy rol o'ynaydi. Bunda ularning turli hajmlilari: nolinci, birinchi va ikkinchi sonlar bilan raqamlanadi va zaruri o'rnatilib umumiy soz muvofiqlashtiriladi.

Tilli-trostli cholg'ularni sozlanishida yuqoridagilardan tashqari mundstuk, naycha va trostlarni to'g'ri tanlash ham katta ahamiyatga ega. Masalan mundstuk kengligini cholg'u kengligi bilan mutanosib kelmasligi ham umumiy sozga yoki alohida bir tovush sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Trostlarni yengilrog'i yuqori pardalarni pastroq sadolantirsa, og'irrogi balandlashtiradi.

Misli cholg'ular nosoz pardalarini sozlash uchun esa (krona) trubka naychalarni sal kirgizish yoki chiqarish yo'li bilan muvofiqlashtirish mumkin.

Hozirgi davrda xorijiy firmalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan cholg'ularda umumiy sozi va ba'zi pardalaridagi nosozliklarga bir muncha barham berilgani e'tirof etilmoqda. Biroq ijro jarayonida har bir pardani eshitish nazorati ostida soz sifatiga e'tibor berib, nosozliklarini yuqorida aytilgan yo'llar bilan bartaraf etgandagina sof, toza va go'zal sadolanishga erishish mumkin.

### ***Qaytarish uchun savollar:***

1. Hozirgi davrda damli cholg'ular tayyorlanadigan materiallardan qandaylarini bilasiz?
2. Yog'och va mis damli cholg'ularda tovush balandligi qanday qilib o'zgartiriladi?
3. Byom tizimidagi yog'och damli cholg'ularning boshqalaridan farqini bilasizmi?
4. Sozlash vositalari necha turga bo'linadi?
5. Damli cholg'ular orkestrini sozlashning qanday yo'l-yo'riqlari bor?
6. Mustaqillik yillarida o'quv yurtlarimiz qanday cholg'ular bilan ta'minlandi?

## **DAMLI CHOLG‘ULAR UCHUN O‘ZBEKISTON KOMPOZITORLARINING ASARLARI VA MOSLASHTIRILGAN XALQ KUYLARINING QISQACHA IZOHI**

Qulog‘iga milliy ohanglar ona allasi bilan kirgan o‘smirni sozanda sifatida shakllanishida milliy musiqa va mahalliy kompozitorlar asarlari ijrosida tarbiyalash juda katta ahamiyatga egadir. Damli cholg‘ularning O‘zbekistonda targ‘ibot qilinishidan boshlab ushbu masalaga katta e‘tibor qaratib kelingan.

Markaziy Osiyo chor Rossiyasi tomonidan bosib olinganidan keyin Rus va Ovro‘pa musiqasi targ‘iboti turli shakllarda olib borildi. Bu ishda A.F.Eyxgorn, V.V.Leysek, N.N.Mironov, V.A.Uspenskiy, G.Mushel va boshqa ko‘pchilik kompozitorlar o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shdilar. Ayniqsa, ular o‘zbek xalq kuylarini orkestrga moslashtirishda va shu yo‘l bilan orkestr ohanglarini yerli aholiga singdirishda, Ovro‘pa cholg‘ularini xalqqa tanishtirishda katta tajriba to‘pladilar. Bunday asarlar jumlasiga A.F.Eyxgornning «Turkiston kengliklari bo‘ylab», «Samarqand xarobalari uzra oydin kecha», «Toshkentcha» va boshqa kuylarini keltirib o‘tish mumkin. Ushbu tajriba asosida o‘zbek kompozitorlari tomonidan dastlabki asarlar yaratildi Bular: G.Mushelning fleyta uchun «Syuita»si (1938 yil) va S.Boboyevning klarnet va fortepiano uchun «Rapsodiya»lari (1948 yil) bo‘lib, o‘zbek kompozitorlari tomonidan damli cholg‘ular uchun ilk bor ijod qilingan asarlardir. Rapsodiya haqida qisqacha to‘xtaladigan bo‘lsak, unda ijodkor cholg‘u asbobining boy ohangi va ijro imkoniyatlarini ochib berishga harakat qilgan. Asar to‘rt xil rang-barang qismlardan tashkil topgan bo‘lib, birinchi qism Andante – o‘rtacha tez sur‘atda, erkin kadensiya tarzida chalinadi. Asarning ikkinchi qismida xalq kuylaridan foydalanilgan. Bunda klarnetning go‘zal tovushi, uning ifodaliligi, tinglovchi qalbiga chuqur kirib borishi va xushsadoliligi o‘zini namayon etadi. Uchinchi qism (Allegro – 3/8) raqs ohangida bo‘lib, bunda ijrochi til stakkatosining aniqligi, yengilligi, usul sezgisi va ijro texnikasi bilan ajralib turadi.

Ana shunday asarlarning tanilishida fleytaning nay, klarnetning qo‘shnay va goboyning surnay cholg‘ulari bilan oiladoshligi va yaqinligi ham katta rol o‘ynagan.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrga kelib damli cholg‘ular uchun yozilgan asarlar salmog‘i tobora orta bordi. Bunday asarlar qatoriga G.Mushelning 1948 yili yozilgan fleyta va fortepiano uchun sonatinasini kiritish mumkin. (Sonatina, Moskva, Muzgiz, 1951). Toshkentdagi birinchi ijro 1952 yili amalga oshirilgan bo‘lib, ijrochilar: fleyta A.V.Malkeyev, fortepianoda muallifning o‘zi bilan jo‘rlikda chalishgan.

Bu davrga kelib kompozitorlarning taniqli ijrochilar bilan do'stligi va hamkorligi natijasida yaratilgan asarlar ham paydo bo'la boshladi. Bular ichida S.Abramovning goboychi B.Gusakovga bag'ishlagan «Raqs», «Tojikcha raqs», F.M.Yanov-Yanovskiyning virtuoz goboychi E.I.Goldvextga bag'ishlagan konserti, shu ijrochi uchun S.Jalilning bir qancha asarlari va yosh goboychi R.Nigmatovga bag'ishlangan «O'zbekcha ohanglar», goboy va organ uchun «P'esa», «Variasiya», T.Qurbonovning «Rondo» si, A.Hoshimovning «Raqs», «Uyg'ur mavzulariga variatsiya», «Rondo» va boshqa bir qancha asarlari bor. Shuningdek, F.Nazarovning klarnet va fortepiano uchun «Syuita» si ommalashib ketdi. Bu asar klarnet uchun qulay pardalarga moslab yozilgan. U uch qismdan tashkil topgan bo'lib, kuy yo'nalishi va usul jihatidan oddiy lekin I – Allegro qismi, yengil stakkato bilan chalinadigan uyg'urcha kuylardagi ritmik ko'rinishli sinkopalari bilan o'ziga xosdir. II qismi – lirik kuychan ohangda bo'lib, o'rtasida avj pardalariga qarab harakatlanadi va oxirida yana ohista, sokin tonlarda yakunlanadi. III qism – ham birinchisiga o'xshab milliy ritmik shakldagi sinkopalari bilan jozibali chiqqan.

Saksoninchi yillarga kelib A.V.Malkeyev tomonidan tuzilgan fleyta, goboy, klarnet, fagot va fortepiano uchun o'zbek kompozitorlarining asl asarlari to'plami dunyo yuzini ko'rdi. Ushbu to'plamga A.Kozlovskiyning fleyta va fortepiano uchun «Ivolga», F.Yanov-Yanovskiyning «Vals», V.Saparovning «Afsona», S.Abramovning goboy va fortepiano uchun «Tojikcha raqs», S.Boboyevning klarnet va fortepiano uchun «Rapsodiya», T.Qurbonovning fagot va fortepiano uchun «Improvizatsiya», S.Jalilning «Yumoreska», T.Qurbonovning «Rechitativ» asarlari kiritilgan.

Mustaqillik yillari dunyo yuzini ko'rgan ba'zi asarlar B.Salixovning «Klarnet uchun darslik» kitobiga kiritilgan bo'lib, bulardan M.Bafoyevning «Lirik hikoya», V.Saparovning «Uch prelyudiya», P.Xoliqovning «Skerso» va «Konsertino», A.Hoshimovning «Afsona», A.Ergashevning «Sharq kaprichchiosi», F.Yanov-Yanovskiyning «Solo-monolog», D.Qurbonovning «Tog'liklar xirgoyisi» asarlari shular jumalasidandir.

Bunday asarlar haqida juda ko'plab misollar keltirish mumkin. Shuningdek, damli cholg'ular uchun moslashtirilgan xalq kuylaridan ushbu satrlar muallifining klarnet va fortepiano uchun «Muhabbat» nomli to'plamida butun turkiy xalqlarda dorbozlar o'yini paytida chalinadigan Yelpasalandi va uforisi, masxaraboz o'yinlariga jo'r bo'lib chalinadigan Zumlaq, otashparastlik davridan qolgan erkaklar o'yini Norim-norim va uforisi, Xorazm segoh maqomi uforisi asosida xalq sozandalari tomonidan ishlangan Muhabbat deb nomlangan Xorazmcha raqs kuylarini o'z ichiga mujassamlashtirgan to'plami ham o'quvchilarni xalq kuylarini o'z cholg'ularida chalib ko'rishlari va qo'shnay, surnaylar bilan qiyosiy taqqoslashlarida katta yordam beradi. To'plamning

fortepiano partiyasini iste'dodli yosh kompozitor Muxammadjon Otajonov bastalagan.

***Qaytarish uchun savollar:***

1. Sozandani shakllantirishda milliy musiqa va mahalliy kompozitorlar asarlarining qanday ahamiyati bor?
2. Damli cholg'ularni O'zbekistonda targ'ibot qilinishi qaysi davrdan boshlangan?
3. Bu ishda jonbozlik ko'rsatgan kompozitorlardan kimlarni bilasiz?
4. Ovro'pa damli cholg'ularining qaysi biri o'zbek xalq cholg'ulari bilan oiladosh?
5. O'zbekiston kompozitorlari tomonidan ikkinchi jahon urushidan keyin damli cholg'ular uchun yozilgan asarlar haqida gapiring.

**DAMLI CHOLG'ULAR ANSAMBLLARI UCHUN  
O'ZBEKISTON KOMPOZITORLARI ASARLARINING  
QISQACHA IZOHI**

Jamoa bo'lib chalish qadim-qadimdan barcha xalqlarda sozandalar uchun an'ana va odat sifatida shakllangan. Xususan ochiq havoda dasta (qo'sh, ansambl) bo'lib damli va zarbli cholg'ularda ijro qilish tinglovchiga zavq-shavq bag'ishlagan.

Ovro'pa damli cholg'ularining ansambl ijrochiligi o'ziga xos tarixiy va boy an'analarga ega. Unga har-xil davrda yashab o'tgan turli oqim va ijodiy yo'nalishlarga mansub kompozitorlar o'z e'tiborini qaratganlar va asarlar yozganlar.

O'zbekistonda ayniqsa ikkinchi jahon urushidan keyin damli cholg'ular ansambl ijrochiligiga keng e'tibor berila boshlandi. O'zbekiston kompozitorlari opera, balet va boshqa yirik asarlar bilan birgalikda ansambllar uchun qator asarlar ijod qildilar. Ularning ansamblga yozilgan asarlarini to'plash va nashr qilish ishlari saksoninchi yillarga kelib amalga osha boshladi. Shulardan R.R.Safarovning O'zbekiston kompozitorlarining damli cholg'ular ansambllari uchun asarlar to'plamiga (Произведения композиторов Узбекистана для ансамблей духовых инструментов. –Т., Изд-во Г.Гуляма, 1988) uch avlod kompozitorlari: B.Zeydman (1908-1981), B.Gienko (1917-2000), G.Mushel (1908-1983), T.Qurbonov (1936-2002), A.Varelas (1950), N.G'iyosov (1956) larning asarlari kiritilgan. Bu kitobdagi kamer asarlarda damli cholg'ularning deyarli barchasi qamrab olingan.

Shulardan eng ko'zga ko'ringanlari G.Mushelning goboy, klarnet va fagot uchun lya minor va si bemol major ikkita «Preljudiya va fuga» laridir. Bunda goboy, klarnet va fagot tovushlarining bir-biriga hamohang quyilib kelishida tabiat manzaralari o'ziga xos polifonik tilda bayon etiladi.

Yosh kompozitor N.G'iyosovning fleyta, klarnet va fagot uchun yozilgan «Trio» asari ham to'plamga kiritilgan bo'lib, u cholg'u ijrochilaridan yuksak virtuoz texnik mahorat talab etadi. A.Varelasning truba, ikkita valtorna va trombon uchun «P'esa» si oddiy tilda yozilgan. U ansambl ijrochiligini endi boshlovchi sozandalarga mo'ljallangan.

B.Zeydmanning ham truba, ikkita valtorna va trombon uchun «Marsh», «Qo'shiq», «Raqs» asarlari milliy ohanglar ta'sirida yozilgan.

B.Gienko truba, valtorna, trombon va tuba uchun «Preljudiya», ikki truba, ikki valtorna, va ikki trombon uchun «Raqs», ikki truba, ikki valtorna, ikki trombon va tuba uchun «Romans», uch truba, ikki trombon va tuba uchun «Burleska» asarlarida mis damli cholg'ulari tovushlarining bir-biri bilan mutanosibligini turli tarkiblarda qo'llagan holda o'ziga xos ansambllar yaratgan.

T.Qurbonov o'zining truba, valtorna, trombon va litavra uchun yozilgan «Rechitativ» asarida har bir sozanda oldiga o'z cholg'usida yuksak mahorat bilan chalish talabini qo'yadi. Asar zamonaviy uslubda yozilgan.

O'zbekiston davlat konservatoriyasi professori, uzoq yillardan buyon shu dargohda kamer ansambli sinfi mashg'ulotlarini olib borayotgan ustoz V.L.Melkomini tomonidan O'zbekiston kompozitorlarining yog'och damli cholg'ular uchun yozgan kamer asarlari to'plamidan (Камерные произведения композиторов Узбекистана для деревянных духовых инструментов. Рукопись. –Т., 1987 (Личный архив В.Л.Мелькомини)) bir qancha asarlar o'rin olgan bo'lib, shulardan ko'zga ko'ringanlari G.A.Mushelning klarnet, fagot va fortepiano uchun «Xoreografik eskizlar» nomli asari mavzu jihatidan bir-biri bilan bog'liq to'rtta eskizdan tashkil topgan izchil syuita tamoyillariga asoslangan, bunday cholg'ular tarkibi uchun yaratilgan yagona asardir. Asar polifonik tilda samimiy his-hayajon tarzida o'z mavzusining yangiligi va milliy ohanglarga boyligi bilan ajralib turadi. Bu to'plamga A.F.Kozlovskiyning fleyta, truba, alt va fortepiano uchun «P'esa» kvarteti, fleyta, alt va fortepiano uchun «Intermesso», fleyta, klarnet va fortepiano uchun trio, ikki klarnet va bas klarnet uchun «Fuga» lari kiritilgan. Shuningdek, B.I.Zeydmanning fleyta, 2 ta goboy, 2 ta klarnet va fagot uchun «Norim-norim va Ufar III» deb ataluvchi ikki p'esa, F.M.Yanov-Yanovskiyning fleyta pikkolo, fleyta, goboy, 2 klarnet, fagot, 2 ta valtorna, truba va trombon (o'nta cholg'u uchun) «Skerso», R.Abdullayevning fleyta, fagot va fortepiano uchun «Trio», fleyta, goboy, klarnet va alt uchun re minor, fleyta, goboy, klarnet va fagot uchun lya bemol major «Charxi Navo» kvartetlari, yosh kompozitor Q.Hikmatovning fleyta,

goboy, klarnet va fagot uchun kvarteti shular jumlasidandir. Ayniqsa o'tgan asrning 70-80 yillari konservatoriya talabasi bo'lgan iqtidorli klarnetchi S.Osmanovning fleyta, goboy, klarnet va fagot uchun «Mushuk tovuqxonaga qanday tushib qoldi» (Как кошка попала в курятник) kvarteti va to'rtta klarnet hamda fleyta uchun «Elegiya» kvintetlari yosh ijrochi, havaskor iqtidorli kompozitor tomonidan o'zi yaratib talaba do'stlari bilan imtihonlarda ijro qilishib ommalashgan asarlari ushbu to'plam qo'lyozmasidan o'rin olgan.

Quyidagi rasmda ustoz pedagoglar tomonidan asosan mustaqillik davrida damli cholg'ular uchun nashr qilingan kitoblar aks etgan. Yuqorida nomlari keltirilgan asarlarning ko'pchiligi ana shu to'plamlardan o'rin olgan.



### ***Qaytarish uchun savollar:***

1. Sozandani shakllantirishda jamoa bo'lib chalish (ansambl)ning qanday ahamiyati bor ?
2. O'zbekiston kompozitorlari tomonidan damli cholg'ular ansambllari uchun asarlar yaratish qaysi davrdan boshlangan?
3. Bu ishda jonbozlik ko'rsatgan kompozitorlardan kimlarni bilasiz?
4. Ansambl asarlari qaysi to'plamlarga va kim tomonidan jamlangan?

## DAMLI CHOLG‘ULARNING HOZIRGI ZAMON KONSERT IJROCHILIK VA PEDAGOGIK REPERTUARI HAMDA XORIJIY ADABIYOTLARIGA QISQACHA IZOH

Barcha ijrochilik mutaxassisliklari singari damli cholg‘ular ijrochiligida ham talabalarni texnik va badiiy jihatdan uzluksiz rivojlantirish tamoyillari mavjud. Talabalarning badiiy malakalari va tasavvurlarini shakllantirish uchun badiiy asarlar zarur bo‘lsa, o‘sha asarni sadolantirish, texnik mahoratini ta‘minlash uchun esa gamma, mashq va etyudlar juda muhim. Ammo ular xoh uy vazifasi yoki darsda bo‘lsin, alohida badiiy mashg‘ulotdan ajralgan holda emas, balki bir butun badiiy maqsadni amalga oshirishga qaratilgan bo‘lmog‘i lozim. Xuddi shu maqsadda yozilgan damli cholg‘ular uchun birinchi darsliklar: N.Platonov, I.Pushechnikov, S.Rozanov, R.Terexin, V.Blajevich, Ye.A.Reyxe (Yevgeniy Adolfovich evakuatsiya paytida Leningraddan Toshkentga ko‘chib kelgan va shu yerda vafot etgan. U Botkin nomidagi qabristonga dafn etilgan (J.S.Saburov axborotidan)), B.Grigoryev, F.Shollar kabi ustoz sozandalar tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu darsliklarda mujassam etilgan badiiy asarlar repertuari boshlovchi o‘quvchiga tushunarli bo‘lgan uslubiy ko‘rsatmalari bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham damli cholg‘ularning har biri uchun bir necha donadan darsliklarning mavjudligiga qaramasdan, ulardan hozirgi davrgacha faol foydalanib kelinmoqda. Ular asosida yangi darslik va qo‘llanmalar yaratilgan va yaratilmoqda. Shundaylardan V.F.Po‘latovning trubada chalish darsligidir. U O‘zbekistonda damli cholg‘ular uchun yaratilgan birinchi darslik hisoblanadi (Пулатов В.Ф. Школа игры на трубе. –Т., «Ўқитувчи», 1979).



Har bir darslikning o'z foydalanish davri bo'lib, bu uning zamon talabiga javob berish darajasi bilan belgilanadi. Hozirgi davrda mamlakatimizda damli cholg'ular uchun boshlang'ich, o'rta bo'g'in va oliy ta'limgacha bo'lgan izchillik asosida tuzilgan darsliklar endi dunyo yuzini ko'rmoqda. Ustoz pedagoglarimiz Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablariga muvofiq kollejlarda va akademik litseylar uchun darsliklar yaratishga kirishdilar va ularning dastlabki namunalari chiqarib boshladi. Bulardan B.Salixovning «Klarnet uchun darsligi» (Salixov B. Klarnet darsligi. O'YMTB. –T., F.Fulom nashriyati, 2002), V.Melkominining «Goboy va blokflaytda o'qitish boshlang'ich darsligi» (Melkomin V.L. Начальная школа обучения игре на гобое и на блокфлейте. –Т., Изд-во Г.Гуляма, 2002) kabilardir.

Darslik yaratishda ustozlarimiz faqat ma'lum bir mamlakat yoki millat kompozitorlari asarlaridan foydalanib qolmasdan klassik va zamonaviy kompozitorlar ijodiga ham murojaat qilishadi. Biz quyida o'tgan asrning boshlarida yaratilgan va hozirgacha faol foydalanilib kelinayotgan pedagogik va konsert ijrochilik repertuari hamda ularni yaratuvchilari ya'ni yaqin o'tmishda yashab o'tgan zamondosh kompozitorlar ijodiga ham qisqacha izoh berib o'tamiz.

O'tgan asrning 20-yillaridan boshlab ko'pchilik chet el kompozitorlarini damli cholg'ular ijrochiligi bilan qiziqib qolganligi va e'tiborlarini shu cholg'ularga qaratganliklari kuzatilmoqda. Buning natijasida ushbu cholg'ularning badiiy repertuari yakka va ansambl asarlari hisobiga kengayib va boyib bormoqda. Shuningdek, damli cholg'ular yakka ijrochiligida turli yo'nalishlar paydo bo'lmoqda. Ayniqsa bu borada nemis, fransuz, chex va boshqa milliy maktablar yo'nalishlarini ta'kidlab o'tish joiz. Bunday maktablar rivojlanish yo'lining belgilanishi va qaror topishida ma'lum bir kompozitor ijodi katta rol o'ynaydi. Shundaylardan taniqli kompozitor, nemis neoklassisizmining yetakchisi **Paul Xindemit (1895-1963)** ijodi ibratlidir. Ushbu yo'nalish ijodkorlari XVII asr polifonistlari uslubi va mahoratiga murojaat qilgan holda asarlar yaratishni o'zlariga dasturiy qilib olganlar.

Neoklassitsizm oqimidagi boshqa kompozitorlardan farqli o'laroq Xindemit **tinglovchilar ommasini keng qamrab olishga** harakat qilgan. Ko'p yillar turli simfonik orkestr va kamer ansambllarda skripkachi va altchi bo'lib ishlashi davomida barcha cholg'ularni amalda bilgani uning kompozitorlik ijodi uchun asos bo'lib xizmat qildi. Uning damli cholg'ular uchun juda ko'p asarlari mavjud bo'lib, ularning orasida klarnet, valtorna va fortepiano uchun triosi alohida o'rin tutadi. O'tgan asrning yigirmanchi yillariga kelib kompozitor damli cholg'ular uchun qadimiy koncherto grosso ruhida o'zining «Kamer musiqa»larini yaratdi. Bundaylardan biri fleyta, goboy, klarnet, fagot va valtorna uchun yozilgan kvinteti bo'lib, uni kompozitor 1922 yili yozgan. Bu asar besh

qismli ixcham serenada-divertiment (raqs) shaklida bo‘lib, sho‘x-shodon, o‘ynoqi, virtuoz xarakterga ega. Asarda cholg‘u sozlarining ovoz tembrlari va o‘ziga xos sifatlarini yorqin namayon qilishga harakat qilgan. Birinchi qism jadal marsh sur‘atida chalinadi. Ikkinchi qism vals, uchinchi sekin, osoyishta, to‘rtinchi qism asarni sekin qismi bilan yakuniy qismini bog‘lovchi o‘ziga xos bo‘lim hisoblanadi. Final qismi esa shiddatli harakatchan holda cholg‘ularning har biri o‘z tembriga ega bo‘lgani holda umumiy tovushlar bir-biriga quyilib bir butun tarzda go‘zal sadolarga aylanadilar.

Xindemit asosiy damli cholg‘ularning barchasi uchun sonatalar yozgan. Shulardan valtorna va fortepiano uchun fa major (1939) va mi bemol major (1941) sonatalari mashurlaridan bo‘lib hisoblanadi. Shuningdek, to‘rtta valtorna uchun yozilgan va ijrochilardan yuqori texnik mahoratni talab qiluvchi uch qismli sonatasi ham e‘tiborga molikdir.

Uning fleyta, fagot, truba va trombon cholg‘ularining har biri uchun alohida fortepiano jo‘rligida yozilgan sonatalari ham o‘zining qiziqarliligi bilan ajralib turadi. Shulardan fleyta uchun sonatasi 1936 yili kompozitorning o‘z vatanini tark etib Turkiyada muhojirlikda yurgan davrida yozilgan.

Xindemit fleytada lirik asarlarni talqin qilishda Bax, Gendel, Glyuk, Motsart kabi klassik kompozitorlar ijodiga tayanadi. Chunki klassik kompozitorlar fleytani juda yaxshi ko‘rib unga o‘z asarlarida murojaat qilishgan. Xindemit ham ushbu an‘anani rivojlantirgan.

Fagot va fortepiano uchun yozilgan sonatasi (1938) lirik xarakterda bo‘lib, shartli ravishda ikki qismga bo‘linadi. Birinchisi lirik raqs tarzida chalinsa, ikkinchisi oldin og‘ir keng ijro qilinadi va tobora rivojlanib harakatchan marsh usulida yakunlanadi.

Xindemitning eng yaxshi sonatalari qatoriga truba va fortepiano uchun sonatasi (1939) ham kiradi. Bu asarda ijodkor o‘zining ruhiy holatini ta‘riflab berishga harakat qilgan. Asar markazidagi mavzu mazmunida yashash uchun kurashayotgan inson turmush tashvishlariga dosh bera olmay tengsiz jangda halok bo‘ladi. Sonata mazmunida «Bir kun kelib baribir hamma boqiy dunyoga rixlat qiladi» degan shior asosiy o‘rin tutadi va shu shior ostida asar fojeali yakunlanadi.

Xindemitning trombon va fortepiano uchun sonatasi o‘zining erkin, barqaror va mardonavor xakteri bilan e‘tiborga loyiq. Uning birinchi qismi asosiy tema bilan rivojlantirilib o‘z yakunini topadi va oxirgi qismigacha takrorlanmaydi. Ikkinchi qism yengil rondo shaklida bo‘lib, trombon refren bo‘lagini to‘rt marta takrorlaydi. Forteapiano esa turli bezakli nozik epizodlarni mohirona talqin etadi. Uchinchi qism marshsimon tetik ohanglar bilan yakunlanadi. Final qismi markaziy obrazlarga qaytib, birinchi qismning

yordamchi bo'lagini takrorlab rivojlantirgani holda g'olibona hayotbaxsh ohanglarda o'z yakuniga yetadi.

Xindemitning klarnet uchun (1947) va valtorna uchun (1950) orkestr jo'rligidagi konsertlari keng tanilgan asarlardan hisoblanadi.

Uning kichik asarlari ichida ikki fleyta uchun «Kanon shaklidagi uch sonatina» (1924), Yakka fleyta uchun sakkiz p'esalari (1927) mashhur. Ushbu asarlarda kompozitor fleytaning texnik va tembr, shtrix va dinamik imkoniyatlarini namoyish etishga harakat qilgan.

Uning damli cholg'ular ansambllari uchun asarlari ichida klarnet va torli cholg'ular uchun kvinteti (1923), «Spielmusik» torli cholg'ular, fleyta va goboy uchun kvarteti (1937), fleyta va fortepiano uchun «Aks sado» (1925) asari, Boston simfonik orkestrining ellik yilligi munosabati bilan «Mis va torli cholg'ular uchun konserti» (1931), truba, fagot va torli cholg'ular uchun konserti (1935) kabi mashhur asarlarni yaratishga muvaffaq bo'ldi. Uning damli cholg'ular uchun yozgan asarlari ijrochilarning pedagogik va konsert repertuaridan muqim o'rin oldi. Ko'pchilik Xalqaro tanlovlarning dasturlariga albatta ijro qilinishi zarur bo'lgan asar sifatida ham kiritilgan va hozirgi davrda ham ulardan tushmay kelmoqda.

Boshqa bir nemis kompozitori Kyoln konservatoriyasining professori **Berd Alois Simmermann (1918)** goboy va truba uchun konsertlari mashhur.

Avstriya kompozitori dodekafoniya uslubining asoschisi **Arnold Shyonberg** damli cholg'ular uchun o'zining noyob asarlari bilan taniqlidir. Uning fleyta, goboy, klarnet, valtorna va fagot uchun kvinteti xalqaro tanlovlarning dasturlariga ijro qilinishi shart bo'lgan asar sifatida kiritilgan. Ushbu kvintet Budapeshtda o'tkazilgan VIII (1965) va Myunxenda bo'lib o'tgan XVII (1966) xalqaro tanlovlarda muvaffaqiyat bilan ijro etilgan. Shuningdek, uning klarnet, bas klarnet, mandolina, gitara, skripka, alt, violonchel va fortepiano uchun «Serenada» (1927)si mashhurdir. Shyonbergning iste'dodli shogirdlaridan biri **Alban Berg (1885-1935)** ham damli cholg'ular uchun qiziqarli asarlar muallifidir. Uning klarnet va fortepiano uchun to'rt p'esasi (1913), fortepiano skripka va o'n uchta damli cholg'ular uchun «Kamer konserti» (1925) dodekafoniya uslubida yozilgan.

Damli cholg'ular uchun o'ziga xos asarlar «Fransuz oltiligi» deb atalgan kompozitorlar guruhi ijodidan keng o'rin olgan. Bular F.Pulenk, D.Miyo, A.Onegger, L.Dyurey, J.Orlik, J.Tayeferlardir. Ular shu davrda fransuz madaniyatida muqim o'rin tutgan impressionizm va neoromantizm oqimlariga qarshi chiqdilar. Ularning asarlarida hissiy ko'tarinkilik, go'zal ohangdorlik va kuychanlik hamda fransuz milliy koloriti ufurib turadi. Ushbu kompozitorlar orasida **Fransis Pulenk (1899-1963)** damli cholg'ular uchun yorqin asarlar yozgan. U o'zining dastlabki «Negr rapsodiyasi»ni yakkaxonlar, fortepiano, torli

kvartet, fleyta va klarnet uchun yaratgan bo'lsa, «Bestiariy yoki Orfey aravasi» asarini ovoz, fleyta, klarnet, fagot va torli kvartet uchun yozgan. Klarnet va fagot uchun sonatalar yaratgan. U yuqoridagi asarlarida Betxovenga monand klarnet va fagot hamohangligini yuqori sezgirlik bilan qo'llagan. Shuningdek, uning valtorna, truba va trombon uchun sonatasi ham o'ziga xos asarlardan hisoblanadi. O'tgan asrning 30-yillariga kelib fleyta, goboy, klarnet, valtorna, fagot va fortepiano uchun yaratgan seksteti zamonaviy garmoniya uslubida yozilgan. Umrining so'nggi yillarida yaratgan fleyta va fortepiano uchun sonatasi, valtorna va fortepiano uchun elegiyasi, S.Prokofyev xotirasiga bag'ishlangan goboy va fortepiano uchun sonatasi, Artur Onegger xotirasiga bag'ishlangan klarnet va fortepiano uchun sonatalari hozirgi kunda ham butun dunyo ijrochilari repertuaridan keng o'rin olgan. Uning klarnet uchun yozilgan sonatasi yuksak lirik hissiyot ta'sirida, kuychan va o'ziga xos tarzda yaratilgan. Birinchi qism «melanxolik allegro» yorqin lirik ohangda, ikkinchi qism qadimgi klassik ariyalar ruhida, ohista zamonaviy garmoniyalar ohangdoshligida ustalik bilan ijod qilingan.

Fransuz kompozitorlari ichida **Darius Miyo (1892-1974)** asarlari ham keng o'rin tutadi. O'tgan asrning 20-yillarida yaratilgan fleyta va fortepiano, goboy va fortepiano, klarnet va fortepiano uchun sonatinalari qiziqarlidir. Ularning barchasi yorqin lirizm bilan sug'orilgan. Uning klarnet va fortepiano (1941), goboy va orkestr uchun (1958) konsertlari alohida ahamiyatga ega. Miyoning programmali konsertlaridan yakkaxon trombon va torli cholg'ular uchun «Qishki konsertino»si A.Vivaldi an'analari asosida yaratilgan. Bu konsertino uch qismli bo'lib, birinchi qismda qor yog'ishi va sovuq tushishini tasvirlovchi epizodlar ohanglarda aks ettirilgan. Miyoning kamer cholg'u asarlari ichida fleyta, goboy, klarnet va fortepiano uchun «Pastoral» (1935); goboy, klarnet va fagot uchun syuita; fleyta, goboy, klarnet, valtorna va fagotdan tashkil topgan kvintet uchun «Podshoh Rene kamini» syuitasi XV asrda yashab o'tgan janubiy Fransiya shohi Renening olijanoblighi va san'atkorlarga homiylighi to'g'risidagi rivoyatlar asosida yaratilgan.

Otilik kompozitorlarining yana biri **Artur Onegger (1892-1955)** o'z ijodida klassik monumental yo'nalishga erishgan kompozitor hisoblanadi. Uning ikki fleyta, klarnet va fortepiano uchun rapsodiyasi (1917), klarnet va fortepiano uchun sonatinasi (1922), fleyta, ingliz rojogi, skripka va violonchel uchun «Uchta kontrapunkt» (1922), truba va fortepiano uchun «Intrada»(1947), fleyta, ingliz rojogi va torli orkestr uchun «Kamer konserti» (1949), yakka fleyta uchun «Echki raqsi» asarlari damli cholg'ular uchun yozilgan eng yorqin kuylardan bo'lib hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan asarlar ichida «Intrada» kuyi qadimgi janrning zamonaviy talqinda jilolanishining namunasidar. Bunda trubaning yuqori registr va pastki tovushlarda birdek sadolanishi tantanavor bayramona

kayfiyat uygʻotadi. Keyingi osoyishta lirik tema fortepianoda kanon shaklida qaytariladi. Kuy ekspozitsiyasini qahramonona fanfara tovushlari yakunlaydi. Oʻrtada keladigan epizod raqs xarakteridagi usullar bilan urgʻulanadi. Asar yakuni kuy ibtidosining ixcham shaklidagi qaytariqi bilan tamomlanadi.

Damli cholgʻular uchun qator asarlar yaratgan «Otilik» kompozitorlaridan yana biri **Jarmena Tayefer** xonimning (1892) fleyta, klarnet, fortepiano, torli kvartet va chelesta uchun «Qiyofalar» (1918), fleyta va fortepiano uchun «Pastoral» (1926) asarlari mavjud. Ammo hali bu asarlar bizda ijro etilmagan.

«Otilik»ning Dyurey va Orik kabi kompozitorlari damli cholgʻular uchun ahamiyatli asarlar yozib qoldirmaganlar. Ammo zamonaviy kompozitorlarni ragʻbatlantirish maqsadida Parij konservatoriyasi hozirgacha har yili damli cholgʻular uchun eng yaxshi asarlarga tanlov oʻtkazadi. Bu anʼana uzoq yillardan beri davom etib kelmoqda. Ushbu tadbirlar natijasida samarali ijod qilib kelayotgan koʻplab kompozitorlar yetishib chiqqan. Bulardan biri **Albert Russel (1869-1937)** boʻlib, uning fleyta, skripka va violonchel uchun trio (1929), fleyta va fortepiano uchun Andante va skerso (1934), fleyta, goboy, klarnet, fagot, valtorna va fortepiano uchun divertisment asarlari oʻz tembr boʻyoqlarining yorqinligi, impressionizm yoʻnalishida yozilganligi bilan xarakterlanadi. Uning fleyta va fortepiano uchun «Fleyta cholgʻuchilari» nomli syuitasi oʻziga xos dastur asosida yaratilgan boʻlib, birinchi miniatyurasi «Pan» deb nomlanadi va qadimgi grek afsonalaridagi nayning dastlabki kelib chiqishi bilan bogʻlanadi. Afsonada oʻrmon va dalalar xudosi, choʻponlar xomiysi Pan Sirinks ismli goʻzal farishtani sevib qoladi. Panning badbashara maxluqligidan nafratlangan Sirinks suv va daryolar xudosidan oʻzini yashirishni yolvorib soʻrab najot tilaydi. Unga rahmi kelgan suv xudosi qizni nay qamishga aylantiradi. Pan esa shu qamishdan fleyta yasaydi. Shundan eʼtiboran fleytaning bir turi Pan fleytasi yoki Sirinks deb atalar ekan. Miniatyuraning ikkinchi va uchinchisi mashhur ijrochilar «Titurs» va «janob Pejodi» nomlari bilan ataladi. Toʻrtinchi miniatyura esa Sharq mavzulari asosida «Krishna» deb nomlangan.

Damli cholgʻular uchun bir qancha asarlar yaratgan kompozitorlardan yana biri **Andre Jolive (1905-1975)**dir. Uning ijodida truba va fortepiano uchun ikkita konsert (1948, 1957), fleyta va orkestr uchun konsert (1949), fagot va orkestr uchun konsert (1954), yakka fleyta uchun «Qargʻish» nomli kuy (1936), fleyta, alt va arfa uchun «radio-syuita» (1941), fleyta, fagot va arfa uchun «Pastoral», damli cholgʻular kvinteti uchun Serenada asarlari joy olgan.

Bunday kompozitorlardan **Jak Iber (1890-1962)** oʻzining fleyta va orkestr uchun konsert (1934), saksofon va orkestr uchun «Kamer konsertino» (1939) asarlari bilan tinglovchilarga yorqin lirik kayfiyat bagʻishlaydi. Konsertining birinchi qismi harakatchan va kuychan xarakterga ega. Bunda ijrochi saksofonning texnik mahorati va imkoniyatlarini namayon etadi. Uncha katta

bo'lmagan kadensiya bilan konsertino yakunlanadi. Iberning goboy va torli orkestr uchun «Konsert simfoniya»si (1949), truba va fortepiano uchun «Eksprompt» (1951) asarlari alohida ahamiyat kasb etadi. Uning yog'ochli damli cholg'ular uchun kvinteti xalqaro tanlovlar dasturidan muqim o'rin olgan. Iberning ikkita fleyta, klarnet va fagot uchun «Harakat» (1923), fleyta va fortepiano uchun «Leux» nomli sonatina (1924), fleyta va gitara uchun «Antrakt» (1935), yakka fleyta uchun «P'esa» (1936) asarlarining borligi ma'lum. Ammo ushbu asarlar ijrochilar tomonidan chalinmagan.

Fransuz kompozitori **Anri Tomazi** ijodida ham damli cholg'ular keng o'rin egalladi. Unga 1952 yili qator opera va simfonik asarlari uchun «Fransuz musiqasining katta mukofoti» berilgan. Tomazining fleyta va orkestr uchun (1947), truba va orkestr uchun (1949), saksofon va orkestr uchun (1951), klarnet va orkestr uchun (1952), valtorna va orkestr uchun (1955), trombon va orkestr uchun (1956) konsertlari; truba va fortepiano uchun «Triptix»lari mashhur. Uning kamer asarlari ichida yog'ochli damli cholg'ular uchun kvinteti (1952), goboy, klarnet va fagot uchun «Qishloq konserti» (1939), yog'och cholg'ular triosi uchun «Korsikan divertimenti» (1952), uchta truba uchun syuitalari keng ommalashgan.

Kompozitor **Ejen Bozza** asarlarida qo'shiq va raqs xarakteridagi folklorga yaqinlik ko'proq ko'zga tashlanadi. U damli cholg'ularning o'ziga xos sifatlarini yaxshi sezgan holda ularni mohirona qo'llaydi. Uning uslubini «Qishloq ko'rinishlari», truba va fortepiano uchun «Rapsodiya», goboy va fortepiano uchun «Fantaziya-pastoral» hamda «Italyancha fantaziya», ayniqsa klarnet va fortepiano uchun konsert, «Bukokilaki», «Kapris-improvizatsiya», «Pulchinella», fleyta va fortepiano uchun «Agrestid» va boshqa asarlarida yaqqol kuzatish mumkin. Uning eng yaxshi asarlari qatoriga trombon va fortepiano uchun «Bax xotirasi»ga bag'ishlangan p'esasini kiritish o'rinli. Bu kuy zamonaviy ammo tinglovchiga tushunarli polifonik tilda yozilgan. Unda turli xoral epizodlar hamda qiziqarli mavzularning rivojlantirilganligi bilan bir qatorda ikki ovozli invensiya o'zining yorqinligi bilan ajralib turadi. Bozza asarlari ichida ikki truba uchun «Dialog», fleyta, goboy, klarnet, valtorna va fagot uchun «Erkin mavzularga variatsiya» kvinteti damli cholg'ularning virtuos imkoniyatlarini namayon qiluvchi asarlardan hisoblanadi.

Fransuz kompozitorlari orasida damli cholg'ular uchun o'ta zamonaviy asarlari bilan ko'zga ko'ringanlaridan biri **Olive Messian** bo'lib, uning skripka, klarnet, violonchel va fortepiano uchun «Vaqtning adog'i» kvarteti shunday asarlar jumlasidandir. Messian bu asar ustida konslager asirligi davrida ishlagan va asar 1941 yil 15 yanvarda konslagerda ijro qilingan. Asar mazmuni tutqinlik azoblari va ijodkorning ichki iztiroblarini o'zida aks ettirgan.

Fransiyalik kompozitorlar ijodiga hamohanglik bilan Belgiyalik kompozitorlar ham koʻplab asarlar yaratib kelganlar. Jumladan **Marsel Po**, Bryussel konservatoriyasining direktori, qator asarlarning muallifidir. Uning yogʻoch damli cholgʻular uchun kvinteti, fleyta va fortepiano uchun «Afsona», toʻrt saksofon uchun skerso asarlari maʼlum.

Kompozitor **Jan Absil** ham Bryussel konservatoriyasining professori damli cholgʻular uchun kvintet, kvartet, truba va fortepiano uchun impressionizm uslubida yozilgan «Uchta ertak» asari trubachilar repertuaridan keng oʻrin olgan. Bu asarning «Qahramonona» deb nomlangan birinchi ertagi fanfalarlarning jangovar chaqirigʻi bilan boshlansa, «Slavyan ertagi» degan qismi kuychan kantilenadan iborat. «Ekssentrik ertak» nomli uchinchi metro-ritmik jihatdan almashib turuvchi qismi bilan asar yakunlanadi.

Damli cholgʻular uchun shveytsar kompozitorlari tomonidan ham turfa xil kuylar yaratilgan. Bular orasida **Jyulen Fransua Zbinden** truba va orkestr uchun konsertino (1946), yogʻoch damli cholgʻular uchun trio asar (1949)larini yozgan. **Armin Shibler** esa valturna va fortepiano, trombon va fortepiano uchun konsertlar (1957), goboy, arfa va kichik orkestr uchun fantaziya (1946), truba, skripka va fortepiano uchun konsert trio (1948) va boshqa qator asarlarni dodekafoniya uslubida yozgan. **Otmar Shyok (1886-1957)** ning koʻpgina opera, simfoniya va kamer-cholgʻu asarlari ichida bas klarnet uchun sonatasi (1928) va valturna uchun konserti (1951) ajralib turadi.

Skandinaviya mamlakatlari kompozitorlari orasida ham damli cholgʻular uchun koʻpgina asarlar yaratganlar talaygina. Shulardan **Karl Nilsen (1865-1931)** ijodiga Grig, List va fransuz impressionistlarining merosi oʻz taʼsirini koʻrsatgan. Nilsenning qator opera, simfoniya va cholgʻu asarlari bilan birgalikda fleyta va orkestr uchun (1926), klarnet va orkestr uchun (1928) konsertlari, klarnet, fagot, valturna, violonchel va kontrabas uchun serenadasi (1914), fleyta, goboy, klarnet, valturna va fagot uchun kvinteti (1922) hozirgi davrgacha ijro etib kelinmoqda. Masalan, Bavariya radiosi bilan hamkorlikda 1966 yili Myunxenda oʻtkazilgan damli cholgʻular ansambllari xalqaro tanlovida uning yuqoridagi kvinteti shartli dastur sifatida kiritilgan edi. Ushbu asarning yutuqlaridan biri unda qatnashuvchi cholgʻularning tembr boʻyoqlari yorqin namayon etilganligi va texnik imkoniyatlari hamda ifoda vositalaridan mohirona foydalanilganligidandir.

Italiya kompozitorlari orasida **Rikardo Malipero** damli cholgʻular uchun «Kamer musiqasi» asarini yozgan. Shuningdek, E.Kovalini, A.Gabbuchi, D.Mantsioni kabi kompozitorlar ham damli cholgʻular uchun asarlar yaratganlar.

Angliyalik kompozitorlar orasida **Malkolm Arnold**ning valturna va orkestr uchun ikkita konserti (1947, 1957), klarnet va orkestr uchun konsert, klarnet va fortepiano uchun sonatina, (1948), fleyta va orkestr uchun konsert (1953), goboy

va orkestr uchun konsert (1953) asarlari mavjud. 1966 yili Birmengem (Angliya)da o'tkazilgan xalqaro tanlov uchun Arnold fleyta, goboy, klarnet, fagot va valtorna cholg'ularining har biri uchun alohida fantaziyalar yaratdi. Ushbu cholg'u ijrochilari tanlovda mazkur fantaziyalarni jo'rsiz yakka holda chalishlari majburiy bo'lgan.

Mashhur Ingilz kompozitori **Benjamin Britten (1913-1976)** qalamiga damli cholg'ular uchun qator asarlar mansub. Uning «Persel mavzulariga variatsiya va fuga» (1940), yosh tinglovchi uchun yo'llanma sifatida suratga olingan «Orkestr cholg'ulari» kinofilmiga yozgan musiqasi, ko'pgina mamlakatlar sozandalari tomonidan chalinadigan ovoz, valtorna va torli orkestr uchun «Serenada»si ahamiyatlidir. Uning goboy uchun «Ovidichasiga oltita metamorfoza» asari yakkaxon cholg'u uchun yozilgan dastlabki kuylardandir. Bu oltita asarlar qadimgi grek afsonalari asosida programmali tarzda yaratilgan bo'lib, «Pan», «Faeton», «Nioba», «Vakx», «Nartsiss» va «Aretuza» deb nomlanadi. Ular qadimgi grek shoiri Ovidi tomonidan aytilib yozib qoldirilgani uchun uning nomi bilan ataladi.

XX asr Amerika Qo'shma Shtatlari kompozitorlari orasida damli cholg'ular uchun asarlar yaratgan **Aron Koplend** ning klarnet uchun konserti mashhur klarnetchi Benni Gudmen tomonidan mohirona ijro etilgan. Uning klarnet va fortepiano uchun seksteti o'zining ikkinchi simfoniyasi asosida yaratilgan.

Amerika kompozitorlaridan yana biri **Uolter Piston** o'z ijodida ko'proq fleyta cholg'usiga o'z e'tiborini qaratgan. Uning asarlari ichida «Mohir fleytachi» baleti 1938 yili sahnaga qo'yilgan. Kamer cholg'u asarlari orasida damli cholg'ular triosi (1926), goboy va fortepiano uchun sonata (1931), klarnet va fortepiano uchun konsert (1935), fleyta va torli cholg'ular uchun kvintet (1942), fleyta va fortepiano uchun sonata (1942), ingliz rojogi, valtorna, torli cholg'ular va arfa uchun fantaziya (1954), damli cholg'ular uchun kvintet (1956) asarlari taniqli.

**Samyuel Barberning** fleyta, goboy, truba va torli cholg'ular uchun konserti (1944) ko'p mamlakatlarda ijro qilingan. Uning damli cholg'ular uchun «Yozgi musiqa» deb nomlangan mi-bemol major kvinteti, S.Kusevitskiyga bag'ishlangan truba, valtorna, trombon va tuba uchun (Fanfara) kvartetlari mashhur. Amerika kompozitorlaridan L.Bernsteynning klarnet va fortepiano uchun sonatasi; K.Kennanning truba uchun sonatalari jahonning mashhur ijrochilari repertuaridan joy olgan.

Lotin Amerikasi kompozitorlaridan Braziliyalik sozanda va dirijyor **Eytor Villa Lobos (1887-1959)** ijodidan turli cholg'ular tarkibi uchun «Shoros» deb nomlanuvchi 14 ta kuydan iborat asarlar to'plami qadimgi braziliya, hindu va

negr ohanglari asosida yaratilgan. Uning I.S.Bax xotirasiga bag'ishlangan «Braziliya baxiana»lari turli damli cholg'ular uchun yozilgan.

Chex kompozitorlari orasida **Boguslav Martinu (1890-1959)** o'z hayotining ko'p qismini fransiya va shveysariyada o'tkazgan bo'lsa ham uning ijodi chex milliy ohanglariga asoslangandir. Ammo Martinuning musiqiy tilida fransuz impressionizmi va neoklassisizmning omuxtaligi sezilib turadi. Bunday uslub uning yog'och damli cholg'ular uchun kvintetida, goboy, klarnet va fortepiano uchun to'rtta madrigalida, fleyta va fortepiano uchun sonata, goboy va orkestr uchun konserti, klarnet va fortepiano uchun sonatina, truba va fortepiano uchun sonatina va boshqa asarlarida muhim o'rin tutgan. Uning truba va fortepiano uchun fa major sonatinasi kamer cholg'u janridagi eng yaxshi asarlaridan biri b'lib hisoblanadi. Ko'p yillar davomida ushbu sonatina «Praga bahori» xalqaro tanlovining majburiy dasturi bo'lib kelgan. Uning zamonaviy garmonik tili, shaklining o'ziga xosligi, chex milliy koloriti, musiqiy timsollarining yorqinligi ko'p ijrochilarning e'tiborini qozongan.

Yana bir chex kompozitori **Yirji Pauer** o'zining uchta klarnet uchun divertismentini, fagot (1950), goboy (1954), valturna(1959) va fortepiano uchun konsertlarini hamda goboy va fortepiano uchun sonatalarini yozgan.

**Miroslav Kreychi** Xindemitga o'xshab barcha asosiy orkestr cholg'ulari uchun kamer asarlar yozgan. U fleyta, goboy, klarnet, fagot, valturna, truba va boshqa cholg'ular uchun sonata va sonatinalar yaratgan. Ular ichida ko'zga ko'ringanlaridan biri trombon va fortepiano uchun sonatasi bo'lib(1948), ushbu asar 1962 yilgi «Praga bahori» xalqaro tanlovining majburiy dasturi sifatida qabul qilingan.

**Karl Rayner** klarnet, arfa va kamer orkestr uchun divertisment (1947), damli va zarbli cholg'ular uchun konsert syuitasi (1947), bas klarnet, torli va zarbli cholg'ular uchun konsert (1966), kamer asarlaridan: klarnet va fortepiano uchun to'rt p'esa, goboy va fortepiano uchun uch p'esa, truba fortepiano uchun olti kuy, yakka klarnet uchun to'rt p'esa, fleyta va fortepiano uchun olti etyud, fleyta, bas klarnet va zarbli cholg'ular uchun trio, fagot va fortepiano uchun syuita kabi asarlar kompozitor ijodining qariyb yarmisini tashkil qiladi.

**Emil Globil** ijodida klarnet va orkestr uchun rapsodiya, damli cholg'ular kvinteti, valturna va fortepiano uchun sonata, fleyta, goboy, klarnet va fagot uchun kvartet, klarnet, alt va bas klarnetlar uchun «Kamer musiqa» ko'zga ko'ringanlari hisoblanadi.

Kamer cholg'u janrida **Yan Rixlik** ko'p asarlar yaratgan. U Baxga o'xshab yakka fleyta uchun klassik an'analar ta'sirida kuylar yozgan. Uning fleyta uchun to'rt etyudi, to'rt partitasi(1954, 1956), Chex kompozitorlari uyushmasining mukofoti bilan taqdirlangan. To'rtinchi partitasi tantanavor ohangda boshlanadi. Ko'p marta qaytariladigan ostinata mavzusi yumshoq ohangli variatsiyalar

joʻrligida chalinadi. Ikkinchi qismi «Balet» deb nomlanadi. Uchinchisi «Kaprichchio» injiq kayfiyatda boʻlib, toʻrtinchi Adajio qismi sekin, osoyishta ohanglarda yakunlanadi.

Kompozitorlardan **Oldrij Flosman** ning fagot va orkestr uchun konsertinosi (1956), «Damli cholgʻular» va kamer orkestr uchun kvinteti, fleyta va arfa uchun «Romans va Skerso»si (1965) yozgan asarlaridan koʻzga koʻringanlaridir. Chex kompozitorlaridan I.Matey, Z.Krjijek, O.Maxi, Z.Vostrajak, V.Feliks va boshqalar ham damli cholgʻular uchun asarlar yaratishgan. V.Feliksning klarnet va fortepino uchun fa major fataziyasi (1950) uning birinchi ijrochisi M.Etlikka bagʻishlangan. Asarga Ivan Skalaning «Boʻlishi mumkin ...» nomli shʻeri epigraf qilib olingan. Uning gʻoyasi: «Bolalarimizning yorqin kelajagi va bugunini taʼminlash maqsadida dunyoda tinchlik uchun kurashaylik» degan shiorni oldinga suradi.

Damli cholgʻular asarlari borasida Polyak kompozitorlaridan **Kazimer Serotskiyning** trombon uchun sonatinsi mashhur trombonchi Yu.Petraxovichning ijrochilik mahorati taʼsirida yozilgan. Uning qator asarlari ichida toʻrtta trombon uchun syuitasi (1953) ham qiziqarlidir.

Boshqa polyak kompozitori **Mixail Spisak (1914-1965)** trombon texnik mahoratini rivojlantirish uchun hissa qoʻshgan ijodkorlardan hisoblanadi. Uning trombon va orkestr uchun konsertinosi (1951) trombonning pastki va yuqorigi registrlari eng oxirgi tovushlari (kontroktava mi va ikkinchi oktava mi)ni qamrab oluvchi asardir. Ushbu kuy interval texnikasi jihatidan mazkur cholgʻu uchun eng murakkab sakrashli yagona asar deb topilgan. Spisakning orkestr va kamer asarlari ichida fagot va orkestr uchun konserti (1944), goboy, klarnet, fagot uchun sonatinsi (1946), alt va fagot uchun duet (1949), goboy va orkestr uchun konserti (1962), kvintet va kvartetlari bor.

Venger kompozitorlari orasida **Bela Bartok (1881-1945)** xalq kuylari asosida oʻz uslubiga ega boʻlgan ijodkordir. Uning skripka, klarnet va fortepiano uchun «Kontrast» – tafovut nomli triosi 1939 yili 9 yanvar Nyu-Yorkda muallifning oʻzi, Yojeff Sigetti va Benni Gudmenlar tarafidan birinchi marta ijro etilgan.

Yana bir venger kompozitori **Ferens Gidash** oʻzining goboy cholgʻusi uchun yozilgan asarlari bilan mashhur. Uning goboy va orkestr uchun re major konserti (1953), oʻzining yorqin va hayotbaxshligi bilan ajralib turadi. Uning birinchi qismidagi mavzulari bir-biri bilan ziddiyatli tarzda tuzilgan, bosh partiyasi sokin xarakterda boʻlsa, yordamchi partiyasi lirik ohanglarda, kadensiyasi esa shu qismdagi eng ahamiyatli boʻlagi hisoblanadi. Ikkinchi qismi Andante boʻlib, tabiat manzaralarini aks ettiradi. Final qismi virtuoz xarakterda yakunlanadi. Shuningdek, Gidash tomonidan goboy va fortepiano uchun xalq

kuylari asosida ikki p'esa yozilgan. Uning klarnet va fortepiano uchun fantaziyasi bizda ham mashhur.

Venger kompozitorlaridan R.Kokaining klarnet va fortepiano uchun «To'rtta venger raqsi»; R.Maroshning fagot va orkestr uchun konsertinosi; B.Tordoshning fleyta va fortepiano uchun «Prelyudiya va Rondo»si; Ishtvan Langning fleyta, goboy, klarnet, valturna va fagot uchun kvinteti va boshqalar ijrochilar repertuaridan o'rin olgan.

Rumin kompozitorlaridan **Jorje Enesku (1885-1955)** ham damli cholg'ularga o'z e'tiborini qaratgan. Uning fleyta va fortepiano uchun «Kantabile», «Presto» asarlari fransuz fleytachisi Klod Taffanelga bag'ishlangan bo'lsa, truba va fortepiano uchun «Afsona» kuyini M.Frenkenugaga bag'ishlagan.

Bolgar kompozitorlaridan **Pancho Vladigerov** fleyta, goboy, klarnet cholg'ulari uchun yigirma ikkita asar yaratgan. Bundan tashqari o'zining fortepiano hamda skripka uchun yozgan asarlarini damli cholg'ular uchun o'zi moslashtirgan. Shulardan fleyta va fortepiano uchun «Poema», «Mo'jiza», «Intermezzo va g'arbiy romans», «Klassik va romantik kayfiyat», «Qo'shiq va yumoreska», «Kichik prelyud va raqs» asarlaridir. Bulardan tashqari damli cholg'ular uchun besh xoral va boshqalar shular jumlasidandir.

### ***Qaytarish uchun savollar:***

1. Damli cholg'ular uchun yozilgan darsliklarning ahamiyati haqida nimalarni bilasiz?
2. Ularning barchasi zamon talabiga javob beradimi?
3. Damli cholg'ular sohasida kollejlar va akademik litseylar uchun yaratilgan qanday darsliklarni bilasiz?
4. Damli cholg'ular uchun chet el kompozitorlari asarlarini izohlang.

## **CHET EL OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI DAMLI CHOLG'ULAR IJROCHILIGI HAQIDA**

Turli xorijiy mamlakatlarning maxsus jurnallari damli cholg'ular ijrochiligi olamida bo'layotgan yangiliklar, o'zgarishlar va boshqa xabarlarni yetarli darajada yoritib bormoqda.

Shunday jurnallardan biri Shvetsariyada bosilib chiqidigan «Bras Byulleten» (Brass Bulletin, Bulle, Switzerland) bo'lib, uning xo'jayini va bosh muharriri oldin trubachi va pedagog bo'lib ishlagan Jan Per Matedir. U Shvetsariyaning Byul shahrida «BIM» nashriyatini tashkil qilib, unda o'quv qo'llanmalar, nota adabiyotlari va mis damli cholg'ular uchun yaratilgan asarlar

dunyo yuzini koʻrgan. Mazkur jurnal bir yilda toʻrt marta chiqariladi. Uning har bir soni fransuz, ingliz va nemis tillarida boʻlib, 7000 nusxada chop etiladi.

Bosh muharririning aytishiga qaraganda ushbu jurnalni 90 mamlakatning 45000 dan ortiq damli cholgʻular ijrochilari juda qiziqish bilan oʻqir ekan. Buning sababi unda damli cholgʻular tarixi, turli mamlakatlardagi ijrochiligi, hozirgi zamon pedagogikasi va uning ahvoli, yirik sozandalar hayoti va ijodi, xalqaro tanlovlar, simpoziumlar, seminarlar, «master klass»lar va boshqalar toʻgʻrisida maqolalar berilib borilishidadir. Bu jurnal rangli turfa xil rasmlar bilan bezatilgan, bu rasmlarda turli damli cholgʻular, mundshtuklar, nota adabiyotlari, CD va DVD disklar, shuningdek, simfonik orkestrlarning vakant oʻrinlariga nomzodlar tanlovi, xalqaro tanlovlar va ularning oʻtkazilish vaqti kabi eʼlonlar ham berib boriladi. Bu jurnalda M.I.Tabakov, S.N.Yeremin, G.A.Orvid, T.A.Dokshitser, A.A.Kozlov, V.F.Vengolovskiy, V.M.Buyanovskiy, P.K.Orexov, Yu.A.Bolshiyarov va boshqalar haqida maqola va ocherklar chop qilingan. Ayniqsa Timofey Dokshitser toʻgʻrisida «Yurak haqidagi hikoya» maqolasi musiqaga bagʻishlangan boʻlmasa ham butun dunyo sozandalari aniqrogʻi trubachilarining yakdilligini ifodalaydi. Maqolaning qisqacha mazmuni quyidagicha: RSFSR xalq artisti Timofey Dokshitser hayotining keyingi yillarida qattiq bosim ostida ishlashi, uzluksiz konserlarda chiqishlari natijasida sogʻligiga putur yeta boshlaydi. Uni yurak xuruji bezovta qilib, koʻpgina konsertlarda qatnasha olmaydi. T.Dokshitser gollandiyaga borgan paytida uning hamkasbi yosh talantli trubachi Arto Xuurnveg ustozning kasalidan xabardor boʻladi va uni operatsiya qildirishga koʻndiradi. Ammo buning uchun katta mablagʻ 25000 AQSh dollari zarurligini bilib, mazkur jurnal orqali butun dunyo «Trubachilari gildiyasi»ga murojaat qiladi. Qisqa davr ichida koʻzlangan mablagʻ yigʻiladi va T.Dokshitser operatsiyadan muvaffaqiyatli chiqadi. U kasalxonadalik paytidayoq oʻzini yurak xurujidan xalos qilishda katta yordam koʻrsatgan barcha xomiylarga xususan «Trubachilar gildiyasi»ga shu jurnal orqali chuqur minnatdorchiligini bildiradi.

Hozirgi davrda AQShda butun dunyo orkestr cholgʻulari ijrochilarini birlashtirish, ularni bir-biri bilan tajriba almashishi, artistlik mahoratini oshirish va oʻqitish darajasini koʻtarish maqsadida tuzilgan har xil uyushmalar mavjud. Shulardan 1970 yilda tashkil topgan xalqaro valtorna jamiyati (International Horn Societu) qisqartirilgani HIS boʻlib, shu bugungi kungacha ikki yarim mingdan ortiq aʼzoga ega. Butun dunyo tuba ijrochilarining birodarlik jamiyati (Tubists Universal Brotherhood Association) qisqartirilgani TVBA 1971 yilda tuzilgan. Uning aʼzolari ikki mingdan ortiq. Trombonchilarning xalqaro assosiasiyasi (International Trombone Association) qisqartirilgani ITA 1972 yili tashkil topgan. Uch mingga yaqin aʼzolari mavjud. Xalqaro trubachilar gildiyasi (International Trumpet Guild) qisqartirilgani ITG 1975 yili tashkil qilingan

bo'lib uning a'zolari uch mingdan ortiq ijrochini tashkil qiladi. Ularning orasida O'zbekistondan professor V.F.Po'latov uning shogirdi professor V.V.Verigin va Toshkentda ta'lim olgan, keyinchalik Saratov konservatoriyasining professori A.D.Selyaninlar ham bor.

Yuqorida nomlari keltirilgan tashkilotlar har yili bir marta o'z kongresslarini o'tkazadi. Unda ilmiy metodik ma'ruzalar bilan birgalikda taniqli ustozlarning xalqaro tanlovlarda g'olib bo'lgan o'quvchilari ishtirokida konsertlar ham uyushtiriladi. Shuningdek, har bir tashkilot o'z jurnallarini chop etadi va unda damli cholg'ular ishlab chiqaruvchi firmalarning reklamasiga keng o'rin beriladi.

Keyingi paytlarda internet tarmog'idan axborot olish barcha uchun birdek oson bo'lib bormoqda. Turli saytlarda damli cholg'ularning kelib chiqish tarixidan tortib mashhur ijrochilarning hayoti va ijodiga doir ma'lumotlarni qiyinchiliksiz topish mumkin.

## PEDAGOGIK REPERTUAR RO‘YXATI

Eugene Bozza	Image – Solo.
Eugene Bozza	Agrestide – Solo.
Philippe Gaubert	Fantazi.
Pierre Sancan	Fleyta va fortepiano uchun Sonatino.
Henri Busser	Fleyta va fortepiano uchun Preljudiya va skerso.
Aiph Duvevnoy	Fleyta va fortepiano uchun Kosertino.
A.Perilhou	Fleyta va fortepiano uchun Ballade.
P.Xindemit	Fleyta va fortepiano uchun Sonata.
A.Dyutiye	Fleyta va fortepiano uchun Sonatina.
R.Abdullayev	Fleyta va fortepiano uchun uchta p’esa.
S.Abramova	Fleyta va fortepiano uchun Konsert.
S.Boboyev	Fleyta va fortepiano uchun Rapsodiya.
B.Gienko	Fleyta va fortepiano uchun Badaxshon raqsi.
R.Glier, T.Sodiqov	Fleyta va fortepiano uchun Raqs.
R.Glier	Fleyta va fortepiano uchun ikki p’esa, op.№№1,2. –M., 1962. «Rondo», fleyta va fortepiano uchun G.Nagorniy tomonidan moslashtirilgan, op. 43. №6. –M.,1963.
O.Gordeli	Fleyta va orkestr uchun konsertino. –Tibilisi, 1962.
I.Katayev	Fleyta va fortepiano uchun ikkita p’esa (Xitoycha raqs, op.2; Ertak, op.3). A.Korneyev tahriri. –M., 1963.
I.Kostlan	Fagot va fortepiano uchun Ikki etyud (№№ 3 va 4) –M.,1964.
A.Leman	Fleyta va fortepiano uchun Syuita (Ohang, Skerso, Alla, Raqs). –M.,1960.
A.Malaxov	Fleyta va fortepiano uchun Konsert allegro.
N.Morunkova	Fleyta va fortepiano uchun Yumoreska.
G.Mushel	Fleyta va fortepiano uchun Ariya, Arabeska.
G.Mushel	Fleyta va fortepiano uchun Skerso, Sonatina.
F.Nazarov	Fleyta va fortepiano uchun Konsertino.
F.Nazarov	Fleyta va fortepiano uchun Syuita (uch qismli).
G‘.Qodirov	Fleyta va fortepiano uchun Ikkita raqs.
G‘.Qodirov	Fleyta va fortepiano uchun Kuy.
T.Qurbonov	Fleyta va fortepiano uchun P’esa.
T.Qurbonov	Fleyta va fortepiano uchun Improvizasiya.
N.Rakov	Fleyta va fortepiano uchun uch p’esa (Bagatel, Skerso, vals). –M., 1960.

S.Ryauzov	Fleyta va torli orkestr uchun konsert. –M.,1964.
V.Saparov	Fleyta va fortepiano uchun Konsertino.
B.Savelyev	Fleyta va orkestr uchun konsert. –M.1963.
D.Saydaminova	Fleyta va fortepiano uchun Konsertino.
E.Shvarts	Fleyta va fortepiano uchun Sonata.
M.Tojiyev	Fleyta va fortepiano uchun Sharq raqsi.
A.Tuch	Fleyta va fortepiano uchun variatsiyalar. –Riga, 1961; –M.,1961.
P.Xoliqov	Fleyta va fortepiano uchun Raqs.
P.Xoliqov	Fleyta va fortepiano uchun Skerso.
P.Xoliqov	Fleyta va fortepiano uchun Konsert.
S.Varelas	Fleyta va fortepiano uchun P’esa.
B.Zeydman	Fleyta, klarnet va fortepiano uchun qo’shaloq konsert.
V.Zveryev	Fleyta va fortepiano uchun Syuita (Prelyudiya, vals, poetik kartinka, raqs). A.Korneyev tahriri. –M.,1962.
N.G’iyosov	Fleyta va fortepiano uchun Fantaziya.
S.Abramova	Goboy va fortepiano uchun Sharqona raqs.
S.Abramova	Goboy va fortepiano uchun Raqs.
F.Amirov	Ozarbayjon xalq mavzulariga goboy yoki fleyta uchun p’esa. –M., 1962.
M.Ashrafiy	Goboy va fortepiano uchun So’zsiz qo’shiq.
T.Azimov	Goboy va fortepiano uchun P’esa.
X.Azimov	Goboy va fortepiano uchun Xayol.
M.Bafoyev	Goboy va fortepiano uchun Lirik hikoya.
R.Felitsiant	Goboy va fortepiano uchun Prelyudiya.
R.Glier	Goboy va fortepiano uchun Romans.
R.Glier	Goboy va fortepiano uchun Kuy.
I.Ilin	Goboy va fortepiano uchun p’esalar (Ballada, Cho’pon qo’shig’i, Raqs, Poema). –M., 1963.
F.Nazarov	Goboy va fortepiano uchun Qo’shiq va raqs, O’zbekcha skerso.
S.Jalil	Goboy va fortepiano uchun Sonata.
S.Jalil	Goboy va fortepiano uchun Sharqona syuita.
Yu.Levitin	Goboy va torli orkestr uchun konsert, op.50. –M., 1962.
	Klarnet, fagot va orkestr uchun konsert. –M.,1963.
G.Mushel	Goboy va fortepiano uchun Uch p’esa, To’rtta raqs.
G.Mushel	Goboy va fortepiano uchun Yodnoma.
G’odirov	Goboy va fortepiano uchun O’zbekcha raqs.

G' Qodirov	Goboy va fortepiano uchun P'esa.
G' Qodirov	Goboy va fortepiano uchun O'zbekcha raqs.
T.Qurbonov	Goboy va fortepiano uchun Rondo.
Ya.Sabzanov	Goboy va fortepiano uchun Pomir rivoyati.
D.Soatqulov	Goboy va fortepiano uchun P'esa.
B.Xudoynazarov	Goboy va fortepiano uchun Konsert p'esasi.
F.Yanov-Yanovskiy	Goboy va fortepiano uchun Konsert.
S.Varelas	Goboy va fortepiano uchun Hazil.
F.Vitachek	Goboy va fortepiano uchun Lirik p'esa, raqs. (op.24.№1,№2). –M., 1963.
X.Xasanov	Goboy va fortepiano uchun P'esa.
P.Xoliqov	Goboy va fortepiano uchun Sonatina.
A.Xoshimov	Goboy va fortepiano uchun Raqs.
Aadu Regi	Klarnet va fortepiano uchun eston xalq mavzulariga uch p'esa (Qadimgi ohang, Cho'pon qo'shig'i, Raqs). –M., 1961.
M.Arnold	Klarnet va fortepiano uchun Sonatina.
M.Bitch	Klarnet va fortepiano uchun Bagatel.
P.Bone	Klarnet va fortepiano uchun Ikkita kapris.
E.Bozza	Klarnet va fortepiano uchun Konsert.
E.Bozza	Klarnet va fortepiano uchun Bukolika.
E.Bozza	Klarnet va fortepiano uchun Improvizasiya Kapris.
E.Bozza	Klarnet va fortepiano uchun Pulchinalla.
E.Bozza	Klarnet va fortepiano uchun Klaribel.
M.Dollon	Sharq fantaziyasi.
J.Franse	Klarnet va fortepiano uchun Konsert.
J.Franse	Klarnet va fortepiano uchun Mavzuga variasiyalar.
A.Ganebin	Klarnet va fortepiano uchun Fantaziya.
A.Gedike	Klarnet va fortepiano uchun Noktyurn, op.28. №1. –M.,1961.
A.Komarovskiy	Klarnet va fortepiano uchun konsert. –M.,1961.
A.Messaje	Konkurs solo.
Nelson	Klarnet va fortepiano uchun Konsert.
S.Prokofyev	Klarnet va fortepiano uchun B.Prorvich moslashtirgan «Romeo va Juletta baletidan to'rt p'esa» Bokira qiz Juletta, Niqoblar, Risarlar raqsi (Montekki va Kapuletta), Merkusio. –M.,1960. «Zolushka» baletidan to'rt p'esa (gavot, Feya, Qish, Passp'e, Adajio). –M.,1961

F.Pulenk	Klarnet va fortepiano uchun Sonata.
A.Rabo	Konkurs solo.
J.Ruf	Klarnet va fortepiano uchun Konsertino.
P.Sankan	Klarnet va fortepiano uchun Sonatina.
D.Shostakovich	Klarnet va fortepiano uchun A.Shtarkning erkin qayta ishlovi, «Uch p'esa» (To'qqizinchi simfoniya dan Adajio, vals, Skerso). –M.,1965.
Inessa Sumbatyan	Klarnet uchun Improvizasiya va skerso. –Yerevan, 1964.
P.Sverte	Klarnet va fortepiano uchun Konsert.
A.Tanemal	Klarnet va fortepiano uchun Konsert.
A.Tomazi	Klarnet va fortepiano uchun Konsert.
B.Troshin	Klarnet va fortepiano uchun konsertino. –M., 1963.
B.Troshin	Klarnet va fortepiano uchun P'esalar. –M.,1963.
S.Vasilenko	Klarnet va orkestr uchun konsert, op.35. –M.,1963.
M.Chuykov	Klarnet va fortepiano uchun rus xalq mavzulariga variyasiyalar. –M.,1962.
I.S.Bax	Yakka fagot uchun «Partita» Solo vilyam vaterxauz transkripsiyasi.
Gordon Yakob	Yakka fagot uchun «Partita», Solo: 1.Preljudiya, 2.Vals, 3. Presto, 4. Antik ariya, 5. Kaprichchizio.
Genri Dyutiye	Fagot va fortepiano uchun «Sarabanda va kortegi».
Jeyms Vaterson	Fagot va fortepiano uchun mavzuga variyasiyalar «Donisetti uchun sovg'a».
Moris Allard	«Paganini mavzulariga variasiya» (yigirma to'rtinchi kapris), Solo.
Noyol-Gallon	Fagot va fortepiano uchun «Rechitativli Allegro».
B.Savelyev	Fagot va orkestr uchun konsert. –M.,1964.
F.Yanov-Yanovskiy	«Monolog», Solo.
B.Anisimov	Truba va fortepiano uchun Konsert etyudi.
B.Anisimov	Truba va fortepiano uchun № 3 Konsert etyudi.
S.Anvarov	Truba va fortepiano uchun Konsert.
J.B.Arban	Truba uchun darslik.
M.Bafoyev	Truba va fortepiano uchun Skerso.
M.Bafoyev	Truba va fortepiano uchun Konsert p'esasi.
J.Bara	Truba va fortepiano uchun Andante va skerso.
N.Berdiyev	Etyudlar.
L.V.Betxoven	Truba va fortepiano uchun Sonatina.

- V.Brandt Truba va fortepiano uchun № 1 Konsert.  
I.Gaydn Truba va fortepiano uchun Konsert.  
G.F.Gendel Truba va fortepiano uchun Sonata.  
B.Gienko Truba va fortepiano uchun Rondino, Kansonetta.  
B.Gienko Truba va fortepiano uchun Beshta p'esa.  
R.Glier Truba va fortepiano uchun Konsert.  
I.I.Gummel Truba va fortepiano uchun Konsert.  
V.Helokov Truba va fortepiano uchun №№ 1,2 Etyudlar. –M., 1964.  
K.Karayev Truba va fortepiano uchun E.Efendiyev qayta ishlagan «Yetti go'zal» baletidan vals. –M.,1963.  
S.Karim-Xoji Truba va fortepiano uchun Lirik poema, Konsert № 1.  
S.Karim-Xoji Truba va fortepiano uchun Konsert № 1.  
S.Karim-Xoji Truba va fortepiano uchun Konsert № 2.  
I.Leonov Truba va fortepiano uchun Konsert.  
K.Mostras Truba va fortepiano uchun «Bahor qo'shig'ii». –M., 1963.  
V.A.Motsart Truba va fortepiano uchun Sonatina.  
A.Mulyar Truba va orkestr uchun konsert. –Kishinev, 1962.  
G.Mushel qayta Truba va fortepiano uchun O'zbek xalq kuyi ishlagan «Bo'lmasa».  
Ch.Nurimov Truba va fortepiano uchun Konsert.  
A.Polonskiy Truba va fortepiano uchun Eksprompt Romans. –M., 1962.  
S.Prokofyev Truba va fortepiano uchun V.Yudin moslashtirgan «Romeo va Juletta» baletidan Uch p'esa (Kuy op.35 bis №2; Qizlar raqsi); «Uch apelsinga muhabbat» operasidan Marsh. –M., 1963.  
T.Qurbonov Truba va fortepiano uchun Oda.  
N.Rakov Truba va fortepiano uchun Syuita (Kantsona, Intermezzo, Romans, Yumoreska). –M.,1963.  
H.Raximov Truba va fortepiano uchun «Skerso».  
D.Saliman-Vladimirov Truba va fortepiano uchun Koreys ohanglari «Музыкальная жизнь» jurnali. –M., 1961. № 23.  
D.Saydaminova Truba va fortepiano uchun «Uchta p'esa».  
I.Shaxov Truba va orkestr uchun konsert. –M., 1962.  
O.Stepurko Truba va fortepiano uchun Jazdagi trubachi.  
M.Tojiyev Truba va fortepiano uchun Sonatina.  
B.Yarovinskiy Truba va orkestr uchun konsert. –Kiev, 1961.  
S.Varelas Truba va fortepiano uchun Konsert p'esasi.

- S.Varelas Truba va fortepiano uchun Konsert p'esasi.  
S.Vasilyev Truba va fortepiano uchun Skersino. –M.,1963.  
V.Vurm Truba uchun Tanlangan etyudlar.  
V.Vurm Truba uchun 25 ta yengil etyudlar.  
V.Vurm Truba uchun 60 ta etyudlar.  
V.Vurm Truba uchun 40 ta etyudlar.  
V.Vurm Truba uchun 20 ta vituoz etyudlar.  
P.Xoliqov Truba va fortepiano uchun Skerso.  
V.Zveryev Truba va fortepiano uchun Uch p'esa (Ballada, Skerso, Marsh). –M.,1962.
- B.Anisimov Valtorna va fortepiano uchun «Poema».  
B.Asafyev Valtorna va fortepiano uchun Motsart mavzulariga variyasiya. –M.,1964.
- A.Fattax Valtorna va fortepiano uchun «Lirik p'esa».  
I.Gaydn Valtorna va orkestr uchun № 1 va № 2 konsertlari.  
A.Gedike Valtorna va orkestr uchun konsert, op.40. –M., 1964.  
B.Gienko Valtorna va fortepiano uchun «Oqshom qo'shig'i».  
B.Gienko Valtorna va fortepiano uchun «Romans».  
R.Glier Valtorna va orkestr uchun konsert op.91. (Konsertning I qismiga V.Polex kadensiya yozgan). –M., 1964.
- B.Kolome Valtorna va fortepiano uchun «Fantaziya afsona».  
Yu.Levitin Valtorna va orkestr uchun konsert. –M., 1963.  
K.Matis Valtorna va orkestr uchun № 1, № 2, № 3, № 4 konsertlari.
- O.Miroshnikov Valtorna va fortepiano uchun A.Usov tahriridagi Rondo. –M., 1962.
- V.A.Motsart Valtorna va orkestr uchun № 1, № 2, № 3, № 4 konsertlari.
- V.A.Motsart Valtorna va fortepiano uchun «Konsert rondo».  
F.Nazarov Valtorna va fortepiano uchun «Alla».  
F.Nazarov Valtorna va fortepiano uchun «Raqs».  
N.Platonov Valtorna fortepiano uchun Poema. –M.,1961.  
T.Qurbonov Valtorna va fortepiano uchun «Ballada».  
K.Sen-Sans Valtorna va fortepiano uchun «Konsert p'esa».  
V.Shebalin Valtorna va fortepiano uchun konsertino. –M., 1963.  
Y.Shkroup Valtorna va fortepiano uchun «Konsert».  
R.Shtraus Valtorna va fortepiano uchun № 1, № 2, «Konsert»lari.

F.Shtraus	Valtorna va fortepiano uchun «Konsert».
R.Shuman	Valtorna va fortepiano uchun «Adajio va allegro».
A.Xolmuxamedov	Valtorna va fortepiano uchun «Raqs».
I.Akbarov	Trombon va fortepiano uchun Noktyurn.
I.Akbarov	Trombon va fortepiano uchun Noktyurn.
V.Blajevich	Trombon va fortepiano uchun Skerso.
V.Blajevich	Trombon va fortepiano uchun № 2,3,4,5,7,8,9, 10 konsertlari.
Defay	Trombon va fortepiano uchun ikki raqs.
Dyutiye	Trombon va fortepiano uchun Xoral, Variasiya, Kadensiya.
A.Gilman	Trombon va fortepiano uchun Konsert p'esa.
Giropar	Trombon va fortepiano uchun P'esa.
R.Glier	Trombon va fortepiano uchun Konsert Noktyurn.
Kryuche-Spinelli	Trombon uchun Konkurs solo.
Moralev	Trombon va fortepiano uchun Konsert.
Mazels	Trombon uchun Konkurs solo.
G.Mushel	qayta Trombon va fortepiano uchun O'zbek xalq kuyi «Bo'lmasa».
ishlagan	
G.Mushel	Trombon va fortepiano uchun Konsert Qaxramonona rechitativ.
Ig.Katayev	Trombon va fortepiano uchun Serenada.
Nesterov	Trombon va fortepiano uchun Konsert.
N.Norxodjaye	Trombon va fortepiano uchun Xayol.
N.Norxodjaye	Trombon va fortepiano uchun Lirik vals.
Ch.Nurimov	Trombon va fortepiano uchun Konsert p'esasi.
V.Oyakyaar	Trombon va fortepiano uchun Quvnoq polka.
N.Platonov	Trombon va orkestr uchun konsert. –M., 1962.
G' .Qodirov	Trombon va fortepiano uchun Raqs.
T.Qurbonov	Trombon va fortepiano uchun Konsert Rondo.
T.Qurbonov	Trombon va fortepiano uchun Rondo.
Ragvitich	Trombon va fortepiano uchun Sonatina.
E.Reyxe	Trombon va fortepiano uchun №1,2 Konsertlari.
Serotskiy	Trombon va fortepiano uchun Konsert.
M.Spisak	Trombon va fortepiano uchun Ballada.
M.Spisak	Trombon va fortepiano uchun Konsertino.
T.Sodiqov	Trombon va fortepiano uchun Bahor.
Stoevskiy	Trombon va fortepiano uchun Fantaziya.
A.Taneyev	Trombon va fortepiano uchun Rondo skerso.

- A.Tomazi Trombon va fortepiano uchun Konsert.  
 Vasilyev-Enke Trombon va fortepiano uchun Konsert.  
 S.Vasilyev Trombon va fortepiano uchun Konsert p'esasi. –M., 1962.
- S.Varelas Trombon va fortepiano uchun Konsert Passakaliya.  
 S.Varelas Trombon va fortepiano uchun Kuy.
- D.Gendelev Tuba va fortepiano uchun Dramatik konsertino.  
 B.Gienko Tuba va fortepiano uchun vals.  
 A.Lebedev Tuba va fortepiano uchun № 1,2 Konsertlari.  
 A.Lebedev Tuba uchun Darslik 1 va 2 qismlar.
- Fleyta uchun kuylar to'plami Ozarbayjon kompozitorlari kuylari to'plami. Fleyta uchun A.Iskanderov moslashtirgan. –M., 1961. T.Kuliyev. Tonggi qo'shiq, Kichik skerso. J.Jangirov Miniatyura. S.Gadjibekov «Gulshan» baletidan gulshan va bolalar raqsi. N.Niyazi «Xisrov va Shirin» operasidan Shirin ariyasi. K.Karayev «Yetti go'zal» operasidan masxarabozlar raqsi. G.Karas tahriridagi fleyta uchun kuylar. –M., 1963. Ya.Eshpay. Mariy cho'poni kuylari. V.Oyakyayar Yumoreska. S.Nyaga. Doyna. F.Yevtodienko moslashtirgan. Latish kompozitorlarining fleyta uchun kuylari. –Riga, 1964. L.Garuta. Alla. Suv parisi qo'shig'i. Ye.Goldshteyn Latish raqsi. R.Karlson fleyta va fortepiano uchun Syuita. Fleyta uchun besh p'esa. Tuzuvchi B.Trizno. –L., 1964. S.Ryauzov fleyta va torli orkestr uchun konsertning II qismidan Fragment. S.Slonimskiy. Xromatik.
- Goboy uchun kuylar to'plamlari B.Lyatoshinskiy. Qo'shiq. G.Snisalo Kuy. B.Sosnovsev Bo'lina. –M., 1962. A.Artamonov Prelyudiya. B.Lyatoshinskiy. Menuet. G.Tixomirov. Improvizasiya. M.Goldshteyn. Noktyurn. –M., 1964. G.Sharmkoning goboy va fortepiano uchun moslashtirgan besh kuyi. M.Fishman. Hazil. N.Ponomarenko. Qadimgi raqs. D.Gershfeld. Yurayotgan kishi. E.Kokka. Sibiziq.

- Klarnet uchun kuylar to'plamlari A.Berezinning klarnet va fortepiano uchun p'esalar to'plamidan. –M., 1964. A.Spendiyarov. Romans. V.Herbachev. Sintemental romans. V.Povzunning klarnet va fortepiano uchun moslashtirgan p'esalari to'plami. –M., 1961. Ye.Botyarov. Ohang. S.Niss. Hikoya. A.Reggi. Qadimgi ohang. Estoncha raqs. A.Semenov tahririda klarnet va fortepiano uchun p'esalar to'plami. G.Voskanyan. Qo'shiq. Ya.Medin. Romans. V.Zveryev. Intermesso. Klarnet va fortepiano uchun p'esalar to'plami. –M., 1961. S.Yevseyev. Ertaksim on qo'shiq. Z.Komponeets. Boshqirdcha ohang va raqs. B.Matyoqubov. «Muhabbat» klarnet va fortepiano uchun to'rtta xorazmcha raqs. –T., 2004.
- Fagot uchun kuylar to'plami A.Litvinovning fagot va fortepianoga moslashtirgan Uch p'esa to'plamidan. –M., 1963. D.Arakishivili. Gruzincha qo'shiq. A.Znosko-Borovskiy. Skerso. L.Revutskiy. Ballada, op.20. Fagot va fortepiano uchun kuylar to'plamidan. –M., 1964. B.Sosnovsev. Skerso. N.Reznikov. Yumoreska. M.Golub. Kuy; Raqs. O.Agafonov. Lirik intermesso. I.Sepp. Xayolot.
- Valtorna uchun kuylar to'plami N.Aladov. Alla, op.114. № 1. K.Geyst. Tungi qo'shiq. Kuy. M.Ber. Tantanali qo'shiq. K.Karayev «Yetti go'zal» baletidan Adajio. R.Jafarov moslashtirgan. –M., 1965. BMM (4-5 sinflari) uchun «Pedagogik repertuar»dan. –M., 1960. O.Agafonov. Kuy. V.Zveryev. Mis damli cholg'ular uchun syuitadan Qo'shiq. S.Vasilyev. Kuy. V.Shafrannikov. Kuy. A.Rzayev. Andante.

- Truba uchun kuylar to'plami
- Truba va fortepiano uchun K.E.Ozola moslashtirgan to'plamdan. –Riga, 1963. Latish xalq kuylaridan «Ikkita oq ot», «Esgan shaboda» va boshqalar. E.Melngaylis. Menuet. E.Darzin. Ona qalbi. Melanxolik vals. Ya.Ozolin. Pioneerlar. Maktab onlari. A.Jilinskiy. Traktorhilar raqsi.
- S.N.Yeryomin tahriri ostidagi to'plam. –M., 1963. N.Rakov. Kuy. M.Milman. Xayolot. G.Dudkevich. Romans. Yu.Blinov. Novelleta. Prelyudiya. V.Shepelyev. Skersino.
- V.Volotskiy va L.Lipkin tuzgan to'plamdan. –M., 1961.
- N.Rakov. Qo'shiq. Vokaliz. A.Xachaturyan. Andantino. An.Aleksandrov. Uchrashuv, op. 66 № 1. D.Kabalevskiy. Skerso, or.27. № 11. V.Kosenko. Alla, op. 7. № 7. A.Spendiyarov. Romans. E.Tilicheyeva Qo'shiq. A.Gedike. Quyuncha. Raqs, op. 36. №№ 4,21.
- Yu.Usov moslashtirgan to'plamdan. –M., 1964. R.Glier Vals, op. 45. № 2. S.Prokofyev. «Klassik simfoniya»dan Govot. N.Myaskovskiy. Esdaliklar (Ohang). D.Shostakovich. Prelyudiya. A.Xachaturyan «Spartak» baletidan Egina raqsi.
- Trombon va tuba uchun kuylar to'plami
- M.Trusin trombon yoki tuba va fortepiano uchun moslashtirgan to'plamdan. –M., 1962. A.Gedike. Improvizasiya. N.Rakov Ariya. V.Blajevich. Konsert eskizi № 5.
- I.Lebedev tuba uchun moslashtirgan to'plamdan. –M., 1960. R.Glier fagot uchun yumoreska, op.35. № 8. A.Gedike violonchel va fortepiano uchun №3 Improvizasiya. A.Vlasov violonchel va fortepiano uchun Kuy.
- Trombon va fortepiano uchun to'plam. –M., 1963. A.Nesterov. Afsona. Skerso, op. 17. №№ 1,2. B.Kojevnikov. Ariozo; Skerso.

### **Yog'och damli cholg'ular va fortepiano uchun ansambllar**

- N.Aleksandrova Fleyta, goboy, klarnet, fagot kvarteti uchun syuita. –M., 1961.
- V.Blok Klarnet va fortepiano uchun Sonatina. –M., 1965.

- Ye.Botyarov Klarnet va fortepiano uchun Sonata. –M., 1962.  
E.Denisov Skripka, klarnet va fagot uchun trio. –M., 1965.  
G.Frid Fleyta va fortepiano uchun sonatina, or.21. –M., 1964.  
A.Gedike I.Reshetnyak ikki fagot uchun moslashtirgan oltita yengil kuy. –M., 1964.
- V.Geviksman To'rtta fagot uchun prelyudiya va fuga. –M., 1960.  
G.Gretskiy Goboy va fortepiano uchun duet. –M., 1963.  
«Qo'ng'iroq tovushi» rus xalq qo'shig'i. «O'rmonda askar bormoqda» polyak xalq qo'shig'i. «Cho'pon» chex xalq qo'shig'i.
- A.Iskanderov va Ikki fleyta uchun duetlar. –Boku, 1963.  
B.Trizno U.Gajibekov. «Layli va Majnun» operasidan qo'shiq, K.Karayev. Quvnoq voqea. E. Nazirova. Ozarbayjon xalq kuyi. T.Quliyev. Qo'shiq; Raqs.
- A.Iskanderov va Ikki fleyta uchun duetlar. –Boku, 1964.  
B.Trizno U.Gajibekov va T.Quliyev tomonidan qayta ishlangan Ozarbayjon xalq kuylari. K.Karayev. Quvnoq sayohat. A.Zeynalli. Mug'om uslubida. A.Babayev. Chorgoh.
- Yu.Levitin Fleyta va fortepiano uchun Sonata. –M., 1961.  
M.Milman va Fleyta, klarnet va fagot uchun Trio, op. 39. –M., 1964.  
M.Osokin «Uzoq yo'l», fleyta, goboy, klarnet va fagot kvarteti uchun oltita poetik ko'rinish. –M., 1963. Qachon bahor keladi (Prelyud), Uzoq yo'ldan (Turkmancha qo'shiq), Afsona (Amudaryoning eski o'zanida), Qum bosgan shahar (Anau), Yangi shaharda (Chelakan), Raqs (bayramda).
- V.Oyakyayar Klarnet va fortepiano uchun sonata. –M., 1962.  
G.Smirnova Fleyta va fortepiano uchun sonatina. A.Korneyev tahriri. –M., 1962.
- A.Turenkov Klarnet va fortepiano uchun sonatina. –L., 1964.  
P.Yakovenko Fleyta, goboy, klarnet, fagot kvarteti uchun kuy va raqs. –M., 1964.
- A.Xachaturyan Trio. –M., 1962.

### **Mis damli cholg'ular va fortepiano uchun ansambllar**

- Ye.Golubev Truba va fortepiano uchun sonata. –M., 1963.

### **Mis damli cholg'ular uchun ansambllar**

- B.Anisimov 2 truba, valtona va trombon uchun kvartetlar; 2 truba, valtona, trombon va tuba uchun kvintetlar. –M., 1963. (Kvartetlar) Protyajnaya, gavot, Noktyurn, Skerso; (Kvintetlar) Preljudiya, Tarantella, vals, Yumoreska, V.Solovev-Sedoy. Podmoskovnie vechera. B.Asafyev «Partizanlik kunlari» baletidan Partizanlar raqsi.
- B.Grigoryev va Trombon kvarteti uchun yengil kuylar. –M., 1962.  
N.Vostryakova Ye.Golubev. Xoral. B.Lyatoshinskiy. Kuz. A.Novikov. Ertalabki tuman.
- B.Grigoryev va Uchta trombon uchun trio. –M., 1962. Rus xalq  
N.Vostryakova qo'shiqlari.  
V.Kosenko Uchta truba uchun N.Berdiyev tomonidan qayta ishlangan uchta kuy (Petrushka, Pastoral, Yo'lga). –M., 1961.
- N.Leontovich 2 truba, valtona, trombon kvarteti uchun ikkita ukrain xalq qo'shiqi (Toshli tog' orqasida, Qo'shiq). –M., 1962.
- A.Mityushin Rus mavzulariga valtonalar kvarteti uchun konsertino. –M., 1961.  
G.Orvid tomonidan tuzilgan 2 truba, valtona, trombon kvarteti. –M., 1961. A.Xachaturyan Spartak baletidan «bozor» raqsi. T.Dokshitser qayta ishlagan. A.Aleksandrov № 3 torli kvintetining uchinchi qismi (Qo'shiq). G.Orvid moslashtirgan. L.Kogan (Moldavancha raqs) Sirba.

### **Damli cholg'ularning aralash tarkibi uchun ansambllar**

- A.Manevich Fleyta, goboy, klarnet, fagot va valtona kvinteti uchun Noktyurn va skerso. –L., 1960.
- Mirzazada Xayyam Fleyta, goboy, 2 klarnet, valtona fagot uchun sektet. –Boku, 1964.
- E.Myagi Fleyta, goboy, klarnet, fagot va valtona kvinteti uchun Ostinato. –M., 1964.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Абрамян Г. Методика развития исполнительских приемов на духовых инструментах с помощью визуального индикатора//Вопросы музыкальной педагогики. –М., 1983.

Андреев Е. О работе над продолжительными звуками, гаммами, арпеджио и основными штрихами в процессе индивидуальных занятий с музыкантами/МВДФ при МГК. –М., 1984. Вып 23.

Гарбузов Н. Зонная природа звуковысотного слуха. –М.-Л., 1948.

Гинзбург Л. О работе над музыкальным произведением. –М., 1947.

Диков Б. Методика обучения игре на духовых инструментах. –М., 1983.

Диков Б., Богданов В. Вопросы методики обучения игре на духовых инструментах/МИВД. –М., 1959.

Должиков Ю. Техника дыхания флейтиста /Вопросы музыкальной педагогики. –М., 1983.

Ерёмин Г. Методика первоначального обучения игре на фаготе. –М., 1963.

Маккинон Л. Игра наизусть. –Л., 1967.

Методика обучения игре на духовых инструментах. Сб. ст. Вып. 1-4. –М., 1964-1976.

Назайкинский Е. О психологии музыкального восприятия. –М., 1972.

Платонов Н. Вопросы методики обучения игре на духовых инструментах. –М., 1958.

Розанов С. Основы методики перподавания и игре на духовых инструментах. –М., 1935.

Теплов Б. Психология музыкальных особенностей. –М., 1972.

Усов А. Вопросы теории и практики игре на валторне. –М., 1957.

Усов Ю. Методика обучения игре на трубе. –М., 1984.

Федотов А. Методика обучения игре на духовых инструментах. –М., 1975.

Яворский Н. Обучения игре на медных духовых инструментах в первоначальный период. –М., 1959.

## QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR

Матёкубов Б. «Муҳаббат» кларнет ва фортепиано учун тўртта Хоразмча рақс. Истикболни белгилаш услубият ва ахборот Республика Маркази. –Т., 2002.

Matyoqubov B. Damli va zarbli cholg'ularda chalishni o'rgatish uslubiyati. –Т., 2004.

Мелкомини В.Л. Камерные произведения композиторов Узбекистана для деревянных духовых инструментов. Рукопись. –Т., 1987 (Личный архив В.Л.Мелькомини).

Мелкомини В.Л. Начальная школа обучения игре на гобое и на блокфлейте. –Т., Изд-во Г.Гуляма, 2002.

Муртазаев Б.М. Консерватория талабалари учун педагогик амалиёт ва ижрочилик махоратидан ўқув қўлланма. –Т., 2005.

Пулатов В.Ф. Школа игры на трубе. –Т., «Ўқитувчи», 1979.

Сафаров Р. Дополнение к программе: Специальные классы духовых и ударных инструментов. Республиканский методический кабинет. –Т., 1989.

Сафаров Р. Произведения композиторов Узбекистана для ансамблей духовых инструментов. –Т., Изд-во Г.Гуляма, 1988.

Сабуров Дж. Основные вопросы начального обучения игре на теноре, баритоне и тромбоне. В сб. «К вопросам музыкального обучения и воспитания исполнителей на духовых и ударных инструментах» (Методические рекомендации). Методический кабинет министерство культуры. –Т., 1989.

Сабуров Дж. Дополнение к программе специальные классы духовых и ударных инструментов. Методический кабинет министерство культуры. – Т., 1989.

Салихов Б. Кларнет дарслиги. ОЎМТВ. –Т., Ф.Фулум нашриёти, 2002.

Salixov B. Pedagogik va ijrochilik amaliyotlari. –Т., О‘zDK, 2006.

Салихов Б. Кларнет ижрочилигининг услубий масалалари. –Т., ЎзДК, 2007.

Қодиров Р.Ф. Мусика психологияси (маърузалар курси) ўқув қўлланма. –Т., «Мусика» нашриёти, 2005.

Қодиров Р.Ф. Ёш даврлари ва педагогик психология (маърузалар матни) ўқув қўлланма. –Т., «Мусика» нашриёти, 2005.

## MUNDARIJA

Muallifdan .....	3
Kirish .....	4
Damli cholg'ular ijrochiligining jismoniy va ruhiy asoslari .....	9
Damli cholg'ularda o'qitish uchun nomzodlar tanlashning o'ziga xosligi .....	12
Ijro va ifoda vositalari, tovush va uning sifati, damli cholg'ularda tovush hosil qilish asoslari va dinamik belgilar .....	14
Damli va zarbli cholg'ularda ijrochilik holati va uni yo'lga qo'yishning amaliy ahamiyati .....	18
Turli xildagi damli cholg'ularda ijrochi labining vazifasi .....	20
Damli cholg'ular ijrochiligida shtrixlar, tilning vazifasi, til zarbi va artikulyatsiya .....	21
Ijrochilik nafasi .....	33
Qo'l va barmoqlar harakati, uning ahamiyati va rivojlantirish yo'llari .....	41
Zarbli cholg'ular .....	42
Zarbli cholg'ularda ijrochilik mahorati asoslari .....	43
Musiqiy eshitish qobiliyati, xotira va usul sezgisi .....	45
O'quvchining musiqa san'atiga va tavsiya qilingan cholg'uga bo'lgan munosabatini tarbiyalash .....	48
O'quvchining cholg'u asbobiga ko'nikish holatining umumiy vazifalari .....	49
Ijro mahorati ustida ishlashning umumiy yo'llari .....	51
Musiqiy asarlar ustida ishlashning umumiy yo'llari .....	56
Kichik asarlarning o'ziga xosligi .....	58
Yirik shakldagi asarlarning o'ziga xosligi, sonata va konsert turlari .....	63
Orkestr va ansambl asarlari ustida ishlash, nota o'qish malakalarini rivojlantirish yo'llari .....	65
Ta'limning turli bosqichlarida dars o'tish uslubi .....	67
Uy vazifasini mustaqil bajarishni to'g'ri tashkil qilish .....	68
Damli cholg'ularda konsert ijrochilik xislatlarining o'ziga xosligi .....	69
Kasb bo'yicha muallim ustoz va murabbiy .....	70
Damli cholg'ularda tovush hosil qilishning o'ziga xosligi va sozlash vositalari .....	72
Damli cholg'ular uchun O'zbekiston kompozitorlarining asarlari va moslashtirilgan xalq kuylarining qisqacha izohi .....	75
Damli cholg'ular ansamblari uchun O'zbekiston kompozitorlari asarlarining qisqacha izohi .....	77

Damli cholgʻularning hozirgi zamon konsert ijrochilik va pedagogik repertuari hamda xorijiy adabiyotlariga qisqacha izoh .....	80
Chet el ommaviy axborot vositalari damli cholgʻular ijrochiligi haqida .....	91
Pedagogik repertuar roʻyxati .....	94
Foydalanilgan adabiyotlar .....	106

**Botir Jumaniyozovich MATYOQUBOV**

**DAMLI VA ZARBLI CHOLG‘ULARDA CHALISHNI  
O‘RGATISH USLUBIYATI**

**o‘quv qo‘llanma**

o‘zbek tilida

Muharrir *S.Rahmonova*

Texnik muharrir *N.Imomov*

Musahhah *K.Gureyev*

Original maketni *A.Ro‘ziqulov* tayyorlagan

**AB №35**

Bosishga 22.05.2008 yilda ruxsat etildi. Bichimi  $84 \times 108 \frac{1}{16}$ .

Shartli b.t. 7,2. Nashr b.t. 6,3. Adadi 250 nusxa.  
Buyurtma № 12-2008. Bahosi shartnoma asosida.

Original maket O‘zbekiston davlat konservatoriyasining  
Tahrir-nashriyot bo‘limida tayyorlandi va chop etildi.  
700027. Toshkent, Botir Zokirov ko‘chasi, 1-uy.